

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Geografiya kaferdrasi**

**"AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA  
ASOSLARI "**

fanidan (sirtqi yo'nalish uchun)

**O' Q U V – U S L U B I Y  
M A J M U A**

Bilim sohasi:	500 000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lif sohasi:	530 000 - Fizikaga oid fanlar
Ta'lif yo'nalishi:	60530400 – Geografiya yo'nalishi



**Tuzuvchilar:** **M.J.Mahmudova**, NamDU, geografiya fanlari nomzodi ,dotsent

**Taqrizchilar:** **Sh.Jumaxanov**, NamDU, geografiya fanlari nomzodi, dotsent.  
**A.Baratov**, NamDU, geografiya fanlari nomzodi, dotsent.

O'quv uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Kengashininig 2022yil "\_\_\_" avgustdagi "\_\_\_\_" - son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ishlatalishga tavsiya etilgan.

**Fakultet kengashi raisi:** \_\_\_\_\_ **A.Baratov**

## MUNDARIJA

<b>1.</b>	<b>O'quv materiallari:</b>	
1.1.	Ma'ruzalar	
1.2.	Amaliy mashg'ulot mavzulari	
1.3.	Mustaqil ta'lif mashg'ulotlari	
1.4.	Glosariy	
<b>2.</b>	<b>Ilovalar:</b>	
2.1	fan dasturi	
2.2	fan ishchi dasturi	
2.3	tarqatma materiallar	
2.4	testlar	
2.5	baholash mezoni	

Nº	Ma'ruza mavzulari	soati
<b>4-semestr</b>		
1	Aholi geografiyasi va ijtimoiy geografiya fanlari tizimi. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining obhekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, tadqiqot usullari. Shakllanishi tarixi.	2
2	Aholi to'g'risida malumotlar manbalari. Aholi ro'yxati. Aholisi soni va dinamikasi.	2
<b>5-semestr</b>		
1	Aholi tabiiy harakati. Aholi takror barpo bo'lishi tartibi va geografiyasi.	2
2	Aholining tarkiblari: aholining yosh, jinsiy, oilaviy, irqiy, etnik, ijtimoiy tarkibi. Dinlar geografiyasi.	2
3	Aholi va aholi manzilgohlari joylanishi. SHahar aholisi geografiyasi va urbanizatsiya jarayoni	2
		<b>6</b>
<b>Ja'mi</b>		<b>10</b>

# Ma’ruzalar matni

## Ma’ruza 1: Aholi geografiyasi va ijtimiiy geografiyasi fanlar tizimi. Aholi geografiyasi va demografiya soslari fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari usullari.Shakllanish tarixi.

### Reja:

1. Aholi geografiyasi fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish omillari.
2. Uning fanlar tizimidagi o’rni, boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalari.
3. Fanning obyekti, predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari.
4. Tadqiq etish metodlari.
5. Aholi geografiyasi fanining asosiy bo’limlari va muammolari.

**Tayanch tushunchalar (kalit so’zlar):** Aholi geografiyasi, bashoratlash, aholi siyosatlari, statistik tahlil, aholining sifatiy xususiyatlari, o’sishi yoki kamayishi, DEMOGRAFIYA siyosat, DEMOGRAFIYA bashorat.

**Aholi geografiyasi fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish omillari.** Geografik ta’lim tizimida aholi haqidagi bilimlar muhim o’rinni egallaydi. Yer kurrasi, uning alohida hududlarini, davlatlarni geografik tahlil etish uch qismidan iborat bo’lib, ular o’rganilayotgan hududning tabiatni, aholisi va xo’jaligini tashkil etadi.

Aholi deganda ma’lum hududda yashovchi kishflar guruhi tushuniladi. Mazkur guruhlar zaminida jamiyat shakllanadi. Yer kurrasada insoniyat paydo bo’lganidan to hozirga qadar bir qancha davrlar o’tdi. Ana shu davrlarda inson, jamiyat o’z mavjudligini saqlash va rivojlanish uchun muntazam harakat qilib keldi. Ushbu jarayonda aholi tabuy resurslardan foydalaniib, moddiy ehtiyoji uchun zarur vositalarni yaratdi, xo’jalik tizimini barpo etdi, rivojlantirdi. Ana shunga monand yer kurrasida aholi va aholi maskanlarining soni ham ko’payib bordi. Demak jamiyatni rivojlanishida uch asosiy omil – aholi, tabuy resurslar va xo’jalik rivojlanishining o’zaro bog’liqligi va undagi hududiy munosabatlar geografiya faruning asosiy ob’ekti hisoblanadi.<sup>1</sup>

Geografiya fani esa o’z navbatida o’rganish predmeti, maqsadi va mohiyatiga qarab bir nechta qismlarga bo’linadi. Ularga shartli ravishda **tabiiy** (tabuy geografiya, umumiylar bilimi, landshaftshunoslik, paleogeografiya, geomorfologiya, iqlimshunoslik, gidrologiya, biogeografiya, tuproqshunoslik), **sotsial** (umumiylar sotsial-iqtisodiy geografiya, aholi va mehnat resurslari geografiyasi, siyosiy geografiya, sanoat, qishloq xo’jaligi, transport, xizmat ko’rsatish, madaniyat va boshqalar geografiyasi), **tabuy-sotsial** (ijtimoiy ekologiya, geoekologiya, tarixiy, tibbiy, rekreatsion geografiya, okeanlar geografiyasi, resursshunoslik va tabiatdan foydalanish) va **geografiyaga bilvosita dahldor fanlar** (kartografiya, geografiya tarixi, toponimika, metageografiya) qismlarini kiritish mumkin<sup>2</sup>.

Aholini o’rganish, u haqida bilimlar to’plash juda qadimiy tarixga egadir. Antik davrga oid qo’lyozmalarda dunyodagi turli davlatlar tabiatni, aholisi, xo’jaligi, shaharlari, aholining turmush tarzi, urf-odatlari haqida sayohatchilar, savdogarlar, elchilar hikoyalari asosida to’plangan ma’lumotlar uchraydi. Bunday qimmatli tarixiy asarlarga I asrda Strabon tomonidan (17 kitob) yaratilgan «Geografiya», U asrdagi Ptolomeyning «Geografiya» kitobi misol bo’la oladi. Yer kurrasida aholi soni va ularning yashash maskanlari ko’payib borishi bilan aholi haqidagi bilimlar, ularni o’rganuvchi fanlar ham ko’payib bordi. Fanlarning dastlabki tasnifi eramizdan oldingi 384–322 yillarda Aristotel tomonidan yaratilgan bo’lib, unda mantiq, fizika, biologiya, falsafa, etika, sotsiologiya, siyosat, tarix, poeziya kabi fanlar o’rin olgan edi. Undan keyingi davrlarda fanlar differentsiyatsi kuchayib, uning tasnifi yana ham mukammallahdi, bir qancha fan majmualari shakllandi. Akademik B. M. Kedrov tasnifiga ko’ra, fanlar falsafa fanlari, matematika fanlari, tibbiy va texnik fanlar, hamda ijtimoiy fanlar majmuasiga ajratildi<sup>1</sup>. Mazkur fanlar tasnifida aholini o’rganish asosan ijtimoiy fanlar majmuasidan

<sup>1</sup> Анохин А.А., Житин Д.В., География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013 – 307 с.

<sup>2</sup> Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С., Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафакур, 2011. – 159 б

o'rın olgan.

Aholi geografiyasi ijtimoiy fanlar majmuasiga kiruvchi iqtisodiy geografiya bag'rida shakllandi. XVIII asrgacha geograflar aholini o'lakashunoslik doirasida o'rgangandilar. Keyinchalik aholi geografiyasi tadqiqotlari takomillashib, rivojlanib borgach u (sotsial) ijtimoiy geografiya predmetiga aylandi.

Aholi geografiyasining alohida fan sifatida shakllanishi XIX asr oxirlaridan boshlandi. Ushbu davrda geografiya tarkibidan «Antropogeografiya» maktabi ajrahb chiqdi. Uning asoschisi nemis geografi F.Ratsel edi. U o'zining «Antropogeografiya» asarida antropogeograflarning asosiy vazifasi «shaxs va xalqning ruhi hamda jismiga tabiat ta'sirini o'rganishdir» deb belgilaydi. Ular nafaqat insoniyat, hatto davlatlarni rivojlanishi ham tabiyat qonunlari asosida sodir bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradilar.

Aholi geografiyasini shakllanishida frantsuz geografi Vidal de la Blash tomonidan yaratilgan «inson geografiyasi» maktabi ham ahamiyatidir. Mazkur maktab vakillari antropogeograflardan farqli o'laroq aholi va tabiyatning o'zaro munosabatlarini, hodisalarini o'rganishda tabuy omillar bilan bir qatorda iqtisodiy, tarixiy va psixologik omillarni ham o'rganish lozimhgini ta'kidlaydilar. Ana shu maktab asosida aholi geografiyasining shaharlar geografiyasi, qishloqlar geografiyasi, migratsiya geografiyasi kabi tarmoqlari shakllandi.

Aholi geografiyasi bugungi kunda o'z o'rganish predmetiga, vazifalariga ega alohida fan sifatida rivojlandi. Qator rivojlangan davlatlar oly o'quv yilrlarida aholi geografiyasi turli yo'naliishlarda (demografiyaning geografik aspekti, shaharlar geografiyasi, migratsiya geografiyasi, aholi geografiyasi matematik modellar va h.k.) o'qitiladi<sup>3</sup>.

Jahon geograflari, aholishunos mutaxassislari tomonidan ilmiy asarlar, darshk va o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Anglo-amerika mutaxassislari D. Forrester rahbarugida «Geografiya gorodov», «Dinamika razvitiya goroda», B. Dj. Garker, D. Xarved, S. Gamilton, P. Xaggetva boshqalar «Model v geografu», frantsuz geograflari tomonidan «Ocherki po geografu gorodov» shularjumlasidandir.

Aholini o'rganish uchun rus olirlari tomonidan ham XIX asrning oxirgi choragi va XX asr boshlarida aholi geografiyasiga oid qator tadqiqotlar o'tkazilgan. 1883 – 1885 yillarda P. P. Semenov-Tyan-shanskiy rahbarligida besh tomlik «Geograficheskoe-statisticheskij slovar» chop etilgan bo'lib, unda Rossiyada o'sha paytda mavjud bo'lган barcha shaharlar va qishloq maskanlari ta'riflangan. XIX asrning oxirgi choragida L. I. Mechnikov tomonidan yozilgan «Sivilizasiya i velikie istoricheskie reki (1889 g.)» kitobi ham aholi geografiyasi bo'yicha bajarilgan ahamiyatli ishlardan hisoblandi. Unda muallif jamiyat rivojlanishini va madaniyatni taqsimlanishida suv yo'llarining muhim o'rinni tiltishini ifodalaydi. Kitobda insoniyat jamiyatini shakllanishida Nil, Tigr, Yefrat, Xind va Ganga, Xilanxe va Yansze daryolari tabiatning kompleks ta'sirining tahlil etgani.

Aholi manzilgohlari, shaharlarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab asarlar rus geograflari tomonidan ham yaratilgan. Ammo, aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyadan mustaqil fan sifatida ajralib chiqishi 1940 yillarga to'g'ri keladi. Bunda R. M. Kabo va N. N. Baranskylarning xizmatini alohida ko'rsatish joizdir.

Aholi geografiyasi rivojlanishing dastlabki yillarda shahar va shahar aholi manzilgohlariiga e'tibor kuchaytirildi. O. A. Konstantinov, V. V. Pokishevskiy, Yil. G. Saushkin, keyinroq V. G. Davidovich va boshqalar shaharlarni o'rganishga muhim hissa qo'shganlar. Har tomonlama qishloq aholisi joylashishiga ta'rifi N.I.Lyalikov tomonidan 40-yillar oxirida birinchi marta berildi. Keyinchalik, bu yo'naliishga S.A.Kovalev o'zining juda katta mehnatlari bilan kirib keldi. Uning qishloq aholi marizilgohlarini tipologiyalashtirish, qishloq aholisi joylashuvida o'ziga xos metodikalari, qishloq aholi manzilgohlari tizimidagi qator yo'naliishlari shular jumlasidandir.

Aholi migrasiyasini o'rganish V.V.Pokshishievskiy tomonidan boshlangan bo'lib, hozirgacha aholi geografiyasida muhim bir yo'naliish, bo'lim sifatida alohida mavqeini egallab kelmoqda. V. V. Pokshishievskiy aholi geografiyasi faruning o'rganish predmetini qoliydagicha shaklda talqin etadi: «Aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning muhim bir tarmog'i bo'lib, aholi va aholi manzilgohlari joylashishi hamda tarkibini o'rganadi». Umuman olganda bugungi kunda aholi geografiyasi faiuning o'rganish predmeti aholi va aholi manzilgohlari joylanishi, tarkibi va dinamik o'zgarishlarining makon

<sup>3</sup> Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С., Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув кўлланма. – Т.: Тафакур, 2011. – 159 б

va zamondagi hududiy xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Bundan kelib chiqqan holda aholi geografiyasi ikkita asosiy bir-biri bilan chambarchas bog'liq yo'nalishlarga ajraladi:

1. aholini tadqiq etish;

2. aholi manzilgohlari, uning turi va tizimlarini tadqiq etish (shahar, qishloq). Har ikkalasida ham aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning tarkibiy qismi sifatida tadqiqot olib boradi.

Ma'lumki, iqtisodiy geografiyaning asosiy vazifasi ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy joylanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganishdir. Aholi esa har qanday jamiyatning asosiy ishlab cbiqaruvchi kuchidir.

Taraqqiyot jarayonida aholining shaxsiy iste'moli bilan birga aholining o'zi ham takror barpo etiladi, ya'ni kishilar avlodlari tarbiyalanadi, voyaga yetkaziladi. Shuning uchun ham aholini geografik jihatdan o'rganayotganda uchta narsaga e'tibor berilishi lozim:

1. Aholi moddiy boylik ishlab chiqaruvchi kuch, barcha moddiy ne'matlarning yaratuvchisi;

2. Aholi ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulot istemolchisi;

3. Aholi butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonimng asosiy qismi bo'lib, o'zi ham takror barpo bo'lishi zarur.

Har qanday iqtisodiy geografik muammolarni hal qilishda aholiga xos bo'lgan ushbu xususiyatlarni o'rganish zarur. Iqtisodiy geografiyaning bir tarmog'i Xisoblangan aholi geografiyasi umng boshqa sanoat geografiyasi, transport geografiyasi, qishloq xo'jaligi geografiyasi tarmoqlari orasida alohida o'rinn egallaydi. Qolaversa, iqtisodiy geografiya o'z ichiga aholi geografiyasini kiritar ekan endi u xo'jalik geografiyasidan «jamiat geografiyasiga» yoki «sotsial-iqtisodiy geografiyaga» aylandi. Aholi geografiyasining muhim tushunchalaridan biri bu aholining hududiy tarkibi va aholining funktsionai guruhlarga bo'linishdir. Aholi hammamizga ma'lum bo'lgan qliyidagi uchta funktsional guruhga ajratiladi:

1. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida ishlovchilar (sanoat, qishloq xo'jaligi, transportda).

2. Xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar (savdo, maorif, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalik, shahar transporti va hokazo).

3. Ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmaydiganlar (bolalar, liy bekalari, qariyalarva h.k.)

Bulardan tashqari aholining migrantsiyasi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha qonuniyatlar ham bor. Yuqorida keltirilgan aholi geografiyasining tadqiqot yo'nalishlari aholi geografiyasi predmetini aniq shakllantirishga asos bo'ldi. Aholi geografiyasining predmeti qator geograf olimlar tomonidan belgilangan. S. A. Kovalev, N. Kovalskayalar aholi geografiyasi – aholining tarkibi, dinamikasi va joylashuvidagi regional tafovutlami vujudga keltirgan omillarni, aholi va aholi manzilgohlarning hududiy tizimlarini hamda ularning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Shuningdek, aholi geografiyasi aholining dunyo bo'y lab va uning alohida mintaqalari, ayrim davlatlari hamda rayonlar bo'yicha almashuvim ham o'rganadi, deb qaraydilar.

Hozirgi davrga kelib qator geograflar aholi geografiya iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning shoxchasi, tarmog'i deb hisoblamoqdalar. Uning predmeti qilib aholi tarkibi va takror barpo bo'lishidagi geografik farqlar, aholimng hududiy tarqaliSM va joylashuvi, aholi madaniyati turli tizimdagi geografik farqlar, mehnat resurslarim hududiy guruhlari va ulardan foydalanishdag'i geografik farqlar; aholi maskanlari va ularning hududiy tizimi2 kabilar ko'rsatilgan. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda aholi, aholi manzilgohlari, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, sotsial blok tarkibiga kiritilgan holda iqtisodiy blok elementlari bilan birgalikda umumiyy tizimni tashkil etadi. Demak, aholi geografiyashu ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning muhim bir tarmog'i sifatida qarash o'rinnlidir. Har qanday hududiy-ijtimoiy-iqtisodiy tizimda aholi muhim rol o'ynaydi. Sababi biron bir hududdagi ishlab chiqarish insonsiz rivojlanmaydi yoki yaratilgan mahsulot uning iste'molisiz o'z yakunini topmaydi.

O'zbekiston hududida ham aholi va aholi manzilgohlari haqida ma'lumotlar qadimiy qo'lyozma manbalarda mavjuddir.

Aholi geografiyasining yo'nalishiga oid tadqiqotlar O'zbekistonda XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab takomillashib bordi. N.Ginzburg, C.Kovalev, O. Ota-Mirzaev, A. Soliev, X. Salimov, A. A. Qayumov, Z.Rayiljonov, LSafarov, S.Zokirov, M.Nazarov kabi olimlar olib borgan tadqiqotlar shular jumlasidandir. Qayd etilgan tadqiqotlarda respublikada shaharlar geografiyasi va shakllanishi omillari, urbanizatsiya jarayoni, qishloqjoylarda aholi manzilgohlarni shakllanish

xususiyatlari, joylashuvi, mehnat resurslari geografiyasi bilan bog'liq muammolar o'rganilgan<sup>4</sup>.

Aholi geografiyasining muhim predmeti bo'lgan aholining takror baipo bo'lishi, uning DEMOGRAFIYA ornillari va hududiy jihatlarini o'rganish, aholi migratsiyasi bo'yicha R.A.Ubaydullaeva, M.Qoraxonov, LMullajonov, M.R.Bo'rieva, L.P.Maksakova, R.B.Murtazina, Z.Tojieva va boshqa aholishunos olirnlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy izlanishlar natijalari ham qimmatlidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda aholi geografiyasi tadqiqot yo'naliishlari bo'yicha tumanlar, viloyatlar doirasida mukammal tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy o'quv yilrlarida geografiya va boshqa aholishunoslik fanlari tizimiga kiruvchi yo'naliishlarda mutaxassislar tayyorlashda aholi geografiyasi va demografiya bo'limlariga oid kurslar o'tkazilmoqda.

O'zbekistonda ham DEMOGRAFIYA tadqiqotlar rivojlanishi o'z tarixiga egadir. Respublikada fan, madaniyat va davlatchilik rivojlanishi juda qadimiylar tarixga ega. Yuqorida DEMOGRAFIYA bilimlar toplash, asosan davlatchilik bilan bog'liq ekanligi haqida fikr yilritildi. Demak, O'zbekistonda ham, demografik bilimlar juda qadimdan mavjud bo'lgan. Bular haqida qadimiylar qo'lyozmalar, arxeologik yodgorliklar, qator ilmiy manbalar guvohlik beradi. Lekin o'lkada maqsadli DEMOGRAFIYA tadqiqotla o'tkazish asosan 1960 yillardan boshlandi. Ana shu davrdan to hozirgi kunga qadar respublikada juda katta ahamiyatga ega bo'lgan demografik tadqiqotlar olib borilgan hamda shu sohada yirik mutaxassislar tayyorlangan. Demografiya sohasida erishilgan yiltilqlar ustoz olim M.Q.Qoraxonov nomi bilan bog'liqidir. Olim nafaqat O'zbekistonda, balki Markazaiy Osiyoda yirik DEMOGRAFIYA tadqiqotlar olib bordi. Ushbu hududning XIX asr ikkinclu yarmidan boshlab, DEMOGRAFIYA tarixini tikladi. Aholi o'sishi, tug'ilishi, o'lim, nikoh va ajralish kabi DEMOGRAFIYA jarayonlar xususiyatlarni o'rgandi. Ular bilan bog'liq omillar, muammolarini aniqlab berdi. O'rta Osiyo tarkibiga kiriuvchi respublikalarda aholi o'sishi bashoratini yaratishga rahbarlik qildi. Qoraxonov O'lkamiz aholisining miqdoriy rivojlanishi bilan bir qatorda uning sifatiy rivojlanishi sohasida ham yirik tadqiqot ishlarini olib bordi. Ustoz rahbarligida O'zbekistonda aholi ma'lumotlilik bosqichlari bo'yicha bashorat ham ishlab chiqilgan. Olimning olib borgan tadqiqotlari asosida monografiya, risolalar va 200 dan ortiq ilmiy maqolalari chop etilgan. Ustoz o'z ilmiy faoliyatini 1960 yillardan boshlab, hayotining oxirgi damlarigacha O'zbekiston Milliy Universitetining geografiya fakultetida olib bordi. Dastlab respublikada demografiyani o'rganuvchi ilmiy guruh tilzdi. 1972 yilda ana shu guruh O'rta Osiyo respublikalari DEMOGRAFIYA holati va muammolarini o'rganuvchi yirik «Ahollishunoslik ilmiy-tadqiqot laboratoriysi» ga aylandi. Ushbu laboratoriyyada O'rta Osiyo Demografiyasini o'rganishga doir chuqur, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borildi. Shu bilan birga, M.Q.Qoraxonov rahnamalogida aholi muammolarini o'rganuvchi yirik ilmiy maktab yaratildi. Ustoz maktabida shakllangan mutaxassislar bugungi kunda uning ishini davom ettirib, jamiyat taraqqiyaga molik tadqiqotlar olib bormoqdalar.

O'lkamiz DEMOGRAFIYA tarixini va aholi muammolarini o'rganishda RLMullajonov, R.A.Ubaydullaeva, EAAhmedov, O.B.Ota-Mirzaev, L.P.Maksakova, A.S.SoUev, N.S.Aliqoriev, X.Salimov, M.R.Bo'rieva, A.A.Qayumov, O.E.Ergashev, LSafarov, O.Saydaxmedov, RB.Murtazina, Z.X.Rayiljonov, RJ.Ortiqboev, Z.Tojieva kabi olimlar olib borgan tadqiqotlar ham ustoz Murtazo Qoraxonovich Qoraxonov boshlagan ilmiy izlanishlarni davomi sifatida O'zbekistonda olib borilgan DEMOGRAFIYA tadqiqotlar tarixida alohida ahamiyatlidir<sup>5</sup>.

**Uning fanlar tizimidagi o'rni, boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalari.** Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sayyoramiz aholisi milodning boshlarida 252 million kishini tashkil etgan, xolos. 1000 yilda dunyo aholisining soni 305 millionga, 1500 yilda – 440 millionga yetgan. XIX asrning oxirlarida aholi soni 1 milliarddan oshib ketdi. Keyingi bir asr davomida, ya'ni XX asr va XXI asrning boshlarida dunyo aholisi juda tez sur'at bilan ko'payib bordi. 1900–1950 yillarda kurrai zamin aholisi har yil o'rtacha 0,90 foizdan ko'paygan bo'lsa, 1950–2000 yillarda bu ko'rsatkich 1,75 foizni tashkil etdi. Hozirgi davrda (2011 y.) dunyo aholisi 7,0 milliardni tashkil etmoqda. Aholi soni dinamikasidagi bunday o'zgarish qator iqtisodiy, ijtimoiy va DEMOGRAFIYA omillar bilan bog'liq albatta. Ulardan asosiyлari aholi turmush tarzidagi, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ijobiy o'zgarishlar, o'lim hollarining

<sup>4</sup> Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С., Ахоли географияси ва демография асослари. Ўқув кўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б

<sup>5</sup> Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С., Ахоли географияси ва демография асослари. Ўқув кўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б

kamayishi va aholi o'rtacha umr ko'rish muddatining oshib borishidir.

Qayd etilganidek, dunyoni alohida hududlarida aholining ko'payib borishi va uning omillari, muammolari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning yechimi ko'pchilik aholishunos olimlar e'tiborini tortdi. Aholining sotsial-iqtisodiy va DEMOGRAFIYA muammolari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borildi. Natijada aholi muammolari bilan shug'ullanuvchi fanlar tez sur'atda ko'paydi. Ularga falsafa, tarix, sotsiologiya, huquqshunoslik, psixologiya, etnografiya, tibbiyat, biologiya, demografiya, ekologiya, iqtisodiy geografiya va aholi geografiyasini kabi fanlar kiradi. Mazkur fanlar tadqiqotlari natijalari asosida aholi haqidagi bilimlar tizimi shakllanadi. Darhaqiqat, aholi qator fanlarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Sababi, aholi – bu hayotning ishlab chiqarish va takror barpo bo'lish jarayonlarida, tabuy tarixiy ravishda shakllanuvchi va uzlusiz yangilanib turuvchi insonlar birligi, kishilik jamiyatining moddiy asosidir.

Jamiyat taraqqiyotirring har bir bosqichida aholi insonlarning alohida tarixiy birligi sifatida namoyonbo'ladi (qadimgi dunyo aholisi, quzdorlik, feudalizm tuzum aholisi va h.k.). Bu hol aholining ijtimoiy jihatlarini yaqqol ifodalaydi.


Aholining yana bir umumiy jihat makon bilan tavsiflanadi. Insonlar o'z hayotlarida ma'lum bir hududiy, ijtimoiy birlik bilan bog'langandir. Masalan, hududiy birligi – materiklarning aholisi (Shimoliy Amerika aholisi, Osiyo aholisi, Yevropa aholisi va h.k.), davlatlar aholisi (AQSh aholisi, Rossiya aholisi, O'zbekiston aholisi va h.k.) da ifodalanadi. Ma'lum bir davlat aholisini o'rganganda esa, hududiy birlik yana ham mukammallahadi. Masalan, O'zbekiston aholisi uning viloyatlari va tumanlari aholisi, shahar va qishloq aholisi birligida ifodalanadi.

Aholining ijtimoiy birligi esa, ijtimoiy guruhlarda (qabila–urug', etnik, diniy, siyosiy va h.k.) o'z aksini topadi. Shuningdek, ijtimoiy birlik haqida so'z borganda, tarixiy davrlar – vaqt birligi ham muhimdir. Masalan, IX–X asrlarda Amir Temur davri aholisi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi aholisi va h.k. Demak ijtimoiy – vaqt va makon hududiy tadqiqotlarda aholini har qanday vaqt va hudud bo'yicha ajratish imkonini beradi.

Ma'lumki, aholi geografiyasining asosiy ob'ekti – aholi va aholi manzilgohlari, ya'ni maskanlaridir. Ana shu nuqtai nazardan aholi geografiyasini aholishunoslik fanlari tizimida o'z o'rniga egadir.

Aholini o'rganishda tadqiqot ob'ekti aholi bo'lgan barcha fanlar o'zaro bog'liq holda bir-birining tadqiqot natijalariga asoslanib faoliyat ko'rsatadilar. Faqat geograf yoki demograf, iqtisodchi yoki sotsiolog «Nima uchun sayyoramizda yoki uning alohida hududlarida aholi ko'payib yoki kamayib bormoqda?», «Kelajakda Yer yuzida aholi ko'payishi jarayonida qanday o'zgarishlar kutilmoqda?», «Aholining qishloqdan shaharga bo'lgan migrantsion oqimini qanday izohlash mumkin?» degan savollarga o'zi javob bera oladimi? Agar u o'z ilmiy yondashuv natijalari asosida javob bersa ham, javob bir yoqlama bo'lib qoladi. Bunday muammolarni mukammal hal etishda aholishunoslik fanlari tizimiga kiruvchi barcha fanlar tadqiqotlari naftjalari va ular asosida shakllangan aholishunoslik bilimlar tizimi zarurdir. Mazkur tizimni qliyidagi sxema ko'rinishida ifodalash mumkin.

## Aholishimoslik haqida ilmiy bilimlar tizimi



### 1-chizma. Aholishimoslik haqida ilmiy bilimlar tizimi<sup>6</sup>

Keltirilgan chizmada aholi geografiyasi bevosita aholining umumiy nazariyasi, demografiya va u orqali barcha demografiyaga tutash fanlar bilan aloqadorligini kuzatish mumkin. Ma'lum bir hudud yoki davlat aholisi soni, tarkibi va takror barpo bo'lismeni, aholi maskanlarining (shahar va qishloqlar) shakllanishining hududiy xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganar ekan, aholi geografiyasi aholishunoslik bilimlari tizimidagi barcha fanlar tadqiqot natijalaridan foydalanadi. O'z navbatida tizimdagi qayd etilgan fanlar aholi geografiyasi tadqiqot natijalariga ham asoslanadi.

Aholi geografiyasi aholi soni dinamikasi, tarkibi (DEMOGRAFIYA, sotsial, etnik va diniy), takror barpo bo'lishi jarayonlarini o'rganganda aholishunoslik fanlari tizimida namoyon bo'ladi. Qayd etilgan jarayonlarga geografik omillar ta'sirini – hududiy jihatlarini tadqiq etganda, aholi maskanlari – shaharlar va qishloqlar shakllanishi va rivojlanishi qominiyatlarini o'rganganda geografik fanlar tizimida ko'proq namoyon bo'ladi. Aholi geografiyasi hududlar aholisining joylashuvi, aholi maskanlarining shakllanish xususiyatlarini o'rganar ekan tabuy va iqtisodiy geografiya tadqiqotlaridan foydalanadi.

**Demografiya va etnografiya** – aholi geografiyasi bilan chambarchas va har tomonlama bog'liq bo'lgan fanlar hfeoblanadi. Chunki bu fanlar ham bevosita aholi geografiyasi singari aholini o'rganadi. Lekin bular aholini har qaysisi o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tadqiq etadilar. Masalan, demografiya aholi soni, takror barpo bo'lish qonuniyatlarini va omillarini o'rgansa, etnografiya – xalqkming turmushi va madaniyati, vujudga kelishi va madaniy tarixiy aloqalarini o'rganadi. Shunday qilib, aholi geografiyasi va demografiya hamkorlikda hal etishi mumkun bo'lgan muammolarni birgalikda o'rganadi. Xalqlarning tarqalisluni esa etnogeogcifiya o'rganadi. Aholi geografiyasini demografiya bilan aloqasi alohida ahamiyat kasb etadi. Xildudlar aholisini o'rganishda aholi geografiyasi DEMOGRAFIYA jarayonlarga murojaat etadi. Bunday tadqiqotlar geoDEMOGRAFIYA tadqiqotlar deb ataladi<sup>7</sup>.

**Antropologiya** (grek tilidan–antropos –“inson”) inson organizmining evolyiltsiyasi va undagi jismoniy o'zgarishlanung kelib chiqish qonuniyatlarini, shuningdek irqlarning vujudga kelishi va geografik tarqalishini o'rganib, u aholi geografiyasi bilan birgalikda aholi mehnat faoliyati, turmush

<sup>6</sup> Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С., Ахоли географияси ва демография асослари. Ўқув кўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б

<sup>7</sup> Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С., Ахоли географияси ва демография асослари. Ўқув кўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б

sharoiti va madaniyati hududiy xususiyatlarni o'rganadi.

Aholi geografiyasi mehnat resurslari, ularning joylashish xususiyatlarini o'rganishda esa iqtisod fani bilan bog'lanadi.

Aholi zichligining oshib borishi, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining kengayishi topografiya fanlari bilan aloqada bo'lishini talab etadi. Ayniqsa, aholi manzilgohlarini rekonstruksiyalash, qurilish masalalarida, rayon planirovkasi, shaharsozlik ishlarida topografiya fanining ahamiyati beqiyosdir. Chunki, turli ob'ektlar, relief ko'rinishlari maxsus belgilar va gorizontlar yordamida topografik xaritaga tushiriladi. Har bir geografik hududdagi predmetlar topografik xaritalarda aniq ko'rsatib berilgan va bu xaritalardan yuqorida aytilgandek xalq xo'jaligining turli sohalarida foydalaniladi.

Aholi va aholi manzilgohlari joylanishi hamda rivojlanishida topografiya fanining roli davr o'tgan sari oshib boradi.

**Iqlimshunoslik** fani bilan aholi geografiyasining aloqasi to'g'ridan to'g'ri emas balki, bilvosita desak xato bo'lmaydi. Masalan, aholi geografiyasi fani tibbiyat geografiyasi bilan bevosita aloqada bo'ladi. Sababi tibbiyat geografiyasi iqlimshunoslik bilan hamkorlikda rivojlanadi. Chunonchi, insonga tabiat, iqlimning ta'siri bu fan ob'ekti uchun o'ta muhim. Qolaversa, aholi geografiyasida tabuy geografiyaning o'rni alohida hisoblanadi. Iqlimshunoslik fani tabuy geografiya bilan birligida aholi rivojlanishi va joylashishi muammolarini o'rganishda iqlimi omillar: shamol yo'nalishi, havo harorati, qoliyosh radiatsiyasi va hokazolarni hisobga oladi.

**Gerontologiya** – tirik organizmlar, jumladan odamning qarish jarayonini o'rganadigan fan bo'lib, DEMOGRAFIYA tadqiqotlar orqali aholi geografiyasiga bog'lanadi.

Ma'lumki aholi soni, zichligi, shaharlar kontsentrasiyatsining oshib borisbi, tog'-kon sanoati, suv transporti kabi tarmoqlarning rivojlanish jarayonlari atrof-muhitga ta'sir etib, ekologik muvozanatni buzilishiga va bir qator ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur muammolarni hududiy jihatlarini ilmiy tadqiq etishda aholi geografiyasi – ekologiya fani natijalariga murojaat etadi.

Aholi maskanlari shalchuanishini muntazam kuzatib borish, tahlil etish juda murakkab jarayon. Lekin tadqiqot natijalari o'rganilayotgan hududdagi aholi maskanlari turlarini (tipologiya), ularning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashda juda zarurdir. Aholi geografiyasida aholi maskanlari majmuasi mazkur hududning o'zaro mustahkam bog'liqlikda shakllangan maskanlar tizimi sifatida tadqiq etiladi. Bunday tizimning yaqqol ko'rinishiga shaharlar aglomerasiyasi misol bo'la oladi. Aholi geografiyasi tadqiqotlarida aholi maskanlarining shakh, faohiyati va tizimi o'zaro bog'liq holda tahlil etiladi. Aholi joylashuvni esa ma'lum bir hudud uchun umumiyl, hamda alohida uning shahar va qishloq hududlari uchun o'rganiladi. Bunday tadqiqotlar ilmiy manbalarda «geourbanistika» va «georurahstika» deb nomlanadi.

Aholi geografiyasi tadqiqotlarida uning kartografiya bilan aloqasi alobida o'rinni tiltadi. Kartografiya fani doirasida aholishunoslik masaMarini tadqiq etish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanisrmning uzoq muddath rejalarini tuzishda, hozirgi mavjud voqe'likni ifodaluvchi DEMOGRAFIYA jarayonlarni tasvirh, xilma-xil ko'rinishda hududiy rivojlanishini ko'rsatib berishda ahamiyati yuqoridir. Qolaversa, kartografiya fani usullarini qo'llash aholi geografiyasi fanining mazmun-momyatini yanada boyitadi. DEMOGRAFIYA jarayonlar rivoji turli mamlakat va rayonlarda bir-biridan keskin farq qiladi. Chunonchi, aholining tarqalishi va uning natijasi bo'lmissiz aholi manzilgohlari joylashishi ham bir tekisda emas. Bunday geoDEMOGRAFIYA o'ziga xosliklarni hududiy baholashda kartografiyaning ro'u juda yuqoridir. Kartografiya aholi rivojknishi va tarkibi, joylanishidagi farqlarni hududiy nuqtai-nazardan yaqqol, ko'rinarh tarzda ifodalab beradi. Ayniqsa, kartografik usul aholini bir vaqtida ham hududiy ham davriy jihatdan tadqiq qihshga imkon beradi. Oqibatda, turli hududiy tashkil usullaridan foydalanish orqali, u yoki bu rayon, mintaqasi rivojlanish xususiyatlarini geografik taqqoslash uchun sharoit yaratiladi.

Aholi to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar mavzuh kartalar orqali beriladi. Aholi joylanishi, mehnat resurslari va ularning boshqa makon bo'yicha tavsifi mavzuh kartalarda tavsirlanishi orqali xalq xo'jaligining kelajak va joriy rejalarini ishlab cbiqish hamda qayta ishlashda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda DEMOGRAFIYA tadqiqotlarda kartografik usuldan foydalanish natijasida umum ilmiy, mayda masshtabli kartalar tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa DEMOGRAFIYA kartalar yaratish usullarini tobora takonullashtirish zarurligidan dalolat beradi.

Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishda, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini, shart-sharoitini yaratishda, davlat xo'jalik tashkilotlari rejalarini tuzishda aholini hududiy o'rganish, ya'ni aholi geografiyasini o'rganish zarurligini ko'rsatib berdi. Shuningdek, xo'jalikni kelajakdagi rejalarini ilmiy asosda tuzishda tabiat, ishlab chiqarish kuchlari hududiy xususiyatlari, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar talab etiladi. Bunday ma'lumotlar majmuali kartalar va mavzuli kartalarda aniq ifodalanadi.

Aholi kartalarida o'rganilayotgan muhim masalalardan biri, aholi zichligi va joylanishidir. Agarda, ilgarilar aholining joylanishi kartada faqat ma'lum bir vaqt holatini ifodalagan bo'lsa, endilikda esa aholi joylanishi va zichhgini davriy o'zgarishini makonda ko'rsatib bermoqda.

Aholi mavzuli kartalari ichida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, aholi va mehnat resurslari to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni mujassamlashtirgan, asosiy DEMOGRAFIYA xususiyatlarni, aholi harakati va tarkibini qamrab olgan ba'zi, atlaslarni keltirib o'tish o'rinni.

Aholi geografiyasida hududning o'zlashtirganlik darajasi aholi zichligj kartasidan foydalanish orqali o'rganiladi. Bunda kartogramma usulidan foydalanish orqali o'rtacha zichlik ko'rsatkichni har bir hududda yaqqol ko'rsatib beriladi. Aholi tarqalishini zichlik ko'rsatkichini kartada tasvirlash hamma aholi qatlami uchun qilinadi. Bunda qishloq-shahar aholi manzilgohlari alohida ajratib beriladi.

Aholi geografiyasi fani yuzasidan qilinayotgan karta turlarini aholishunoslik fanlari tizimi belgilaydi. Aholi geografiyasi tuzilishidan kelib chiqib, aholi kartasi bir bo'lim bo'lsa, DEMOGRAFIYA xususiyatlari, soilial-iqtisodiy kartalar (oila, bandlik) va etnografik xususiyatlari alohida-alohida bo'Umlari tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan yuqorida aholi joylanishi kartasi birinchilaridan bo'lib tahlil etildi.

Aholi soni va tarkibi, aholi manzilgohlarning iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishida roli kattaligi bois, ular kartografiyada eng muhim ko'rsatkichlar bo'lib xizmat qiladi. Chunonchi, aholi manzilgohlari funksiyasi aholining xalq xo'jaligi tarmoqlarida bandligi bilan belgilanadi va kartada o'z aksini topadi.

Aholi geografiyasining muhim o'rganish predmetlaridan yana biri aholining yosh-jinsiy va oilaviy tarkibidir. Ma'lumki, aholining yosh tarkibi aholi takror barpo bo'lish xususiyatlari bog'liqidir. Aholining takror barpo bo'lishi esa tug'ilish, o'lim, nikoh, ajrim kabi DEMOGRAFIYA jarayonlar asosida sodir bo'ladi. Shuningdek, aholining oilaviy tarkibi ham oilaning jamiyatda tutgan o'rni, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, DEMOGRAFIYA rivojlanish xususiyatlariga, urf-odat va qadriyatlarga bog'liqidir. Aholi geografiyasi hududning DEMOGRAFIYA va oilaviy tarkibini aholi takror barpo bo'lishi va migratsiyasiga bo'lgan talab va ehtiyojlarni o'rganishda falsafa, psixologiya, etnodemografiya, mehnat va oilaviy huquq, demografiya, sotsiologiya kabi fanlar bilan uzviy aloqada bo'ladi.

Aholi geografiyasining muhim tarmoqlaridan biri aholi salomatligi va tibbiyot geografiyasidir. Mazkur tarmoq tadqiqotlarida aholi geografiyasi, ekologiya, sotsial gigiena, sotsial psixologiya fanlari tadqiqotlariga murojaat etadi<sup>8</sup>.

Ma'lum, davlat, shahar va qishloq hududlari, aholisi, aholi maskanlarining o'z shakllanishi xususiyatlari va tarixi bordir. Bu borada aholi geografiyasi tarix fani tadqiqotlaridan foydalanadi.

Aholi geografiyasi o'z tadqiqot ob'ekti va predmetlari doirasida ish olib borar ekan, asosan statistik ma'lumotlar, sotsiologik-DEMOGRAFIYA tadqiqot natijalari DEMOGRAFIYA kooeffitsientlar va ilmiy manbalarga asoslanadi. Bu borada statistika va matematika fanlari bilimlariga tayanadi.

**Fanning obyekti, predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari.** Aholi deganda ma'lum hududda yashovchi kishflar guruhi tushuniladi. Mazkur guruhlar zaminida jamiyat shakllanadi. Yer kurrasada insoniyat paydo bo'lganidan to hozirga qadar bir qancha davrlar o'tdi. Ana shu davrlarda inson, jamiyat o'z mavjudligini saqlash va rivojlanish uchun muntazam harakat qilib keldi. Ushbu jarayonda aholi tabuy resurslardan foydalanib, moddiy ehtiyoji uchun zarur vositalarni yaratdi, xo'jalik tizimini barpo etdi, rivojlantirdi. Ana shunga monand yer kurrasida aholi va aholi maskanlarining soni ham ko'payib bordi. Demak jamiyatni rivojlanishida uch asosiy omil – aholi, tabuy resurslar va xo'jalik rivojlanishining o'zaro bog'liqligi va undagi hududiy munosabatlar geografiya faruning asosiy ob'ekti

<sup>8</sup> <http://www.geografiya.uz>

hisoblanadi. Geografiya fani esa o'z navbatida o'rganish predmeti, maqsadi va mohiyatiga qarab bir nechta qismlarga bo'linadi. Ularga shartli ravishda **tabuy** (tabuy geografiya, umumiy yer bilimi, landshaftshunoslik, paleogeografiya, geomorfologiya, iqlimshunoslik, gidrologiya, biogeografiya, tuproqshunoslik), **sotsial** (umumiy sotsial-iqtisodiy geografiya, aholi va mehnat resurslari geografiyasi, siyosiy geografiya, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, xizmat ko'rsatish, madaniyat va boshqalar geografiyasi), **tabuy-sotsial** (ijtimoiy ekologiya, geoekologiya, tarixiy, tibbiy, rekreatsion geografiya, okeanlar geografiyasi, resursshunoslik va tabiatdan foydalanish) va **geografiyaga bilvosita dahldor fanlar** (kartografiya, geografiya tarixi, toponimika, metageografiya)<sup>1</sup> qismlarini kiritish mumkin.

Aholi geografiyasi geografiya fanlari tasnididagi sotsial qismiga kiruvchi o'z ob'ekti va predmetiga ega bo'lган alohida fandir. Aholi geografiyasining o'rganish ob'ekti aholi va aholi soni, dinamikasi, tarkibi va takror barpo bo'lshidagi geografik farqlar; aholining hududiy taqsimlanishi va joylashuvi; madaniyati, turmush tarzidagi hududiy jihatlari; aholi migratsiyasining tarkibi va yo'naliishlari; mehnat resurslari va ulardan foydalanishning geografik farqlari; aholi manzilgohlari va ularning hududiy tizimini o'rganish tashkil etadi. Demak aholi geografiyasi tadqiqotlari uning o'rganish ob'ektiga monand, ikki qismga bo'linadi. Ularning birinchisi dunyo va uning kontinentlari, davlatlar va ularning ma'muriy-hududiy birliklari bo'yicha aholini o'rganish; ikkinchisi esa aholi manzilgohlari va ularning joylashuvi tizimining hududiy farqlarini tahlil etish. Aholi geografiyasi aholi va aholi manzilgohlarni o'rganar ekan qliyidagi yo'naliishlar asosida tadqiqotlar olib boradi:

1. Aholi soni dinamikasi, ijtimoiy, iqtisodiy, oilaviy va hududuviy tarkibi, takror barpo bo'lshidagi farqlar va ularning sabablarini o'rganish.
2. Aholi hududiy tarkibidagi mehnat resurslari va bu resurslardan foydalanishdagi geografik farqlarni o'rganish. Aholi bu yo'naliishda ishlab chiqaruvchi kuch sifatida qaraladi va geografiyaning xo'jalik bilan va boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro aloqagasiga tayanadi.
3. Aholining hududiy taqsirnlanishi va migratsiyasini o'rganish. Aholi zichligi va undagi farqlarni tahlil qilish, migratsiyani ayniqsa, aholining qo'chib kelib joylasbishini, mamlakatlar miqyosida aholi joylanishidagi o'zgarishlar, migratsiya tufayli alohida hududlardagi aholi tarkibi va sonidagi o'zgarishlarni o'rganish shular sirasiga kiradi.
4. Aholi manzilgohlari va ularning hududiy tizimini o'rganish. Bu yo'naliish shahar va qishloq aholi manzilgohlari, ularning rivojlanish va joylanish xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Aholi manzilgohlari joylanishini geografik o'rganishda aholi geografiyasi va xo'jalik geografiyasi o'rtaсидаги aloqa juda mustahkam bo'lshi kerak.
5. Aholining madaniyati va turmush sharoitidagi geografik farqlar va bu farqlar sabablarini o'rganish. Mazkur bo'limda aholi geografiyasi birinchidan sotsiologiya va etnografiya, ikkinchidan aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasi, ayniqsa tibbiyot bilan yaqin hamkorlik qiladi. Xalqlar geografiyasi ularning madaniyati va turmush sharoitidagi milliy xususiyatlar bilan birlashtirilgan o'rorganilsa maqsadga muvofiqdir.
6. Aholi geografiyasining tarixini o'rganish. Ushbu bo'limda tarixiy geografiyaning qismi hisoblangan o'tgan tarixiy davrlarni olib o'rganadi.

Aholi geografiyasi alohida fan sifatida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lган qator vazifalarni bajaradi:

Nazariy vazifalari: aholi geografiyasining nazariy masalalarini takomillashtirib borish (aholi takror barpo bo'lshi jarayonlari va qonuniyatlarini o'rganish, tabiat bilan uzviy bog'hqagini tadqiq etish, aholi joylashuvi va jamiyat rivojlarnshining umumiy qonuniyatlarini o'rganish)

Amaliy vazifalari: dunyo va uning hududlari, chet davlatlar, mamlakatimiz aholisi soni, tarikibi, takror barpo bo'lshi, hududiy joylashuvi, migratsiyasi, shahar va qishloqlarning rivojlanish muammolari bilan mutahassislar, davlat tashkilotlari va kitobxonlami tanishtirish; aholini hisobga olish, mehnat resurslari balanslarini tuzish; aholi prognozini tuzish; migratsiya jarayonlarivi tadqiq etish, aholiga xizmat ko'rsatish, bolalar muassasalari joylashuvi va qurilishini ilmiy asosda boshqa tavsiyalar tayyorlash va h.k.

Aholi geografiyasining eng muhim vazifalaridan biri uni o'rganishda, shu sohada mutahassislar taylorlashda jahon miqyosidagi dasturlarga amal qilish, ilmiy, tarixiy, mantiqiy yondashishdir. Shuningdek, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va DEMOGRAFIYA taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan qishloq va shaharlarda xalq xo'jaligi tarmoqlarini to'g'ri, ilmiy joylashtirish; aholiga xizmat

ko'rsatishni takomillashtirish; Respublika DEMOGRAFIYA vaziyatidan kelib chiqqan holda, mehnat resurslaridan mumkin qadar to'g'ri va oqilona foydalanish; yangi avlod uchun kerakli ishlab chiqarish muassasalarini to'g'ri joylashtirish; (bunda respublikaning har bir hududi geografik va DEMOGRAFIYA xususiyatlarini nazarda tutmoq lozim) ham aholi geografiyasining muhim vazifalariga kiradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, XXI asr boshida, respublikaning mustaqil iqtisodiy taraqqiyoti davrida aholi migratsiyasida mehnat resurslari tarkibi, shakllanishi va joylashuvida, oila tarkibida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ushbu jarayonlarni ularning sabablari, muammolari, kutilayotgan oqibatlarini hududlar bo'yicha mukammal o'rganish, davriy o'tkaziladigan aholi ro'yxatlarida faol qatnashish aholi geogi^yasining ham asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Ana shulardan kelib chiqqan holda bugungi kunda aholi geografiyasini qiliyidagi aniq vazifalarni bajarishi lozim:

1. Ma'lumki, XX asrning oxirgi choragi va XXI asr boshlariga kelib yer kurrasining qator hududlarida ekologik nomiltonosiblik muammosi kuchayib bormoqda. Bu muammoning kelib chiqishi bir tomondan ilmiy–texnik rivojlanishmng avj olishi, tabuy resurslardan ayovsiz foydalanilish natijasida suv, havo va tuproq tarkibining buzilishi bo'lsa, ikkinchi tomondan 1960 – 1970 yillarda kuzatilgan «DEMOGRAFIYA inqilob» natijasida dunyo aholisi sonining keskin ko'payib borishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunga kelib ekologik nomiltonosiblik jarayoni geografiyasini kenganyib, jahondagi juda ko'p davlatlarda, shujurnadan O'zbekistonda ham aholi salomatligi, tabuy resurslardan foydalanish borasida muammolar kuchaymoqda, Ushbu muammolarni ijobjiy hal etish, respublikaning har bir viloyati, tumanlarida, ayniqsa hozirgi ekologik holat, uning kelajakda sodir bo'lishi kutilayotgan oqibatlarini o'rganish, tegishli chora–tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha mukammal ilmiy tadqiqotlar o'tkazib borishni taqozo etadi. Bunday tadqiqotlarni o'tkazish barcha aholi o'rganuvchi fanlar qatori aholi geografiyasining ham dolzarb vazifasidir.

2. Sobiq Ittifoqning parchalanishi va bozor iqtisodiyotining shakllanishi tufayli respublika iqtisodiyotida qator tuzilmaviy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu esa o'z navbatida mehnat resurslari bandligiga va tarkibiga ham ta'sir etdi. Bular aholi geografiyasini oldida mehnat resurslarining moddiy ishlab chiqarishda bandligini o'rganish bilan bir qatorda ularning aholiga xizmat ko'rsatish sohasida bandligini, shuningdek o'lkada, rekreatsiya, savdo, yarmarka, bozor, din, ma'lumotlilik, mutahassilar tayyorlash geografiyasini o'rganishdek muhim vazifalar qo'yadi.

3. Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda aholi migratsiyasi jadallahshdi. Qishloqdan shaharga tomon migratsion oqim kuchaydi. Ayniqsa mehnat yoshidagi aholi, yoshlar Rossiya, Koreya, Turkiya, AQSh, Angliya kabi davlatlarga ishlab kelish, o'qish uchun ketmoqdalar. Shuningdek aholini respublikaning shahar joylariga, asosan Toshkent shahriga kelib (savdo–sotiq, qurilish, maishiy xizmat sohalarida) ishslash holatlari keng tus olmoqda. Shunisi e'tiborliki, bugungi kunda ham tashqi, ham ichki migratsiyada ayollar ishtiropi kuchaymoqda. Yuqorida qayd etilgan jarayonlar aholi ko'chib ketgan va ko'chib kelgan hududlarda aholi va mehnat resurslari, oila–qishloq tarkibiga, aholi takror barpo bo'lish jarayonlariga, aholi punktlari shakllanishiga, transport hamda aholiga xizmat ko'rsatish, umuman moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tizimiga o'ziga hos ta'sir ko'rsatadi, muammolar tug'diradi. Aholi migratsiyasini juda kichik tuman doirasidan ilmiy, amaliy tahlil etish, o'rganish ularni omillari, muammolarini aniqlash ham aholi geografiyasining hozirgi davrdagi muhim vazifalaridandir. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarishga aholi geografiyasini iqtisodiy geografiya, tabuy geografiya, demografiya, iqtisod, etnogeografiya, tibbiyot, sotsiologiya kabi fanlar natijalaridan, usullaridan foydalanib, ular bilan uzviy bog'liq holda tadqiqot olib borishi lozim.

**Tadqiq etish metodlari.** Aholi geografiyasini o'z tadqiqotlarida tizim–tarkibiy, geografik, iqtisodiy, sotsiologik va tarkibiy yondashuvga asoslanadi, statistik, DEMOGRAFIYA, matematik, kartografik uslublardan foydalanadi.

Aholini o'rganishda tadqiqot usullarini tanlash va ulardan samarali foydalanish, ta'lim oluvchi ishining samaradorligini oshiradi. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda tadqiqot usullari dialektik usullarning tarkibiy qismi hisoblanib, ta'lim-tarbiya o'qitish jarayonlaridagi metodik usullardan birmuncha farq qiladi. Biroq, mavjud tajribalarni o'rganish va umumlashtirish, kuzatish, ekspedisiya, anketa so'rovlarini asosida suhbat, eksperiment va tajriba usullaridan geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda ham foydalaniladi. Masalan, tadqiqot qilinayotgan ob'ekt haqidagi axborot va xizmatlarni o'rganib chiqish usuliga har qanday tadqiqotda zaruriyat tug'iladi yoki eksperiment va tajriba usuli bugungi kunda iqtisodiy va geografik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Chunki, iqtisodiyotda biror yangilik yoki

modelni to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga tadbiq etish mumkin emas, ya'ni, agar u tajribada sinalmagan bo'lса, sohada shunday qaltsliklarni keltirib chiqaradiki, natijada bu qaltsliklar iqtisodiyotning biror tarmog'ini yoki butun iqtisodiyotning izdan chiqishiga olib keladi.

Shuningdek, «Aholi geografiyasi» nomli kursning ham xususiy metodologiyasi mavjud bo'lib, bu ishlab chiqarishning rivojlanishi, yuksalishida muhim vazifa bajaruvchi inson omilidan unumli foydalanishga asoslanadi. «Aholi geografiyasi » nomli kursning tadqiqot usullari quyidagilar:

- Geografik taqqoslash usuli;
- Tarixiy qiyoslash usuli;
- Iqtisodiy-matematik usul;
- Statistik va ko'p o'lchamli statistik usul;
- Qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli;
- Me'yoriy-balans hisobi usuli;
- Kartografik tadqiqot usuli;
- Sotsiologik so'rovlar o'tkazish usuli;
- Omillarni tahlil qilish usuli;
- Iqtisodiy prognoz usuli.

Tarixiy qiyoslash usuli deyarli barcha fanning tadqiqot usuli hisoblanadi. Chunki, o'rganilayotgan biror sohaning ertasi albatta, uning tarixi bilan bog'liq. Jumladan, «Aholi geografiyasi va demografiyasi» nomli kursni o'rganishda ham tarixiy qiyoslash usuli muhim o'rinn tutadi. Masalan, 2011 yilda dunyo aholisi soni 6,6 milliarddan oshgan bo'lса, agar eramiz boshida aholi soni 175 million kishi bo'lganini e'tiborga olganda, 20 asr davomida aholi 37,1 martaga o'sgan.

Iqtisodiy-matematik usul. Tadqiqot natijalarini tahlil etish uchun matematik usulni qo'llash katta imkoniyat yaratadi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy matematik usul ikki yoki undan ortiq holatlar o'rtasidagi ishonchli farqlarni qayd qilishi mumkin. Iqtisodiy-matematik usul yordamida har doim ishonchli natijalarga erishib bo'lmaydi. Chunki, o'rganilayotgan sohasining rivojlanishi yoki ko'rsatkichlarning pasayishiga turli ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sir ko'rsatib turadi.

Statistik va ko'p o'lchamli statistik usul. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda statistik va ko'p o'lchamli statistik usul yordamida turli-tuman omillar ta'sirida shakllanuvchi holatlarni o'rganish imkonini beradi.

Qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli. Iqtisodiy va geografik tadqiqotlarda iqtisodiy qiyosiy tahlil usulini chetlab o'tib tadqiqotni amalga oshirish mumkin emas. Chunki, har qanday iqtisodiy va iqtisodiy geografik tadqiqotda o'rganilayotgan hudud boshqa hudud bilan yoki sohaning turli hududlardagi holati tahlil etiladi.

Me'yoriy-balans hisobi usuli. Me'yор va nisbat tushunchasi tabiatning eng muhim qonuniyatlaridan biridir. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda me'yoriy-balans hisobi usuli keng foydalaniladi.

Kartografik tadqiqot usuli. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda kartografik tadqiqot usulidan foydalanish tadqiqot ishining vazifasida ko'zda tutilgan xususiyatlarining uyg'unligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Sotsiologik so'rovlar o'tkazish usuli. Sotsiologik so'rovlar usuli ayniqsa, aholining ijtimoiy DEMOGRAFIYA holatini o'rganishda ko'p qo'llaniladi.

Iqtisodiy prognoz usuli. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda iqtisodiy prognoz qo'llanishi ishlab chiqarish hajmining ortishi yoki tabiat resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlarini belgilab beradi. Ko'pchilik holatlarda prognoz ya'ni kutilgan natija yuz bermasligi mumkin. Biroq, kutilgan natija yuz bermagan holatlarda shu soha yoki tarmoq tadqiqotchilari uning omillarini izlab topishga intiladi. Prognoz – tadqiqot ishining sterjeni bo'lib, u tadqiqot jarayonini boshqaradi va uni ichki mantiqiga bo'ysundiradi. Ko'pgina mashhur tadqiqotchilar prognozning bo'limganidan ko'ra, uning xato bo'lsada, mavjudligini afzal ko'rishadi.

Biror iqtisodiy jarayonni prognoz qilishda, ma'lum vaqt oralig'idagi ko'rsatkichlar yoki voqealar rivoji tahlil etiladi va shu asosda jarayonning kelgusidagi holati prognoz qilinadi. Prognoz qilishda ilmiy asoslangan biror qonuniyat yoki mexanizm mavjud emas. Ba'zan iqtisodchilar statistik prognoz usullariga asoslanib, biror tarmoqning istiqboli to'g'risidagi 5-10 yil keyingi prognozlarni keltiradi. Ko'pchilik holatda bu prognozlar o'zini oqlamadi. Chunki, u yoki bu omillar ta'sirida kutilgan natija kuzatilmaydi. Shu bois, tadqiqot prognozlarini inkor qilib bo'lmaydi. Ya'ni agar amalga oshmasa, tadqiqotchi oldiga «Nima uchun?» degan savolni qayta-qayta qo'yaveradi.

## **Aholi geografiyasi fanining asosiy bo'limlari va muammolari.**

Aholi geografiyasi bir qancha yo'nalishlarga bo'linadi:

- Aholining tarkibi va uning takror barpo qilinishidagi geografik farqlar va bu faqlarning sababini o'rganish;
- Mehnat resurslarini va ulardan foydalanishdagi geografik farqlarni o'rganish;
- Aholining hududiy taqsimlanishi va uning harakatini o'rganish;
- Aholi manzilgohlari va ularning hududiy tizimlarini o'rganish. Aholi geografiyasining bu yo'nalishda shaharlarni va qishloq aholi manzilgohlarini alohida o'rganuvchi shaharlar geografiyasi va qishloq aholi manzilgohlari geografiyasi vujudga kelgan;
- Aholining madaniyati va turmush tarzidagi geografik farqlarni va ularning sabablarini o'rganish;
- Tarixiy aholi geografiyasi. Bu yo'nalish o'tgan tarixiy davrlar aholi geografiyasini o'rganadi va tarixiy geografiyaning bir qismi hisoblanadi;
- aholining xaritaga tushirish.

Ijtimoiy iqtisodiy tuzum jamiyat hayotining barcha sohalariga, shu jumladan aholining ijtimoiy tarkibiga va hayot sharoitiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Maktablarda o'lkashunoslik ishlarini yanada yaxshi yo'lga qo'yishda aholi geografiyasi, ayniqsa, yaxshi xizmat qila oladi. O'quvchilar yashayotgan qishloq yoki tumanni, qo'shni qishloqlarni yoki tumanlarni ularning vujudga kelishi va rivojlanishi, aholining tashkil topishi, uning milliy tarkibi va mehnat malakalari hamda boshqa tomonlarini o'quvchilar geografiya o'qituvchisi rahbarligida o'rganishlari mumkin.

Ikkinchi muhim vazifa aholi geografiyasining nazariy masalalari ustida ishlashni davom ettirish. Uchinchi vazifa – aholi geografisi bevosita amaliy vazifalarni hal qilishga qaratilgan tadqiqot ishlarini kuchaytirish. Mamlakatimiz butun hududi bo'yicha ayniqsa qishloq aholi manzilgohlarida muktab, savdo korxonalar, madaniyat muassasalarini oqilona joylashtirish, shaharlar va ularning hududiy guruhlarini rejali rivojlantirish, mehnat resurslaridan mumkin qadar to'la va oqilona foydalanish masalalarini hal qilish ishiga va bu bilan shahar bilan qishloq o'tasidagi tafovutlarni sekin-asta tugatib borish kabi muammolarni hal qilishda aholi geografiyasi o'z munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

### **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati:**

#### **Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar**

- 1.Анохин А.А., Житин Д.В., География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013 – 307 с.
- 2.Абдурахмонов К.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик– Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
- 3.Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С., Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўкув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
- 4.Копылов В.А. география населения. Учебное пособие.- М.: 1999. – 124 с.

#### **Qo'shimcha darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

- 5.Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Т.: O'zbekiston 2017.
- 6.Ата-Мирзаев О.Б, Гентшке Б., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. Т., 2002.
- 7.Ата-Мирзаев О.Б.Народонаселение Узбекистана:-Т., 2009.
- 8.Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. Т., 2002.
- 9.Bo'rieva M.R., Tojieva Z.N. Aholi geografiyasi. - Т., 2000.
- 10.Bo'rieva M.R., Eganova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari.-T.: 2008.
- 11.Максакова Л.П. Миграция населения: проблемы регулирования. Т., 2001.
- 12.Ubaydullaeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Umarova N.O. O'zbekiston DEMOGRAFIYA jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o'quv qo'llanma). Т., 2006.
- 13.Soliev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi).-T.: 2009.
- 14.2011 World population Data Sheet of the population Reference Bureau.
- 15.Human geography: Landscapes of human activities. Sixth edition. Boston, 1999.

#### **Elktron manbalar:**

<http://www.demoscope.ru>.

<http://www.dmo.econ.msu.ru>.

<http://www.undp.org/popin/popin.html>.

<http://www.demography.narod.ru>

<http://stat.uz>

<http://ziyo.net>

<http://www.geografiya.uz>

<http://www.geograf.uz>

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

- 1.Fanning o'rganish ob'ekti va predmetini tushuntiring.
- 2.Geografik fanlar tizimida tutgan o'rnnini tushuntiring.
- 3.Fanning asosiy vazifalari va tushunchalarini tushuntiring.
- 4.Fanning qanday tadqiqot usullari mavjud?
- 5.Aholi nima?
- 6.Aholi geografiyasi oldida turgan muammolarni qaysilar?

### **Mavzuga bo'yicha test**

#### **1. Axolini ruyxatga olish dastlab qaysi mamlakatlarda utkazilgan?**

- A) Misrda, Eronda
- \*B) Xitoyda, Misrda
- C) Eronda, Rossiyada
- D) Irokda, Italiyada
- E) Xindistonda, Eronda

#### **2. Axolining takror barpo bulish jarayoni nimani ifodalaydi?**

- \*A) xar yili kandaydir sabablarga kura vafot etgan axoli urnini yangidan dunyoga kelgan avlod xisobiga tuldirilib borishidir
- B) axoli sonining kayta tiklanishidir
- C) tugilganlar sonining ulganlar sonidan ortib ketishidir
- D) axolining mexaniq kupayish jarayonidir
- E) axoli sonining tabiiy ravishda usishi

#### **3. Depopulyatsiya jarayoni nima?**

- A) axoli sonining usish jarayoni
- B) axolining ma'lum xududda keng tarqalishi
- \*C) axoli sonining kamayishi
- D) tabiiy usishning yukoriligi
- E) axolining takror barpo bulishi

#### **4. Tabiiy usish kursatkichlari buyicha jaxonda qaysi mamlakat birinchi urinda turadi.**

- A) Xitoy
- B) Rossiya
- C) AKSH
- \*D) Angola
- E) Yaponiya

#### **5. Irk- bu.....**

- \*A) odamlarning kelib chikishi, gavda tuzilishi va kiyofasi uxshash bulgan tarixan tarkib topgan xududiy birligidir
- B) gavda tuzilishi va kiyofasi uxshash bulgan kishilar guruxidir
- C) irklar va xalklarning tashki kurinishidagi farklar
- D) ma'lum xududda yashovchi kishilar guruxi
- E) gavda tuzilishi uxshash bulgan kishilar guruxi

### **Ma'ruza 2: Aholi to'g'risida malumot manbalari. Aholi ro'yxati va dinamikasi.**

#### **Reja:**

- 1.Aholi to'g'risida malumotlar manbalari, birlamchi va ikkilamchi malumotlar haqida umumiy tavsiflar.
- 2.Tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va migratsiya jarayonlarining joriy xisobi.
- 3.Maxsus, tanlama tadqiqotlar, registrlar, aholini joriy xisobga olish.
- 4.Aholini xisobga olish, turlari, aholi ro'yxati, rivojlangan, rivojlanayotgan xududlarda aholi sonini ro'yxatga olish.
5. Dunyo aholisi dinamikasi, moxiyati va tuchuncha.
- 6.Aholi soni dinamikasi bo'yicha davlatlarni ajratish, guruxlash.

7.Dunyo mamlakatlarini aholi soni bo'yicha klassifikatsiyalash.

8.Yer shari mintaqalari aholisi soni dinamikasining geografik xususiyatlari.

**Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar):** Birlamchi va ikkilamchi malumotlar, tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va migratsiya, maxsus, tanlama tadqiqotlar, registrlar, aholini joriy xisobga olish, aholini xisobga olish, turlari, aholi ro'yxati, rivojlangan va rivojlanayotgan xududlar aholi sonini, aholi soni dinamikasi, aholi kategoriyalari: doimiy, vaqtincha mavjud aholi.

**Aholi to'g'risida malumotlar manbalari, birlamchi va ikkilamchi malumotlar haqida umumiy tavsiflar.**

Aholi bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash, ilk davlatchilikning shakllanish davrlariga borib taqaladi. Hatto uzoq o'tmishda, ya'ni Rim imperiyasi davrida mamlakat harbiy qudratini oshirish maqsadida aholi, yoshi, jinsi haqida dastlabki ma'lumotlar to'planganligi tarixdan hammaga ma'lum.

**Demografiyadagi asosiy axborot manbalari quyidagilar:**

-Har 10 yilda bir marta o'tkazilib turiladigan aholi ro'yxati;

-DEMOGRAFIYA hodisalarining joriy statistik ro'yxati (tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish) ning hisobi va uzlusizligi;

-Aholi joriy kartotekasining uzlusizligi;

-Alohiba va maxsus kuzatuvlar;

Aholi ro'yxati bu mamlakat yoki uning biror hududida ma'lum vaqtida yashovchi aholi bilan bog'liq ma'lumotlar to'plami bo'lib, unda DEMOGRAFIYA va aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ma'lumotlar tahlili va bahosi aks ettiriladi. Aholi ro'yxatida quyidagi masalalar o'r ganiladi:

- mamlakat hududidagi aholi soni va joylashushi, shahar va qishloq aholisi, aholi migratsiyasi;
- aholining milliy tarkibi, ona tili va muloqat tili, fuqaroligi;
- aholining ma'lumoti, qishloq xo'jaligi va sanoat yoki xizmat ko'rsatish tizimlarida bandligi, daromadlari;
- oilalarning kompleks va ijtimoiy tavsifiga ko'ra turi va soni;
- tug'ilish;
- aholining yashash sharoitlari va b.q.

Aholi tabiiy harakati hodisalarining joriy hisobi – asosan tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish hodisalarining qayd etilishidir. Aholi tabiiy harakatining joriy hisobi ikki nusxada qay etilib, ulardan biri arxivga, ikkinchisi esa fuqarolik holatlarini umumlashtirish, ma'lumotlar to'plash va qayta ishslash uchun statistika muassasalariga topshiriladi. Biroq, bu ma'lumotlar jamlangan holda ham DEMOGRAFIYA jarayonlar intensivligini ifodalamaydi.

DEMOGRAFIYA hodisalar hajmi aholi soni bilan bog'liq. Masalan, aholi zinch hududlarda ish o'rinalining kamligi va ortiqcha ishchi kuchlarining to'planib qolishi yoki aksincha, aholi siyrak hududlarda ish o'rinalriing ko'pligi va mehnat resurslarining etishmasligi holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Aholining joriy kartotekasini turli ma'muriy davlat organlari yuritadi. Bu kartotekalar aniq maqsadlarni amalga oshirish maqsadida tuziladi va odatda aholining barcha qismini qamrab olmaydi, ya'ni ma'lum qismini (mikrorayon aholisi, ba'zi ijtimoiy guruhlarni) hisobga oladi.

Alohiba va maxsus kuzatuvlar. Aholining alohiba guruhlari haqida ma'lumot olish va uni barcha aholi guruhlari uchun joriy etishda aholi ro'yxatiga nisbatan kam kuch talab etadi va ko'proq muammolarni o'r ganish imkonini beradi.

Aholi bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash, ilk davlatchilikning shakllanish davrlariga borib taqaladi. Hatto uzoq o'tmishda, ya'ni Rim imperiyasi davrida mamlakat harbiy qudratini oshirish maqsadida aholi, yoshi, jinsi haqida dastlabki ma'lumotlar to'planganligi tarixdan hammaga ma'lum.

Aholiga oid ko'rsatkichlarni ikkiga ajratish mumkin, ular nisbiy va mutloq ko'rsatkichlardir. Mutloq ko'rsatkichlar ma'lum vaqtdagi DEMOGRAFIYA hodisalar yig'indisidir (bu vaqt oralig'i ko'pincha bir yilni tashkil etadi).

Masalan, unga ma'lum vaqtdagi aholi, tug'ilganlar, o'lganlar sonini kiritish mumkin. Shuningdek, mutloq ko'rsatkichlar orqali aholi haqida ko'p ma'lumotga ega bo'lish qiyin. Ko'proq ma'lumotga va tahlillarga ega bo'lish uchun ilgarigi ma'lumotlardan foydalilanadi. Bu, o'z navbatida, tahliliga ma'lumotlarga erishish va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash imkonini beradi.

DEMOGRAFIYA jarayonlarni o'rganishda juda ko'p ma'lumotlardan foydalaniladi. Ko'pchilik davlatlarda DEMOGRAFIYA ma'lumotlar statistika tashkilotlari tomonidan to'plab boriladi. Ular aholi soni, tarkibi va DEMOGRAFIYA jarayonlarni aks ettirib o'z ichiga ushbu masalalarga oid raqamli jadval va diagrammali ma'lumotlar, ilmiy manbalar, sotsiologik-DEMOGRAFIYA tadqiqotlar natijalarini oladi. Dunyo miqyosida DEMOGRAFIYA ma'lumotlarni to'plash BMT boshchiligidagi tuzilgan dastur asosida o'tkaziladi.

Aholi statistikasi aholini o'rganish, uning sonini aniqlashdan boshlaydi. Vaqtı-vaqtı bilan o'tkazilib turiladigan aholi ro'yxati va aholining tabiiy o'zgarishini, tug'ilganlarni, o'lganlarni, nikohdan o'tgan va uning migratsiyasi ya'ni mexanik o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkichlar aholi to'g'risidagi ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Aholining tabiiy o'zgarishini, tug'ilganlarni va o'lganlarni, nikohdan o'tgan hamda ajralishlarni FHDYo organlari hisobga oladi.

Aholining aniq soni, tarkibi va joylanishi to'g'risidagi aniq va to'liq ma'lumotlarni ma'lum bir oraliq davrlarda o'tkazilib turiladigan aholi ro'yxatlari beradi. DEMOGRAFIYA tarkiblar aholining, yosh, jins, professional (kasbiy) va boshqa har xil ijtimoiy qatlamlarining o'ziga xos xususiyatlarini qamrab olib, DEMOGRAFIYA statistika uchun asosiy manbalar hisoblanadi. DEMOGRAFIYA tarkiblarning hisob-kitobi vaqtga bog'liq bo'lib, doimiy ravishda o'zgarib turishi tabiiydir. Shuning uchun har bir davr yoki hududlar aholisi tahlil qilinari ekan. Ularning o'ziga xosligini doimo yodda tutish lozim. Bunday o'ziga xosliklar esa tabiiy sharoit, siyosiy ijtimoiy voqealar, aholining oila va nikohga bo'lgan munosabati va davlatlarning DEMOGRAFIYA siyosati kabilardir. DEMOGRAFIYA tarkiblar ichida avlodlar tushunchasi alohida ajratiladi.

Demografiyadagi asosiy axborot manbalari quyidagilar:

- Har 10 yilda bir marta o'tkazilib turiladigan aholi ro'yxati;
- DEMOGRAFIYA hodisalarining joriy statistik ro'yxati (tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish) ning hisobi va uzlucksizligi;-Aholi joriy kartotekasining uzlucksizligi;-Alohida va maxsus kuzatuvlari;

#### **Tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va migratsiya jarayonlarining joriy xisobi.**

Tug'ilish- DEMOGRAFIYA jarayonlardan biri bo'lib, u ham qator ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy omillar ta'sirida rivojlanadi. Shuniningdek jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit tug'ilish darajasini belgilaydi. Biologik jarayon bo'lmish tug'ilish darajasi ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq. Bularga ayollarning jamiyatdagi mavqeい, bandligi, bolalr o'limi, moddiy shart-sharoit, davlatning DEMOGRAFIYA siyosati, aholining tarkibi va hokazolar kiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ichida aholining yashash sharoiti, aholi tug'ilish darjasida geografik farqlarni yaqqol ifodalaydi.

B.S. Urlanis "qaerda kambag'allik va qashshoqlik bo'lsa, o'sha yerda turmush sharoit, madaniyat past darajad bo'ladi" deb o'z fikrini bildiradi. Haqiqatan aholining turmush sharoiti, madaniyati yuksalgan sayin uning o'rtacha umr ko'rish davri uzayadi. Aholi tarkibida qariyalar miqdori oshadi, topgan daromadlari bolalari ehtiyojlarini qondirish va o'zlarining yaxshi yashashig sarflashadi. Demak aholi madaniy darajasining ko'tarilishi tug'ilish ko'rsatkichining pasayishiga xizmat qiladi desak hato qilmaymiz.

XVIII asr oxirlariga qadar yer yuzining barcha mintaqalarida tug'ilish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan XX asrga kelib aksariyat rivojlangan davlatlarda industrlashtirish, urbanizatsiya jarayonlarining jadllashuvi, ayollarning ishlab chiqarishda faolligining avj olishi, fan-ta'lim sohasidagi rivojlanishlar, madniyatning taraqqiy etishi, nikoh qurish yoshining ko'tarilishi natijasida tug'ilish bir muncha pasaydi. XIX asr oxirida Yevropa davlatlarida tug'ilish yuqori, o'lim past bo'lib, aholi takror barpo bo'lishi intensiv holatd bo'lgan bo'lsa XX asrda huddi shu ahvol Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilgan. Yevropada bu vaqtida tug'ilishning pasayishi ahamiyatli tus olgan va hozirgacha bu jarayon davom etmoqda.

Tug'ilishga ta'sir etuvchi omillardan yana biri bu ayollarning jamiyatdagi o'rni. Ayniqsa, ayollarning bilim darajasi va ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishi tug'ilishga, oiladagi farzandlar soniga ta'sir etadi. Oilad faqat farzand trbiyasi va uy ishlari bilan band bo'lagan ayolga nisbatan ma'lumotli, biron bir sohada ishlaydigan ayolda farzandlar kam bo'ladi. Chunki bu ayollar kechroq turmush quradi, ularning bilim, madniyat darajasi, qiziqishlari ko'p bollikni inkor etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tug'ilishga ta'siri har doim bir xil kechmaydi. Ba'zi iqtisodiy nochor, qoloq davlatlarda tug'ilish ko'rsatkichi haddan tashqari balnd. Masalan, Afrikada 40 % va undan ham yuqorini tashkil etadi. Odatda nochor, qashshoq oilalrda farzandlar ko'p tug'iladi va o'z navbatida o'lim drjasи ham yuqori bo'ladi.

Tug'ilishga ijobjiy ta'sir etuvchi omillardan biri nikoh qurish yoshi hisoblandi. Erta nikoh qurish tug'ilish darajasini oshirsa, aksincha kech nikohga kirish, ajralishning kamayishi, tug'ilish darajasini ko'tardigan qulay DEMOGRAFIYA vaziyat hisoblanadi. Qator Osiyo davlatlaridagi DEMOGRAFIYA vaziyatni qulay deb baholash mumkin. Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarida yoshlar erta nikohga kiradi. G'arbiy Yevropada esa aksincha. Nikoh qurish jamiyatda avlodlar almashinuvi uchun zamin bo'lib xizmat qilsa, ajralish tug'ilish darajasini sezilarli pasayishiga sabab bo'ladi. Qaerda ajralishlar ko'p bo'lsa, o'sha hududda tug'ilishning pastligini kuzatmiz. Ajralishning oldini olish, tug'ilish drjasini bir me'yorda boshqarish davlat ahamiyatiga ega masala hisoblndi. SHu boisdan DEMOGRAFIYA jaryonlarni nazorat qilish, ba'zi xollarda choralar ko'rish, tug'ilish ko'rsatkichiga ta'sir etish maqsadlarida har bir davlat tomonidan "DEMOGRAFIYA siyosat" yuritiladi. Aholining tabiiy o'sishi past bo'lgan geografik huddlrug' tug'ilishni ko'paytirishga qaratilgan siyosat olib boriladi. Bunda aholi ham moddiy ham ma'navi rag'batlantiriladi, yosh oilalar uchun sharoitlar yaratiladi, yuqorida keltirilgan ajralishlar davlat tomonidan nazoratga olinadi va hokazo. Hozirda bunday tug'ilishni ko'paytirishga qaratilgan siyosat g'arb davlatlarida yurg'izilmoqda. Aksincha tug'ilishni cheklash degan siyostni ilgari surayotgan davlatlar ham mavjudki, bular tabiiy ravishda aholisi tezlik bilan ko'payotganligi sabab shunday siyosat olib borishga majbur. Tug'ilishni cheklash siyosati rivojnyotgan Osiyo mamlakatlariga xos va mos. Jumladan, aholisining o'sish sur'ati baland bo'lgan Xitoy, Hindiston, Indoneziya kabi davltlrd dunyo aholisining 41.0 foizi yashaydi. Xitoyda erta oila qurish, ikkitadan oshiqa farznda o'rish butunlay man etilgan.

Tug'ilishga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri turli geografik hududda bir xil emas. Bu esa uning ko'rsatkichlarining turli joyda xilma-xil bo'lishiga olib keladi. Demak aholi takror barpo bo'lishida, o'sish sur'atining pasayishida yoki ko'tarilishida tug'ilish alohida ahamiyat kasb etadi deyish maqsadga muvofiq.

O'lim avlodlar almashinuvidagi asosiy jarayon hisoblanildi. Aholi o'limi turli sabablar ntijasid ro'y beradi. Aholining tabiiy o'sishi hamda kamayishida muhim DEMOGRAFIYA jarayon bo'lib ishtirok etadi. O'limning ro'y berishida asosan endogen va ekzogen omillarni sabab qilib ko'satildi. Endogen omillar- organizning ichki rivojlanishi, uning shakllanishi va qarishi, insonning yashash faoliyati qobiliyatining pasayishiga sabab bo'ladigan omillardir. Odatta endogen omillar tufayli keksa yoshdagi aholi ko'proq o'lim topadi. Buni odattd me'yoriy hodisa deb baholashadi. Biroq aholining yosh qatlamid ham endogen sabblar tufayli o'lim hodisasi ro'y beradi. Bularga davosi yo'q irsiy kasalliklar, nojo'ya voqe'a-hodisalar kiradi.

Ekzogen omillar- odamlarda tashqi ta'sir bilan bog'liq paydo bo'ladigan o'limlar bo'lib bu omillar oqibatid aholining turli yoshdagi kishilari turli vaqtida turli joyda vafot etadilar. Ushbu omillarga ichki yuqumli kasalliklar, kasb kasalliklari, og'ir mehnat va mehnat sharoitlari oqibatida yuzaga kelgan kasalliklar, baxtsiz hodisalar, zahrlanish, narkomaniya, alkogolizm va hokazolar kiradi. Hozirgi zamon sanoati, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, avtomatlashtirish, xalq xo'jaligini ximiyalashtirish natijasida atrof-muhitning, atmosfera havosining buzilishi, oqar suvlarning ifloslanishi, o'lim hodisasining yanada ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

O'lim ko'rsatkicha o'rganilayotgan huddagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasiga, aholining yashash sharoiti va sog'liqni-saqlash tizimining ahvoliga chambarchas bog'liq. Ushbu sohalarning rivojlanganlik darjasini qanchlik baland bo'lsa, o'lim ko'rsatkichi shunchalik past bo'ladi va aksincha. Aksariyat o'lim darajasi yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlarda bularning darjasini past bo'lganligi kuztiladi. Masalan, Afrika davlatlarida dunyo bo'yicha umumiyo o'lim ko'rsatkichi o'ta baland. Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan aholi o'limi 15-20 %, ba'zi joylarda 25 % ga ham yetadi (Nigerda- 24 %). O'lim darajasi baland bo'lgan ikkinchi mintaqaga Yevropa hisoblandi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, taraqqiyotiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiluvchi bu ikkala geografik hudud o'lim hodisasi ko'pligi bilan bir-biriga o'xshaydi. Yevropaning deyarli barcha qismlarida o'lim tug'ilishga nisbatan yuqori. O'limning umumiyo ko'rsatkichi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik har doim ham o'zini oqlmaydi. Jumladan, Yevropa iqtisodiy baquvvat bo'lishiga qaramasdan aholi o'rtasida o'lim ko'pligi bilan ajralib turadi. Buni ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit bilan emas, balki aholi yosh tarkibidagi vaziyat bilan baholash maqsadga muvofiq. SHu boisdan fanda aholi o'limining yosh bo'yicha taxlili alohida o'rganildi.

Yevropa aholisining umumiyo o'lim ko'rsatkichi yosh bo'yicha qaralganda bolalar va o'rta yoshdagilar o'rtasida o'lim kam uchraydi, keksa yoshdagilarda aksincha juda baland. Aholi yosh tarkibida keksalar

ko'pligini inobatga olsak tabiiy ravishda bu umumiy o'lim ko'rsatkichiga ta'sir etishini aniqlaymiz. Bundan tashqari Yevropa aholisi tarkibida ekzogen omillar tufayli sodir bo'ladigan o'lim hodisasi ko'p uchraydi.

Tug'ilish darjasining pastligi, o'limning tug'ilishdn ko'pligi aholining tabiiy kamayishini keltirib chiqardi. Bugungi Yevropa DEMOGRAFIYA vaziyatida aynan shu holat oddiy aholi tkror barpo bo'lishi sodir bo'lmoqda ya'ni aholi tabiiy ravishda kamaymoqda.

Taqqoslash uchun tanlab olgan qit'amiz Afrikada esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi qoloqlik, sog'liqni saqlash sohasining yetarli rivojlnmaganligi, tug'ilayotgan farzandlar sonining haddan tashqari ko'pligi va ular o'rtasid o'limning yuqoriligi, umuiy o'lim ko'rsatkichining balandligiga olib kelmoqda. O'lim hodisasining katta yoki kichik ko'rsatkichni tashkil etishi bir yoshgacha bo'lgan bollar o'lii bilan bevosita bog'liq. Har 1000 ta tug'ilgan chaqaloqqa to'g'ri keladigan go'daklar o'limi dunyo bo'yicha 56 tani tshkil etadi. SHundan Afrikada bu raqam 89 ta, Yevropada 9 ta, Okeaniyada 26 ta, Osiyoda 53 ta va Amerikada eng kam 7 taga teng (2004 yil). Ma'lumki, bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi bu birinchi yil bolalr hayotida ro'y beradigan o'lim hodisasidir. Go'daklar o'limini qiyoslash borasida maxsus shkaladan foydalaniddi.

Nikoh-bu erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning, ularning bir-biriga va o'z bolalariga nisbatan huquqlari va majburiyatlarining jamiyat tomonidan qayd etiladigan va boshqariladigan shaklidir. Nikoh tarixan ko'p asrlik uzoq taraqqiyot yo'lini va ma'lum bir shakllarning boshqa shakllar bilan almashinuvini bosib o'tgan. Bu tarixiy o'zgarishlar ana shu soha bilan bog'liq maxsus tarixiy etnografik va tarixiy sotsiologik ilmiy adabiyotda yaxshi yoritilgan. Nikoh haqida so'z borar ekan uning huquqiy va boshqa turli ijtimoiy fanlarda turlicha talqin qilinishini ta'kidlash lozim. Deylik, huquqiy nuqtai nazardan, nikoh bu erkak va ayol o'rtasida erkin, ixtiyor, teng huquqli asosda tuzilgan ittifoq bo'lib, unda qonun talablariga rioxva qilish va er-xotin o'rtasida shaxsiy hamda mulkiy qonunlar va majburiyatlarga so'zsiz bo'ysunish ta'kidlanadi. O'zbekistonda nikoh fuqarolik holati qayd etiladigan tashkilotlarda ro'yhatdan o'tkazilgandan keyingina qonuniy hisoblanadi va bu hozirgi vaqtda qabul qilingan oila kodeksi bo'yicha tartibga solib turiladi.

Demografiya nuqtai nazaridan esa nikoh deganda oila qurish va bolalar tug'ilishi hamda tug'ilish va o'lim faktorlari, ularning o'zgarish qonuniyatları va hususiyatlari nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, demografiya nikohning erkak va ayol o'rtasidagi ittifoqning qonuniylashtirilgan yuridik shaklidan ko'ra amaldagi nikoh, ya'ni nikohga kiruvchilarning munosabatlariga e'tibor beradi. Buning uchun nikoh ma'lum biror bir davlat qonun-qoidalari asosida qayd etilishi shart emas. Umuman olganda demografiyada nikohning yuridik shakli ham muhim ahamiyat kasb etadi va shu asosda nikohsiz tug'ilish degan tushuncha ham bor.

Sotsiologik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, nikoh munosabatlarning rasmiy qayd etilgani yoki etilmagani, ularning yuridik tomondan rasmiylashtirilgani oila holatining sotsial institut sifatida eng muhim belgisi sanaladi. Keyingi yillarda nikohsiz yashash holatlari sodir bo'layotgani oila tushunchasi uchun inqiroziy holat hisoblanadi va bu o'z navbatida jamiyatda ijtimoiy holat keskinlashgani, sotsial ahloqiy normalarning salbiylashuvidan darak beradi. Bunday paytda oila tushunchasida, ayniqsa bolalar masalalarida sotsial muammolar kelib chiqadi. Mazkur imkoniyat boshqa tomonidan huquqiy nikoh va oila birga yashashning yagona mezoniy shakli ekanligiga ham putur yetkazadi. Endi nikoh va nikoh mueosabatlariga kelsak, bu yerda fanda bir munka chalkashlik bor. Aniqrog'i, nikohning yuridik, DEMOGRAFIYA va sotsiologik jihatlari aniq ishlab chiqilmagan. SHu sababdan bo'lsa kerak, turli nashrlarda rasmiy nikoh tushunchasiga va qayd etilgan nikoh tushunchasiga turlicha baho berishadi. Ba'zan esa qayd etilmagan nikohlarni "fuqarolik nikohi" deb atashadi. Bu chalkashlikdan qutulish uchun fuqarolik nikohi deganda qayd etilgan nikohni tushunish kerak. "Amaldagi nikoh" masalasiga kelsak, uning huquqiy jihatlaridan qat'iy nazar, haqiqiy nikoh munosabatlari bo'lganligi e'tiborga olinishi kerak. Umuman olganda amaldagi nikohni qayd etilgan nikohga qarama-qarshi qo'yish ma'lum noaniqliklarga asoslangan; zero huquqiy nikoh shaklining borligi o'z navbatida amaldagi nikoh munosabatlari borligini inkor qilmaydi va aksincha, amaldagi nikoh bo'lishi uning huquqiy shakllarini inkor qilmaydi.

Nikoh holati (statusi) deganda individning nikoh institutiga nisbatan holati tushuniladi; mazkur holat u yoki bu mamlakatning urf-odatlari va huquqiy normalariga muofiq belgilanadi. Hozirgi vaqtda aksari mamlakatlarning statistik idoralari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistik komissiyasi tavsiyanomalariga muofiq nikoh statusi qoidalarini belgilashga harakat qiladilar. Bunga ko'ra nikoh

holati yoki nikoh statusining quyidagi kategoriyalari nazarda tutilgan: nikohda bo'limgan shaxslar; nikohda bo'lgan va birga yashovchi shaxslar; bevalar qolib yangi nikohga kirmaganlar; ajralib yangi nikohga kirmaganlar; nikohda bo'lib birga yashamaydiganlar; u yoki bu kategoriya kiritishning iloji bo'limganlar. Bu olti kategoriya nikoh holatining asosiy kategoriyalari bo'lib, jahonning ko'pgina mamlakatlaridagi DEMOGRAFIYA statistika tomonidan hisobga olinadi. Yuqorida sanab o'tilgan asosiy nikoh statuslaridan tashqari ayrim mamlakatlarning statistikasida uning boshqa xillarini ham uchratish mumkin. Masalan, ba'zan qayd qilingan va qayd qilinmagan nikohdagilarni alohida ajratib ko'rsatishadi va keyingi vaqtida bu ikki kategoriya, nikohsiz tug'ilganlarning soni ortib borishi bilan, qiziqish ko'paymoqda.

**Ajralish** – er-xotinning xayotlik davrida nikohning bekor etilishidir. Ajralish-murakkab sotsial jarayon bo'lib, qator omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Ularga jamiyatda nikohning tutgan o'rni, nikoh turlari, har bir davlatda nikoh va ajralish haqidagi mavjud qonunlar, davlat tomonidan oila mustahkamligi borasida olib borilayotgan siyosat, ayollarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, farzandsizlik, oila turmush tarzi, din, urf odatlar. alkogolizm va narkomaniya kabilarni kiritish mumkin. Ushbu omillar ta'sirida jamiyat taraqqiyotining turlicha bosqichlarida, davlatlarda, xalqlarda va aholi guruhlarida ajralish darajasi turlicha bo'ladi. Ajralish jarayonini o'rganishda qator koeffitsientlardan foydalilanadi.

Migrtsiya so'zi lotincha "migratio" so'zidan olingan bo'lib, ko'chib yurish, ya'ni bir hududdan ikkinchi bir hududga chegaralardan o'tib aholining almashinishini bildiradi. Aholining turli maqsadlarda, yangi yerlarni o'zlashtirish, daraomad topish, o'qish, yashash hamda siyosiy nuqtai-nazardan yashash joyini doimiy yoki vaqtincha o'zgartirishiga uning mexanik harakati deyiladi.

Aholi migratsiyasi ikki shaklda ichki migratsiya va tashqi migratsiya shaklida ro'y beradi. Agar aholi mamlakat ichida hududlar bo'y lab (shahar-qishloq, qishloq-shahar, tuman-viloyat va hokazo) ko'chishni amalga oshirsa bunday migratsiya ichki migratsiya deyiladi. Aksincha, aholi o'zi yashab turgan mamlakatdan boshqa mamlakatlarga, qit'alarga ko'chib borsa bunday migratsiyani tashqi yoki xalqaro migratsiya deb ataymiz. Migratsiyaning har qanday turida ishtirok etgan kishilar migrantlar deyiladi. Tashqi migratsiya ikkig bo'linadi: emigratsiya va immigratsiya.

Emigratsiya- kishilarning doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o'z vatanidan boshqa mamlakatlarga ko'chib ketishi. Emigratsiyada qatnashgan aholi emigrantlar deb ataladi.

Immigratsiya- kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashashi uchun biron bir mamlakatga boshqa davlatlardan ko'chib kelishi. Imigratsiyada qatnashgan aholi "immigrantlar" deyiladi.

Reemigratsiya- kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o'z vatnidan boshqa mamlakatga ko'chib ketib, muayyan muddatdan so'ng yana kaytib ko'chib kelishidir. Reemigratsiyada qatnashgan kishilar "reemigrantlar" deyildi.

Shuningdek, aholi migratsiyasi o'z mohiyatiga ko'ra uch turga, ya'ni doimiy, vaqtincha (mavsumiy) va tebranma (mayatniksimon) migratsiyaga bo'linadi. Sabablariga qarab ixtiyoriy hamda majburiy migratsiya turlari ham mavjud.

Doimiy migratsiya- aholining uzoq muddatga (bir yildan oshiq) bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib yana qaytishidir.

Mavsumiy migratsiya- aholining ma'lum bir vaqtga (mavsumga) bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib yana qaytishidir.

Tebranma migratsiya- aholining bir joydan ikkinchi bir joyga har kuni yoki har haftada borib qaytishi. Bunga misol tariqasida Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridan aholining poytaxtimiz Toshkent shahriga turli maqsadlarda har kuni yoki bir haftaga kelib qatnaydiganlarni keltirish mumkin. Demak, tebranma migratsiya urbanizatsiya xarakteriga ega desak hato bo'lmaydi. Sababi, tebranma migratsiyada ishtirok etganlarning aksariyati, qishloqdan tuman yoki viloyat markaziga, qishloq-shahar, kichik shaharlardan yirik shaharlarga tomon harakat qilishadi. Mayatniksimon migratsiyada ba'zan aholi bir davlat hududida yashab ikkinchi bir davlat hududiga ishlash, o'qish uchun har kuni yoki haftada chegaradan o'tib borib kelishadi. Bu G'arb davlatlarida yaqqol kuzatiladi.

**Migratsiyaning turlari.** Migratsiya juda keng qamrovli va murakab jarayon bo'lib, uning turli jihatlariga ko'ra: hududiy yo'nalishiga, muddatiga, tashkil etilgan yoki etilmaganiga, qonuniy yoki noqonuniyligiga qarab turlari mavjud.

Hududiy yo'nalishiga ko'ra migratsiya tashqi va ichki migratsiyaga bo'linadi.

**Ichki migratsiya** deb biror bir mamlakat, viloyat yoki ma'muriy hududiy birlik ichida aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishidir. Bu xil migratsiya ham o'z navbatida to'rt yo'nalishga bo'linadi: shahardan-shaharga, shahardan-qishloqqa, qishloqdan-shaharga, qishloqdan-qishloqqa.

**Tashqi migratsiya** deb aholining mamlakat tashqarisiga, jumladan qo'shni mamlakatlar yoki chet elga ko'chib ketishi yoki u yerdan ko'chib kelishidir. Tashqi migratsiyaning qit'alararo va qit'alar ichidagi turlarini ham ajratib ko'rsatish mumkin.

Tashqi migratsiya to'g'risida gap ketar ekan emigratsiya, immigratsiya va reemigratsiya tushunchalariga qisqacha ta'rif berib o'tish lozim bo'ladi. «Immigratsiya- bu mamlakatga xorijiy fuqarolarning doimiy yashash yoki ishslash maqsadlarida kelishi bo'lsa, emmigratsiya esa bu jarayonning teskarisidir, ya'ni biror mamlakat fuqarolarining doimiy yashash yoki ishslash maqsadlarida xorijga chiqib ketishlaridir. Reemigratsiya va reimmigratsiya esa ko'chib kelgan yoki ko'chib ketganlarning kaytib kelishi va qaytib ketishidir. Immigratsiyada qatnashgan fuqarolar immigrantlar, emmigratsiya jarayonida ishtirok etuvchilar emigrantlar deb ataladi. SHuni alohida qayd etish lozimki, "Emigrant" va "Immigrant" tushunchalari uchun xalqaro yagona ta'rif mavjud emas. Bu tushunchalar bo'yicha har bir davlatning o'z mezonlari bor. Masalan, Bolgariyada "immigrant" shu davlatga joylashish maqsadida boshqa davlatdan kelganlar; "emmigrant" esa Bolgariyani butunlay tashlab boshqa davlatga yashash uchun ketganlar. Polshada- oldin xorijda, ya'ni boshqa davlatda yashab, keyinchalik shu davlatga doimiy fuqarolik uchun kelganlar – "immigrantlar" deb; Polshani butunlay tashlab ketganlar esa "emigrantlar" deb ataladi. Rossiyada – Rossiyaga ishslash yoki o'qish maqsadida 1,5 yildan ko'p muhlatga kelganlar va ularning kuzatuvchilari "immigrantlar" deb; o'qish yoki ishslash uchun 1,5 oydan ko'p muhlatga boshqa davlatga ketganlar "emigrantlar" deb ataladi. AQSH da qonuniy asosda boshqa davlatlardan doimiy yashash maqsadida AQSH ga kelganlar "immigrantlar" deb ataladi. "Emigrantlar" ga esa ta'rif berilmagan.<sup>9</sup>

**Muddatiga ko'ra** – migratsiyaning doimiy vaqtincha (mavsumiy) va tebranuvchi (mayatniksimon) turlari ajratiladi.

**Doimiy migratsiya-** bu aholining ko'chib ketgan joyida butunlay qolib ketishi yoki uzoqroq muddat qaytib kelmasligidir. Kishilarning nisbatan qisqa muddatdan so'ng ko'chib ketgan joylariga qaytib kelishlari vaqtinchalik migratsiyadir. Vaqtingchalik migratsiyaning eng muhim yo'naliishi mavsumiy migratsiya bo'lib, kishilarning yilning muayyan bir faslida chetga chiqishi yoki kelishi jarayonidir. Mavsumiy migratsiya asosan mehnat migratsiyasiga xos jarayon bo'lib aholi bandligida katta tebranishlar bo'ladigan va ishchi kuchiga talab katta bo'ladigan mavsumlarda kishilarning migratsion faolligi bir necha barobar ortib ketadi. Mavsumiy migratsiya ko'proq qishloq xo'jaligi, mehmonxona xo'jaligi singari ishchi kuchini ko'p talab etadigan va yuqori malaka talab etilmaydigan ishlar bilan bog'liq bo'ladi. Misol uchun yoz oylarida Turkiya, Shveysariya kabi davlatlarga xorijlik sayyoxlarning ko'plab kelishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan keskin ortadi. Bu esa daromad topish darajasi nisbatan pastroq bo'lgan davlatlardan ko'plab ishchilarning oqib kelishiga sabab bo'ladi.<sup>10</sup>

Migratsiyaning yana bir turi tebranuvchi (mayatniksimon) migratsiya bo'lib, aholining bir aholi punktidan ikkinchi bir aholi puktiga o'qish, ishslash va boshqa sabablarga ko'ra har kunlik qatnashidir. Bu tur migratsiya ko'proq ichki migratsiyaga xos bo'lib, xalqaro migraatsiya doirasida davlatlararo yaxshi qo'shinchilik aloqalari yo'lga qo'yilgan chegaraoldi hududlarigagina xosdir.

Migratsiya jarayoni tashkil etilish nuqtai- nazaridan tashkil etilmagan turlarga ajratiladi. Tashkil etilmagan migratsiya aholining o'z hohish va ihtiiyorlari bilan avvaldan rejalshtirilmasdan, stixiyali tarzda bo'lishi bo'lsa, tashkil etilgan migratsiya ijtimoiy zaruriya tufayli davlat tomonidan rejalshtirilgan tarzda sodir bo'ladi. Misol uchun, hozirgi kunda juda ko'p O'zbekiston fuqarolari Janubiy Koreya Respublikasida tashkillashtirilgan holda mehnat qilmoqdalar. So'ngi yillarda migratsiyada, xususan xalqaro migratsiya jarayonlarida qonuniy va noqonuniy migrantsiya turlari alohida ajratib ko'rsatilmogda..

**Qonuniy migratsiya-** bu kishilarning mavjud qonunchilikni chetlab o'tmagan holda, davlat organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan va tegishli ruxsatnomalari bo'lgan holdagi ko'chishlaridir.

**Noqonuniy migratsiya** esa kishilarning mavjud qonunchilikni chetlab o'tgan va davlat organlari tomonidan ro'yxatga olinmagan holdagi hamda zaruriy xujjat, va ruxsat bo'limgan holdagi ko'chishidir.

<sup>9</sup> Бўриева М.Р. Демография асослари. Т., 2002.

<sup>10</sup> Демографический энциклопедический словарь, М., 1985., 243-244- бет.

Ma'lumki migratsiya kishilarning doimiy va vaqtincha o'z yashash yoki ish joylarini o'zgartirishlari natijasidagi bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishlaridir. Tabiiyki aholi migratsiyasi qator omillar ta'sirida vujudga keladi. Bu omillarni shartli ravishda iqtisodiy, DEMOGRAFIYA, siyosiy, ijtimoiy va ekologik omillarga bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Maxsus, tanlama tadqiqotlar, registrlar, aholini joriy xisobga olish.**

Aholini o'rganishda tadqiqot usullarini tanlash va ulardan samarali foydalanish, ta'lim oluvchi ishining samaradorligini oshiradi. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda tadqiqot usullari dialektik usullarning tarkibiy qismi hisoblanib, ta'lim-tarbiya o'qitish jarayonlaridagi metodik usullardan birmuncha farq qiladi. Biroq, mavjud tajribalarni o'rganish va umumlashtirish, kuzatish, ekspedisiya, anketa so'rovleri asosida suhbat, eksperiment va tajriba usullaridan geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda ham foydalaniladi. Masalan, tadqiqot qilinayotgan ob'ekt haqidagi axborot va xizmatlarni o'rganib chiqish usuliga har qanday tadqiqotda zaruriyat tug'iladi yoki eksperiment va tajriba usuli bugungi kunda iqtisodiy va geografik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Chunki, iqtisodiyotda biror yangilik yoki modelni to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga tadbiq etish mumkin emas, ya'ni, agar u tajribada sinalmagan bo'lsa, sohada shunday qaltisliklarni keltirib chiqaradiki, natijada bu qaltisliklar iqtisodiyotning biror tarmog'ini yoki butun iqtisodiyotning izdan chiqishiga olib keladi. Shuningdek, «Aholi geografiyasi va demografiyasi» nomli kursning ham xususiy metodologiyasi mavjud bo'lib, bu ishlab chiqarishning rivojlanishi, yuksalishida muhim vazifa bajaruvchi inson omilidan unumli foydalanishga asoslanadi. «Aholi geografiyasi va demografiyasi» nomli kursning tadqiqot usullari quyidagilar: Geografik taqqoslash usuli; Tarixiy qiyoslash usuli; Iqtisodiy-matematik usul; Statistik va ko'p o'lchamli statistik usul; Qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli; Me'yoriy-balans hisobi usuli; Kartografik tadqiqot usuli; Sotsiologik so'rovlar o'tkazish usuli; Omillarni tahlil qilish usuli; Iqtisodiy prognoz usuli.

Madomiki, aholi ijtimoiy ishlab chiqarishni harakatga keltiruvchi bosh kuch va sub'ekti ekan, aholi haqida to'la va keng qamrovli ma'lumotga ega bo'lmasdan turib, dunyo mamlakatlari va mintaqalarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini samarali amalga oshirib bo'lmaydi. Aholining soni, tarkibi, taqsimlanishi, mehnat resurslari va boshqa ma'lumotlarni asosan aholini ro'yxatga olish asosida ega bo'linadi. Aholining tabiiy va mexanik o'sishini esa, muntazam va aniq hisobga olib borish yo'li bilan aniqlanadi. Binobarin, aholi sonini aniq hisobga olishda aholi ro'yxatini o'tkazish juda katta ahamiyatga ega.

Aholi ro'yxati bu mamlakat yoki uning biror hududida ma'lum vaqtida yashovchi aholi bilan bog'liq ma'lumotlar to'plami bo'lib, unda DEMOGRAFIYA va aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ma'lumotlar tahlili va bahosi aks ettiriladi. Aholi ro'yxatida quyidagi masalalar o'rganiladi:--mamlakat hududidagi aholi soni va joylashuvi, shahar va qishloq aholisi, aholi migratsiyasi;--aholining milliy tarkibi, ona tili va muloqat tili, fuqaroligi;--aholining ma'lumoti, qishloq xo'jaligi va sanoat yoki xizmat ko'rsatish tizimlarida bandligi, daromadlari;--oilalarning kompleks va ijtimoiy tavsifiga ko'rani va soni;--tug'ilish;--aholining yashash sharoitlari va b.

Aholi statistikasining asosiy manbasi – joriy hisob (dalolatnomalar yozuvlari va kelish va ketish talonlari) va tanlama kuzatuvlar hisoblanadi.

DEMOGRAFIYA jarayonlarning joriy hisobi – tug'ilganlar, o'lganlar, kelganlar, ketganlar, qayd etilgan nikohlar va ajrimlarning joriy hisobini yuritish hisoblanadi.

Aholi tabiiy harakati va migratsiyasi bo'yicha statistik ma'lumotlar oylik davriylikda yig'iladi.

Dastlabki ma'lumotlar tizimli ravishda choraklik davriylikda hisoblanadi. Hisoblangan natijalar kuzatiladi va statistik jarayonlarda hisobga olinadi.

Aniqlik va ishonchlilik parametrlari aholi sonini yillik va choraklik davriylikda hisoblashda qo'llaniladi.

### **Aholini xisobga olish, turlari, aholi ro'yxati, rivojlangan, rivojlanayotgan xududlarda aholi sonini ro'yxatga olish.**

Malum hududda (ayrim bir rayon, mamlakat, butun er sharida) yashovchi aholi haqida fikr yuritish, uni birorta fan nuqtai nazardan analiz qilish uchun uning soni, tarkibi, hududiy taqsimlanishi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Bunday ma'lumotlar aholini ro'yxatga olish yoki har yili uning tabiiy va mexanik o'sishini aniq hisobga olib borish yo'li bilan to'planadi. Ba'zi mamlakatlar, masalan, Xitoyda, Misrda, Eronda, shuningdek Rim imperiyasida eramizdan bir necha asr oldin aholi hisobga olingan. Ammo u paydag'i aholi hisobini hozirgi zamondan aholi ro'yxatini bilan taqqoslab

bo'lmaydi. U davrdagi hisoblar ma'lum bir maqsad, masalan, soliq to'lash lozim bo'lgan kishilar yoki askarlikka layoqatli bo'lgan kishilar sonini aniqlash uchungina zarur bo'lgan. Shunda ham erkaklar hisobga olingan. Bunday ro'yxatlardan to'liq DEMOGRAFIYA ma'lumotlar olib bo'lmaydi, albatta.

**Aholi ro'yxatlari** – Mamlakat yoki muayyan hududda ma'lum vaqt yoki davrda yashayotgan aholining DEMOGRAFIYA, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarining jarayoni to'plami. Ba'zan aholi ro'yxati tushunchasiga, shuningdek ushbu ma'lumotlarni yig'ish, ishslash va nashr etishni ham qo'shadilar. Aholi ro'yxatlari ilmiy talablarga hamda amaliyot ehtiyojlariga javob berish, aholi soni, tarkibi va joylashishi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish maqsadida o'tkaziladi. Aholi ro'yxatlari o'tkazilganda uyma-uy yurib, har bir yashovchi haqida ma'lumot yig'iladi.

Aholi ro'yxatlarini o'tkazish bo'yicha bir qancha ilmiy tamoyillar mavjud. Ularning ichida jami voqe va hodisalarni qamrab olish tamoyili eng muhimi hisoblanib, ro'yxat o'tkazilayotganda muayyan joydagi jami aholi qamrab olinishi shart. Faqat shundagina aholi ro'yxatlari o'tkazilayotgan hududdagi DEMOGRAFIYA jarayonlar to'g'risida to'laqonli ma'lumot olish mumkin. Aholi ro'yxatiga demografiya belgilari (jinsi, yoshi, oilaviy holati), iqtisodiy belgilari (mashg'uloti, iqtisodiy faoliyat sohasi yoki turi), ma'lumoti (savodliligi, mакtabga borishi), etnik alomatlari (millati, tili, ba'zan dini) va hokazo ma'lumotlar olinadi. Ayrim aholi guruxlari uchun nikohga kirgan oy-kuni, tug'ilgan bolalari soni ham olinadi. Aholi ro'yxatida ko'pincha oila (uy sohibaligi), kim oila boshlig'i ekanligi hisobga olinadi. Ushbu ma'lumotlar vaqt va hudud doirasida taqqoslashga yarokli bo'lishligi uchun, jami aholiga bir xil mazmundagi savollar takdim qilinishi kerak, ya'ni mamlakat miqyosida aholi ro'yxatlari yagona dastur asosida o'tkazilishi shart. Bunda BMTtomonidan berilgan tavsiyalarga tayaniladi. Aholiga tegishli ma'lumotlar aniq bo'lishligi uchun ularni har bir kishidan shaxsan olinadi. Ro'yxat odamlarning o'z joyida muqim yashab turgan davrida, ya'ni asosan qishda qisqa muddatda, bir necha kun yoki hafta mobaynida o'tkaziladi, lekin barcha ma'lumotlar kritik (jiddiy) lahzasi (odatda ro'yxatga olishning birinchi kuni) da olinadi – shungacha o'lganlar va tug'ilganlar ko'rsatilmaydi. Javoblar ro'yxat varakalariga yagona nusxada yoziladi.

15-17-asrlarda Rossiyada, uning uezdлari va shaharlari haqida "Pissevie knigi" deb nomlangan iqtisodiy statistik daftarlari to'ldirilgan bo'lib, unga aholiga ta'luqli ma'lumotlar bo'lar edi. Ammo bu daftarlarda soliq to'lashi kerak bo'lgan erkaklargina hisobga olib borilar edi. Soliq to'lashdan ozod qilingan zodagonlar, ruhoniyalar kabi ayrim tabaqa vakillari bu daftarlarga kiritilmasdi.

Keyinroq, 18-19-asrlarda Rossiyada o'tkazilgan davlat reviziylari (taftishlari) paytida ham aholi haqida ma'lumotlar yig'ilgan. Rossiyada hammasi bo'lib 10 marta ana shunday reviziya o'tkazilgan edi. Ammo bu tadbirlarni ham haqiqiy aholi ro'yxatlari deb bo'lmas edi.

Aholi ro'yxatlari paytida mamlakat, uning ayrim qismlari har bir aholi manzilgohi aholisi to'g'risida eng aniq va mufassal ma'lumotlar to'planadi. Ayrim ma'lumotlar (masalan, aholining milliy tarkibi, ona tili va hokazo) faqat aholi ro'yxatlari paytidagina to'planadi.

Respublikamiz xududida aholini o'rganishga qadimdan asos solingan. Chunki, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Bobur, Maxmud Qoshqariy, Alisher navoiy kabi allomalarimiz asarlarida aholi masalalariga e'tibor berilgan. 1926 yilda respublikada aholi ro'yxati o'tkazilishi aholini chuqurroq o'rganishga dastlabki ilmiy qadam bo'ldi.

19-asrning o'rtalariga kelib Yevropa mamlakatlarida maxsus statistik tashkilotlar barpo qilinganligi Aholi ro'yxatlari ni sifatli o'tkazishning muhim omili bo'ldi. Dunyo mamlakatlarida 1870–79 yillarda 48 ta, 1880–89 yillarda 54 ta, 1890–99 yillarda 57 ta, 20-asrning dastlabki o'n yilligida 74 ta Aholi ro'yxati o'tkazildi. Aholi ro'yxati 20-asrning boshida yer yuzi jami aholisining 64 % ni qamrab oldi. Ikkinci jahon urushidan keyin Aholi ro'yxatlari o'tkazish yana ham keng tus oldi. Aholi ro'yxatlari 1945–54 yillarda 168 mamlakatda, 1969–74 yillarda 179 mamlakatda o'tkazildi. Hozirgi vaqtida aholi ro'yxatlari dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida o'tkazilmoqsa.

Iqtisodiy jihatdan qoloq hamda Aholi ro'yxatlari ni o'tkazish imkoniyatlariga ega bo'lмаган mamlakatlar istisno hisoblanadi. Sobiq Ittifoqsa 1920, 1923, 1926, 1937, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989-yillarda aholi ro'yxatlari o'tkazilgan<sup>11</sup>.

Dunyodagi barcha davlatlar qatori O'zbekistonda ham aholini ro'yxatga olish o'z tarixiga ega. Dastlabki aholi ro'yhati VIII asrda Sug'diana davlati davrida o'tkazilgan. Mukammal aholi ro'yxati esa 1897, 1926, 1939, 1959, 1979, 1989 yillarda o'tkazilgan.

Dunyo mamlakatlari bo'yicha o'tkazilgan aholi ro'yxatlari ma'lumoti Birlashgan Millatlar

<sup>11</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent 2000-yil

Tashkilotining (BMT) DEMOGRAFIYA bo'lmida to'planadi va tahlil etilib, yillik DEMOGRAFIYA to'plam nashr qilinadi hamda tarqatiladi. Ammo, bu to'plamdag'i materiallarning ayrim qismi taxminiy hisoblarga asoslangandir. Chunki, shu paytgacha butun yer sharida bir vaqtning o'zida aholi ro'yxati o'tkazilgan emas, bu ishni amalga oshirish ancha murakkab. Turli mamlakatlarda aholi ro'yxatlari turli davrlarda, har xil dasturlar asosida o'tkaziladi. Bu omillar dunyo aholisini aniq hisoblash va uni tahlil qilish ishini ancha qiyinlashtiradi.

### **Aholining kategoriyalari: doimiy, vaqtincha mavjud aholi.**

Aholi kategoriyalari – ma'lum aholi maskanida yashovchi va shu maskan bilan bog'liq aholi guruhining umumiyligini xususiyatlari tushiniladi.

Statistikada aholini uch kategoriyaga bo'lib o'rganadi; doimiy, mavjud va yuridik (ro'yxatdan o'tgan) aholi.

**Doimiy aholi** – ma'lum hududning doimiy yashovchi asosiy aholisi hisoblanadi. Doimiy aholi bo'lish uchun har bir davlatning o'z qonunlari bor. Masalan, Rossiyada doimiy aholi bo'lishi uchun 1 yil Rossiyada yashash lozim. Rossiyaga 1 yil va undan ko'p muddatga o'qishga, xizmatga kelgan aholi ham doimiy aholi hisoblanadi. SHuningdek, Rossiyada 1 yildan ko'p yashagan, shu joyda ro'yxatda turgan va boshqa boror joyi bo'lmagan shaxslar doimiy aholi hisoblanadi (V.I.Medkov. Demografiya. M.:2004, 48 bet)

**Mavjud aholi** – aholi ro'yxati o'tkazilgan davrda, ushbu aholi maskanida ro'yxatdan o'tgan yoki o'tmaganligidan qat'iy nazar shu yerda yashovchi aholi guruhidir.

Mavjud aholining doimiy aholi guruhiga kirmaydigan qismi bo'lib, bu guruh **vaqtincha yashovchilar** (vaqtincha kelganlar - VK) deyiladi.

Demografiya asoslari tug'ilishni alohida, aholi takror barpo bo'lishining DEMOGRAFIYA zamini sifatida o'rganadi, unga ta'sir etuvchi barcha ijtimoiy – iqtisodiy va tabiiy omillarni tahlil etadi. SHuningdek, o'lim jarayoni ham aholi takror barpo bo'lishining asosiy elementi sifatida demografiya asoslari fanining e'tiborida turadi. Aholining takror barpo bo'lishida birinchi navbatda oila tashkil topishi, ya'ni shakllanishi ahamiyatlidir. Chunki dunyoda tug'ilayotgan insonlarning aksariyati oilada, oila muhitida dunyoga keladi, shaxs sifatida shakllanib o'zining DEMOGRAFIYA faoliyatini (oila qurish, farzandlar ko'rish) boshlaydi.

### **Dunyo aholisi dinamikasi, moxiyati va tuchuncha.**

Eramizning boshida yer shari aholisining soni 200-250 mln. kishi atrofida edi. Aholining asosiy qismi Rim imperiyasida, Xitoyda va Qindistonda joylashgan. Ushbu soqaga ta'lluqli adabiyotlarda ko'rsatilishicha, planetamiz aholisi 300 mln. atrofida bo'lган va uning asosiy qismi Osiyoda yashagan. Agar dastlabki 500 yilda (1000-1500 yillarda) yer yuzi aholisi 135 millionga ko'paygan bo'lsa, 1500-1750 yillarda yoki 250 yilda esa bu ko'rsatkich 288 millionni tashkil qildi, ya'ni Aholining o'sishi 2 marta tezlashdi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Aholining o'sishi yanada tezlashdi. Yigirmanchi asrdan boshlab yer shari aholisi qar yili I foizga ko'paya boshladi.

Dunyo aholisining 1000 yildan 2000 yilgacha bo'lган o'sishiga nazar tashlasak, aholi eng tez ko'paygan davr XX asrdir. Agar yer shari aholisining 1 milliardga yetishi uchun salkam 850 yil kerak bo'lган bo'lsa, 2 milliardga yetishi uchun esa 85 yil; 3 milliardga yetishi uchun 25 yil, 4 milliardga o'tishi uchun-15 yil; 5 milliardga o'tishi uchun -20 yil va 6 milliardga o'tishi uchun -15 yil vaqt kerak bo'ldi (jadval).

### **Dunyo aholisining o'sishi (mln kishi qisobida)<sup>1</sup>.**

Sana (yillar)	Dunyo aholisi	Sana	Dunyo aholisi
Eramizdan oldingi 400 yil	153	1900	1634
0	252	1910	1755
Eramizning 400 yili	205	1920	1811
800	224	1930	2070
1000	305	1940	2295
1200	400	1950	2527

<sup>1</sup> БМТ башорати жадвал Н.В.Алисов, Б.С.Хорев. Экологическая и социальная география мира (М., 2000 г с-92); Демографический энциклопедический словарь (М., 1985 г с 72) Народо-населения мира 1998 г. фонд ООН в области народо населения.



№	Davlat yoki nomustaqlıq hudud	Aholi soni	Sana	Dunyo aholisi tarkibida tutgan ulushi foizda	Manba
1	<a href="#">Китай</a>	1 402 079 000	16 марта 2020	18.03%	Rasmiy hisoblagich
2	<a href="#">Индия</a>	1 369 327 000	16 марта 2020	17.61%	Rasmiy hisoblagich
3	<a href="#">США<sup>[4]</sup></a>	331 427 186	4 июня 2019	4.26%	BMT ma'lumoti
4	<a href="#">Индонезия</a>	266 911 900	1 июля 2019	3.43%	BMT ma'lumoti
5	<a href="#">Пакистан</a>	217 163 586	16 марта 2020	2.79%	Rasmiy hisoblagich
6	<a href="#">Бразилия</a>	211 245 835	16 марта 2020	2.72%	Rasmiy hisoblagich
7	<a href="#">Нигерия</a>	206 136 616	16 марта 2020	2.65%	Rasmiy hisoblagich
8	<a href="#">Бангладеш</a>	170 269 829	16 марта 2020	2.19%	Rasmiy hisoblagich
9	<a href="#">Россия<sup>[11]</sup></a>	146 745 098	1 января 2020	1.89%	BMT ma'lumoti
10	<a href="#">Мексика</a>	126 577 691	1 июля 2019	1.63%	BMT ma'lumoti
41	<a href="#">Узбекистан</a>	34 055 874	16 марта 2020	0.44%	Rasmiy hisoblagich

Dunyo aholisining soni 2030-yilda 8,5 milliard kishi, 2050-yilda 9,7 milliard kishi, 2100-yilda esa 11,2 milliard kishiga yetadi, deb [xabar beradi](#) “UzDaily.uz” BMT Kotibiyatining iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha bo‘limi hisobotiga tayanib. Hisobotda qayd etilishicha, Yer sayyorasi aholisining soni o‘sishda davom etmoqda. Aholi soni ortishining deyarli yarmi Afrika mamlakatlariga to‘g‘ri keladi. Yaqin o‘n yillar ichida aynan Afrika va Osiyo davlatlari aholisida sezilarli o‘sish qayd etiladi. Shuningdek, Hindiston davlatining aholi soni bo‘yicha Xitoyni quvib o‘tishi kutilmoqda. Hisobot ma'lumotlariga qaraganda, dunyo aholisi soni 2015-yilda 7,3 milliardga yetgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilidan bir millionga ortiqdir.

**Aholi soni dinamikasini ifodalovchi asosiy, mutlaq va nisbiy ko‘rsatgichlar.** Dunyo axolisining o‘sish dinamikasiga nazar tashlasak, uning sar’ati borgan sari tezlashayotganligini ko‘rish mumkin. Odam paydo bo‘lgan paytlarda uning o‘sish sur’ati past bo‘lgan. Olimlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, ming yilda aholi 2 foizga ko‘paygan. Vaqt o‘tishi bilan axolining o‘sish sur’atlari tezlashib borgan. Eramizning boshlarida er shari aholisi 300 mln kishi bo‘lan bo‘lsa, 1650 yilga kelganda bu raqam 2 barobarga ko‘paygan.

XIX-Asrning o‘rtalarida er shari aholisi 1 mlrd kishiga etdi. Axolining ikkinchi mlrd kishining qo‘silishi uchun 80 yil, uchinchi mlrd kishining qo‘silishi uchun 30 yil, to‘rtinchi mlrd kishining qo‘silishi uchun esa 15 yil kifoyadir. Bu holat dunyo axolisi o‘sish sur’atlarini 1976 yilga qadar juda yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Biroq Ining barcha qismlarida bu ko‘rsatkichlар bir xil bo‘lman. Osiyo va Lotin Amerikasida o‘sish darajasi hozirgi kunga qadar yuqori sur’atlarda saqlanib qolmoqda. Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida esa axolining o‘sish sur’atini anchagina pastlab qolganini kuzatish mumkin. Axolining o‘sish sur’atlarini dunyoning turli regionlarida turlicha bo‘lishiga har xil sabablar ta’sir ko‘rsatadi. Ular orasida sog‘likni saqlash tizimi, qishloq xo‘jaligini rivojlanishi, oziq-ovqat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarning roli alohida ahamiyatga ega.

Dunyo axolisining madaniy saviyasini ortib borishi bilan o‘z-o‘zidan tabiiy ko‘payish jarayoni ham pastlab bormoqda. Shunday qilib, dunyo axolisining o‘sish dinamikasi ko‘plab va xilma xil omillar ta’sirida bo‘ladi. Keyingi 20-30 yil ichidagi o‘sish esa, ko‘proq tabiiy o‘sishdagi hududiy farqlar bilan bog‘liq. Ana shu davrga xos bo‘lgan “demografik” ta’sirini ham aniq ko‘rish mumkin. Xo‘sh keljakda dunyo axolisining o‘sishi qanday bo‘ladi? Demograf olimlar fikricha, hozirgi davr axolining maksimal o‘sish davridir. Hozirgi kunda oilada tug‘ilishni tartibga solib turiladigan mamlakatlarda planetamiz aholisining 30 % yashamoqda. Keljakda dunyoning boshqa qismlarida ham aholi bilim va madaniyat darajasining oshib borishi bilan tug‘ilish ham kamaya boradi.

Axolining territorial jylanishi - er yuzining kishilar tomonidan o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan juda uzoq tarixiy arayonning natijasidir. Yer sharining turli qismlarida, turli mamlakatlarda axolining territorial jolanishi va zichligi tarixiy sotsial-iqtisodiy va tabiiy faktorlar ta'sirida vujudga keladi. Bu asosiy faktor dunyoning turli qismlarida ham territorial va ham vaqt nqtai nazardan bir xil emasligi va hech qachon bunday bo'lmashigi o'z-o'zidan ma'lum. Yer sharining axolining territorial jylanishi va zichligida bir qancha katta farqlar bor, ular uzoq tarixiy davrda va xilma-xil faktorlar ta'sirida vujudga keladi. Bulardan eng asosiyalar tarixiy, tabiiy va boshqa faktorlardir. Axoli zichligiga xo'jalikning ta'siri kata, albatta. Jumladan, buni yuqorida qisqacha obzordan ko'rish mumkin. Axoli qancha zich bo'lsa, xo'jalik shuncha taraqqiy etgan degan xato fikrni olg'a surgan edilar. Bu fikr butunlay noto'g'ri ekanligini shundan bilsa ham bo'ladiki, eng rivojlangan AQShda axoli rivojlanayotgan ko'pgina qoloq mamlakatlardagidan ko'ra siyrak.

Shunday qilib, olimlarning axoli zichligining ortib borishi, jamiyat taraqqiyotiga xal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi degan fikrlari butunlay asosssizdir. Aksincha axolining takror barpo qilinishi axoli sonining ko'payib borishini ijtimoiy taraqqiyotning muhim shart-sharoiti deb hisoblaydi. Axoli sonining ko'paya borishi ishlab chiqarishni kengaytirish, uni taraqqiyo ettirish uchun muhim ahamiyatga ega. Axoli soni haddan tashqari kam bo'lganda ijtimoiy ishlab chiqarishning taraqqiyoti susayishi rayonlarda va davlatlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ketishi mumkin.

### **Dunyo mamlakatlarini aholi soni bo'yicha klassifikatsiyalash.**

Dunyo aholisining tabiiy o'sishi regionlar bo`yicha:

Shimoliy Amerikada 1000/5 kishi.

Lotin Amerikasida 1000/ 19 kishi.

Horijiy Yevropada 1000/ 2 kishi.

Horijiy Osiyoda 1000/ 18 kishi.

MDH da 1000/7 kishi.

Afrikada 1000/ 30 kishi.

Avstraliya va Okeaniyada 1000/ 12 kishi.

Yer shari aholisining joylashishi. Yer kurrasida aholi juda notekis joylashgan. Butun aholining 70 % iga yaqini quruqlikning 7 % ida yashaydi. Butun quruqlikning ( $149 \text{ mln km}^2$ ) 15 % ida esa ( $22,4 \text{ mln km}^2$ ) aholi doimiy yashamaydi. Bunday joylarga: Grenlandiya oroli (orolning janubiy sohillari bundan mustasno), Kanada-Arktika arxipelagining shimoli, Sahroi Kabir, Rub-el-Xoli, Katta Qum va Viktoriya kabi qumli cho'l massivlarining ayrim qismlari, Antarktida materigi va baland tog`larning yuqori qismlari kiradi.

### **Jahonda aholi soni eng kam bo'lgan mamlakatlar:**

Vatikan 1000 kishi

Tuvalu 10 000 kishi

Nauru 11 000 kishi (2007 y).

Ma'lumki, kishilar avvalo hayot kechirishi uchun qulay bo'lgan (ayniqsa iqlimi) va antropogen landshaftlarni bunyod etganlar. Aholi joylashishiga qadim zamonalardan aholining qishloq xo'jaligi bilan bandligi kuchli ta'sir qo'rsatgan va ko'rsatadi.

Hozirda yer sharida dunyo aholisi zich tarqalgan 3 ta arealni ajratish mumkin:

1. Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo. Bu yerdarda hozirgi vaqtida aholi zichligi  $1\text{km}^2$  ga 200 kishidan ortadi. Ayrim joylarda esa  $1\text{km}^2$  joyga 1500-2000 kishi va undan ham yuqori. Masalan: Bangladeshda aholi zichligi dunyo bo'yicha eng yuqori  $1\text{km}^2$ -1035kishi (2007 y). Aholi zichligiga bu erda kishilarning eng qadimdan yashashi, ko'p mehnat talab qiluvchi intensiv obikor dehqonchilikning tarixiy tarkib topganligi va aholining tabiiy ko'payishi hususiyatlari sabab bo'lган.

2. Evropa davlatlari (Shimoliy Yevropa bundan mustasno). Bu arealda aholining o'rtacha zichligi  $1\text{km}^2$  – 200-400 kishini, ayrim hududlarda 1000-1500 kishiga etadi. Masalan: Rur havzasida. Bu arealda aholi to`planishiga Yevropaning kishilik jamiyati tarixida sivilizasiya markazi bo'lganligi, sanoat taraqqiyotining boshlanishi, sanoat inqilobining vatani bo'lganligi va sanoatning yuksak darajada rivojlanganligi sabab bo'lgan.

3. AQSH ning shimoli-sharqiy qismi. Bu areal yosh, yangi areal bo`lib, asosan Yangi dunyo kashf etilgandan so`ng XIX-XX asrda Yevropa aholisining "buyuk ko'chishi" natijasidava Afrika negrlarining keltirilishi bilan AQSH ning jahon xo`jaligida 2-markaz sifatida paydo bo`lishi oqibatida paydo bo'lgan.

Jahonda aholi zichligi eng yuqori va eng kam bo`lgan davlatlar: (1 km<sup>2</sup> ga kishi hisobida 2007-yil)<sup>13</sup>

- |                          |                             |
|--------------------------|-----------------------------|
| 1. Monako – 33104        | 1. G`arbiy Sahroi Kabir – 2 |
| 2. Xitoy Makaosi – 20346 | 2. Mongoliya – 2            |
| 3. Singapur – 6785       | 3. Gviana – 2               |
| 4. Malta – 1288          | 4. Namibiya – 3             |
| 5. Baxrayn – 1098        | 5. Botswana – 3             |
| 6. Bangladesh – 1035     | 6. Kanada – 3               |
| 7. Maldiv Resp – 1020    | 7. Avstraliya – 3.          |

Shunday qilib, aholi joylashishiga tabiiy sharoitlar, iqtisodiy sharoitlar, aholining kelib o`rnashgn vaqtin, xo`jalik tipi (dehqonchilikdami, sanoatdami, chorvachilikdami), tashqi va ichki migrasiyalarning intensivligi kabilar hal qiluvchi ta`sir ko`rsatadi. Ayni paytda Afrika aholisining joylashishiga tarixiy sharoit, ya`ni qul savdosi va mustamlakachilik tizimining ta`siri kuchli bo`lgan. Har bir mamlakatning rivojlanishi uchun aholining muayyan soni va zichligi bo`lishi kerak. Aholining soniga va joylashishiga aholining tabiiy ko`payishi bilan birga aholining “mexanik ko`payishi” ya`ni migrasiyalar ham katta ta`sir ko`rsatadi. Migrasiyaning asosiy sababi iqtisodiy sabab bo`lib, undan tashqari: siyosiy, diniy, milliy (turklar bilan o`zbeklar), ekologik (Orol bo`yi, Rur havzasi) sabablari ham mavjud.

Ichki migrasiyalar – bir mamlakat doirasida aholining qayta taqsimlanishi bo`lib, unda umumiy aholi soniga ta`sir etmaydi.

Tashqi migrasiyalar – mamlakat va qit`alar aholisi soniga ta`sir etadi. Immigrasiya – emmigrasiyadan ortiq bo`lganda mamlakat aholisi mexanik ko`payadi. Emmigrasiya ortganda esa aholi mexanik kamayadi. XIXasr boshlaridan II-jahon urushiga qadar Yevropa asosiy emigrasiya markaziga aylandi va 60 mln aholi ko`chib ketdi, 1-navbatda Shimoliy Amerikaga, Braziliyaga, Argentina, JAR, Avstraliya va Yangi Zelandiyaga. II-jahon urushidan so`ng emmigrasiyaning 2-markazi – Osiyo vujudga keldi. Asosan Xitoy, Hindiston, Bangladesh, Yaponiyadan Horijiy Yevropa davlatlariga; JAR, AQSH, Braziliya, Indoneziya, Singapurga migrasiya kuchaydi.

#### **Yer shari mintaqalari aholisi soni dinamikasining geografik xususiyatlari.**

Aholining territorial joylashish formalari - bu aholining turli aholi punktlarida joylashishigina emas, balki uning butun territoriya bo`ylab tarqalishi, territoriyani o`zlashtirish jarayoni demakdir. Mana shu muhim jarayon ijtimoiy takror ishlab chiqarishning territorial formalari bilan belgilanadi. Bunda aholining territorial joylashishigina emas, balki aholining strukturasi ham ko`p jihatdan ishlab chiqarish xarakteriga bog`liqdir.

Aholi geografiyasining yana bir asosiy tushunchasi, aholini funktional guruhlarga bo`lish ham ishlab chiqarish negizida amalga oshiriladi.

1-guruh: sanoat, transport, va qishloq xo`jaligida ishlovchi aholi.

2-guruh: xizmat doirasi sohasida ishlovchi aholi. (savdo, maorif, meditsina, kom.xqjaligi, shahar transporti)

3-guruh: ishlamaydiganlar (bolalar, keksalar, uy bekalari).

Aholi geografiyasining muhim qonuniyatlaridan biri shundaki, territoriyaning ishlab chiqarish kompleksi qanchalik to`la va tugallangan bo`lsa, mehnat resurslaridan shunchalik to`la foydalaniladi, aksincha, ishlab chiqarish bir tomonlama (faqat og`ir va engil sanoat) mehnat resurslaridan foydalanishda katta kamchiliklar sodir bo`lishi mumkin.

Aholining migratsiyasida ham bir qancha qonuniyatlar aniqlangan.

Tabiiy sharoit va ishlab chiqarish ixtisosligining mosligi, qishloqdan shaharga ko`chish va hokazo.

Aholi geografiyasi quyidagi yo`nalishlarga bo`linadi:

Aholining tarkibi va uning qayta barpo qilinishidagi geografik farqlar va bu farqlarning sababini o`rganish. (aholi geografiyasining umumiy masalalari)

Mehnat resurslari va ulardan foydalanishdagi geografik farqlarni o`rganish.

Aholining territorial taqsimlanishi va uning harakati (migratsiyasi)ni o`rganish.

Aholi punktlari va ularning territorial sistemalarini o`rganish.

Aholining madaniyati va turmush sharoitlaridagi geografik farqlarni va ularning sabablarini o`rganish.

Tarixiy aholi geografiyasi. Bu yo`nalish o`tgan tarixiy davrlar aholi geografiyasini o`rganadi va

<sup>13</sup> . “Атлас мира” Страны мира в картах и цифрах. М. “Аст-Пресс” 2000 г.

tarixiy geografiyaning bir qismi hisoblanadi.  
Aholini kartaga tushirish.

### **Aholi geografiyasining oldida bir qancha vazifalar turibdi.**

Birinchidan: Mamlakatimiz aholisi va chet mamlakatlardan aholisi haqida, ularning soni va o'sishi, territorial joylashuvi, migratsiyasi, halqlar geografiyasi, aholi punktlarining xilma-xilligi, turli mamlakatlarda sharoitga qarab shaharlarning rivojalanish muammolari va boshqa ma'lumotlar bilan keng kitobxonlar ommasini va shuningdek, bevosita amaliy maqsadlar uchun qiziquvchi tashkilotlarni ta'minlaydi.

Ikkinchidan: Aholi geografiyasining nazariy masalalari ustida ishlashni davom ettirish.

Uchinchidan: Aholi geografiyasining bevosita amaliy vazifalarini hal qilishga qaratilgan tadqiqot ishlarini kuchaytirish.

### **Foydalilaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati:**

#### **Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar**

- 1.Анохин А.А., Житин Д.В., География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013 – 307 с.
- 2.Абдураҳмонов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик– Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
- 3.Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С., Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўйлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
- 4.Копылов В.А. география населения. Учебное пособие.- М.: 1999. – 124 с.

#### **Qo'shimcha darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

- 5.Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va ololyanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Т.: O'zbekiston 2017.
- 6.Ата-Мирзаев О.Б, Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. Т., 2002.
- 7.Ата-Мирзаев О.Б.Народонаселение Узбекистана:-Т., 2009.
- 8.Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. Т., 2002.
- 9.Bo'rieva M.R., Tojieva Z.N. Aholi geografiyasi.- Т., 2000.
- 10.Bo'rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari.-Т.: 2008.
- 11.Максакова Л.П. Миграция населения: проблемы регулирования. Т., 2001.
- 12.Ubaydullaeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Umarova N.O. O'zbekiston DEMOGRAFIYA jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o'quv qo'llanma). Т., 2006.
- 13.Soliev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi).-Т.: 2009.
- 14.2011 World population Data Sheet of the population Reference Bureau.
- 15.Human geography: Landscapes of human activities. Sixth edition. Boston, 1999.

#### **Elktron manbalar:**

<http://www.undp.org/popin/popin.html>.

<http://www.demography.narod.ru>

<http://stat.uz>.

<http://ziyo.net>

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

- 1.Aholi to'g'risida malumotlar manbalari nimalar qaysilar?
- 2.Birlamchi va ikkilamchi malumot manbalari nimalar?
- 3.Tug'ilish qanday jarayon?
- 4.O'lim qanday jarayon?,
- 5.Nikoh qanday jarayon?
- 6.Ajralish va uni keltiruvchi sabablar qaysilar?
- 7.Aholini ro'yxati qanday amalga oshiriladi?
- 8.Aholining qanday kategoriyalari mavjud?
- 9.Dunyo aholisi dinamikasi deganda nimani tushunasiz?
- 10.Dunyo aholisi qaysi hududlarda yuqori suratlarda rivojlanmoqda?
- 11.Aholi soni dinamikasi bo'yicha davlatlarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?

## **Mavzu bo'yicha trst**

### **1. Axoli deganda nimani tushunasiz?**

- \*A) axoli – kishilarning tarixiy etnik birliklaridir.
- B) axoli – bu ma'lum xududda (butun mamlakatlar, shaxarlar va x.k.)yashayotgan kishilar tuplamidir
- C) axoli – bu ishlab chikaruvchi kuchlarni xarakatga keltiruvchi xamda yaratuvchisidir.
- D) axoli – bu ma'lum xududda (butun yer shari, uning kismlari- kit'alar,mamlakatlar, shaxarlar va x.k.) yashayotgan kishilar guruxidir.
- E) axoli- bu biosotsial kategoriyadir.

### **2. "Geronto demografiya" fani o'rganish ob'ekti va predmeti nimalardan iborat ?**

- \*A) Aholining keksayishi, uning shakllanishi, turlari, omillarini va demografik, ijtimoiy iqtisodiy oqibatlarini o'rganadi.
- B) Insoniyat stilivizatsiyasini o'rganadi.
- C) Nogironlik sabablarini tadqiq etadi.
- D) CHaqaloqlar o'limini o'rganadi.
- E) Oilaning turmush tarzini o'rganadi.

### **3. Odam geografiyasi yo'nalishining asoschilari kimlar?**

- A) V.P.Semyonov-Tyanshanskiy va M.V.Lomonosov
- \*B) P.Vidalъ de Lya Blash va J.Bryun
- C) T.Mal'itus va U.Fogt
- D) V.Gegel va T.Mal'itusE) A.I.Voeykov va N.N.Baranskiy

### **4. Dunyo axolisining necha foizi Yevropeoid irqiga mansub?**

- A) 38%**
- \*V) 47,0%
- S) 45,6%
- D) 37,%
- E) 46,%

### **5. "Paleo demografiya" fani qanday qonuniyatlarini o'rganadi.**

- A) Aholi migratsiyasi sabablarini
- B) Aholi irqlarini
- C) Aholi til guruqlarini
- D) Etnik xususiyatlarni
- \*E) Kishilik jamiyatida sodir bo'lgan demografik jarayonlarni

# V-semestr

## Ma’ruza 1: Aholi tabiiy harakati. Aholi takror barpo bo’lishi tartibi va geografiyasি.

### Reja:

1. Aholi tabiiy xarakati: tug’ilish, o’lim, tabiiy ko’payish.
2. Reproduktiv yosh va reproduktiv mayl xaqida tushuncha.
3. Tug’ilish va uni ifodalovchi ko’rsatkichlar.
4. Aholi o’limi, uning turlari va yuzaga kelish sababları.
5. Aholi takror barpo bo’lishi xaqida tushuncha va unga ta’sir etuvchi omillar.
6. DEMOGRAFIYA o’tish xaqida tushuncha va uning bosqichlari.
7. Aholi takror barpo bo’lishining zamonaviy tiplari: kengaygan, oddiy va qisqargan aholi takror barpo bo’lishi.
8. Aholi depopulyatsiyasining moxiyati va omillari.

**Tayanch tushunchalar (kalit so’zlar):** aholi tabiiy xarakati, tug’ilish, o’lim, tabiiy ko’payish. tug’ilish geografiyasи, Reproduktiv yosh, reproduktiv mayl, tug’ilishga ta’sir etuvchi omillar, tug’ilishni ifodalovchi ko’rsatkichlar, tug’ilishning umumiy koiffisienti, yig’indi koiffisienti, brutto va netto koeffitsientlari, , O’limning asosiy turlari, go’daklar, bolalar, kattalar o’limi, umumiy, maxsus, standartlashgan o’lim koiffisientlari, endogen, ekzogen kvazioendogen omillar. (**kalit so’zlar:**) aholi takror barpo bo’lishi, DEMOGRAFIYA portlash, DEMOGRAFIYA inqiroz, DEMOGRAFIYA koiffisientlar, kengaygan, oddiy va qisqargan aholi takror barpo bo’lishi, aholi depopulyatsiyasi.

### Aholi tabiiy xarakati: tug’ilish, o’lim, tabiiy ko’payish.

Tug’ilish- DEMOGRAFIYA jarayonlardan biri bo’lib, u ham qator ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy omillar ta’sirida rivojlanadi. Shuniningdek jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit tug’ilish darajasini belgilaydi. Biologik jarayon bo’lmish tug’ilish darajasi ko’pgina ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog’liq. Bularga ayollarning jamiyatdagi mavqeい, bandligi, bolalar o’limi, moddiy shart-sharoit, davlatning DEMOGRAFIYA siyosati, aholining atrkibi va hokazolar kiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ichida aholining yashash sharoiti, aholi tug’ilish darjasida geografik farqlarni yaqqol ifodalaydi.

B.S. Urlanis “qaerda kambag’allik va qashshoqlik bo’lsa, o’sha yerda turmush sharoit, madaniyat past darajad bo’ladi” deb o’z fikrini bildiradi. Haqiqatan aholining turmush sharoiti, madaniyati yuksalgan sayin uning o’rtacha umr ko’rish davri uzayadi. Aholi tarkibida qariyalar miqdori oshadi, topgan daromadlari bolalari ehtiyojlarini qondirish va o’zlarining yaxshi yashashig sarflashadi. Demak aholi madaniy darajasining ko’tarilishi tug’ilish ko’rsatkichining pasayishiga xizmat qiladi desak hato qilmaymiz.

XVIII asr oxirlariga qadar yer yuzining barcha mintaqalarida tug’ilish ko’rsatkichi yuqori bo’lgan XX asrga kelib aksariyat rivojlangan davlatlarda industrlashtirish, urbanizatsiya jarayonlarining jadllashuvi, ayollarning ishlab chiqarishda faolligining avj olishi, fan-ta’lim sohasidagi rivojlanishlar, madniyatning taraqqiy etishi, nikoh qurish yoshining ko’tarilishi natijasida tug’ilish bir müncha pasaydi. XIX asr oxirida Yevropa davlatlarida tug’ilish yuqori, o’lim past bo’lib, aholi takror barpo bo’lishi intensiv holatd bo’lgan bo’lsa XX asrda huddi shu ahvol Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilgan. Yevropada bu vaqtida tug’ilishning pasayishi ahamiyatli tus olgan va hozirgacha bu jarayon davom etmoqda.

Tug’ilishga ta’sir etuvchi omillardan yana biri bu ayollarning jamiyatdagi o’rni. Ayniqsa, ayollarning bilim darajasi va ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishi tug’ilishga, oiladagi farzandlar soniga ta’sir etadi. Oilada faqat farzand tarbiyasi va uy ishlari bilan band bo’lagan ayolga nisbatan ma’lumotli, biron bir sohada ishlaydigan ayolda farzandlar kam bo’ladi. Chunki bu ayollar kechroq turmush quradi, ularning bilim, madniyat darajasi, qiziqishlari ko’p bolalikni inkor etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tug’ilishga ta’siri har doim bir xil kechmaydi. Ba’zi iqtisodiy nochor, qoloq davlatlarda tug’ilish ko’rsatkichi haddan tashqari baland. Masalan, Afrikada 40 % va undan ham yuqorini tashkil etadi. Odatda nochor, qashshoq oilalarda farzandlar ko’p tug’iladi va o’z navbatida o’lim darjasini ham yuqori bo’ladi.

Tug’ilishga ijobjiy ta’sir etuvchi omillardan biri nikoh qurish yoshi hisoblandi. Erta nikoh qurish tug’ilish darajasini oshirsa, aksincha kech nikohga kirish, ajralishning kamayishi, tug’ilish darajasini

ko'tardigan qulay DEMOGRAFIYA vaziyat hisoblanadi. Qator Osiyo davlatlaridagi DEMOGRAFIYA vaziyatni qulay deb baholash mumkin. Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarida yoshlar erta nikohga kiradi. G'arbiy Yevropada esa aksincha. Nikoh qurish jamiyatda avlodlar almashinuvi uchun zamin bo'lib xizmat qilsa, ajralish tug'ilish darjasini sezilarli pasayishiga sabab bo'ladi. Qaerda ajralishlar ko'p bo'lsa, o'sha hududda tug'ilishning pastligini kuzatmiz. Ajralishning oldini olish, tug'ilish darjasini bir me'yorda boshqarish davlat ahamiyatiga ega masala hisoblandi. SHu boisdan DEMOGRAFIYA jaryonlarni nazorat qilish, ba'zi xollarda choralar ko'rish, tug'ilish ko'rsatkichiga ta'sir etish maqsadlarida har bir davlat tomonidan "DEMOGRAFIYA siyosat" yuritiladi. Aholining tabiiy o'sishi past bo'lgan geografik huddlrug' tug'ilishni ko'paytirishga qaratilgan siyosat olib boriladi. Bunda aholi ham moddiy ham ma'navi rag'batlantiriladi, yosh oilalar uchun sharoitlar yaratiladi, yuqorida keltirilgan ajralishlar davlat tomonidan nazoratga olinadi va hokazo. Hozirda bunday tug'ilishni ko'paytirishga qaratilgan siyosat g'arb davlatlarida yurg'izilmoqda. Aksincha tug'ilishni cheklash degan siyostni ilgari surayotgan davlatlar ham mavjudki, bular tabiiy ravishda aholisi tezlik bilan ko'payotganligi sabab shunday siyosat olib borishga majbur. Tug'ilishni cheklash siyosati rivojlanyotgan Osiyo mamlakatlariga xos va mos. Jumladan, aholisining o'sish sur'ati baland bo'lgan Xitoy, Hindiston, Indoneziya kabi davltlrd dunyo aholisining 41.0 foizi yashaydi. Xitoyda erta oila qurish, ikkitadan oshiq farznda o'rish butunlay man etilgan.

Tug'ilishga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri turli geografik hududda bir xil emas. Bu esa uning ko'rsatkichlarining turli joyda xilma-xil bo'lishiga olib keladi. Demak aholi takror barpo bo'lishida, o'sish sur'atining pasayishida yoki ko'tarilishida tug'ilish alohida ahamiyat kasb etadi deyish maqsadga muvofiq.

### **Reproduktiv yosh va reproduktiv mayl xaqida tushuncha.**

Tug'ilish-tirik tug'ilgan bolalarni ifodalovchi biologik jarayon bo'lib, u insonlarning reproduktiv mayl, ya'ni farzand ko'rishga bo'lgan munosabati bilan bog'liqdir. Reproduktiv mayl esa inson yashayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq holda o'zgarib turadi. Natijada inson o'z pushtiligidan, ya'ni bola ko'rishga bo'lgan biologik imkoniyatidan to'la foydalanmaydi. O'zining bolani tarbiyalab voga etkazish uchun zarur bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, farzand ko'rishga harakat qiladi, ya'ni farzandlar tug'ilishini cheklaydi, nazorat etadi.

Tug'ilish darajasi-tug'ilish koffitsientlari yordamida o'rganiladi. Tag'ilishning umumiyligi, maxsus va xususiy koeffitsientlari mavjuddir. Aholi o'rtasida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish orqali reproduktiv kayfiyatni o'rganish xozirgi davrning eng maqbul taxliliga aylanib bormoqda. Aholi o'rtasida utkaziladigan tadqiqotlar aksariyat hollarda ayollar fikrini o'rganish bilan izohlanadi. Ayollarning ma'lumot darajasi ortib borishi bilan bola ko'rish miqdori kamayib boradi. Ayolning ma'lumot darajasining o'sishi bola soni kamayishiga qaratilgan bo'ladi. Bola ko'rish haqidagi ichki istak bilan tashqi ta'sir birligiga mos kelmasligi mumkin. Ko'pchilik ayollar, ayniqsa, musulmon xalqtarining ayollarini bolalari ko'p bo'lishini xohdlaydilar, lekin bolalarga ota-onalik vazifalari, yuklarining ko'p qismi ayollar zimmasiga tushib qolishi ularni bolalar sonini chegaralashga majbur qilmokda. Nima sababdan bolalar ko'p bo'lishining oldini olyapsiz, degan savolga bolalar tarbiyasi bilan shurullanish ayollarning jamoat ishlab chiqarishidan ajrab kolishiga sabab bo'lishi, bolalarni uy-joy bilan ta'minlashning qiyinligi, ayollar sog'lirini yuqotib quyishini sabab qilib ko'rsatmoqdalar.

Reproduktiv kayfiyat shaxsning bola tug'ish yoki tug'maslik to'g'risidagi kechinmalarining yig'indisi hisoblanib, bu so'z mutlaq har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatdir. SHu bilan birga reproduktiv kayfiyat jamiyat, bir guruh shaxslar qarashlarining bir bo'lagi sifatida, ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi.

Tashki ta'sir deganimizda rasman qonunlashtirilmasada, lekin jamiyat o'rtasida ota-onalik bo'lish istagi, jamiyat o'rtasidagi farzandlilarga bo'lgan xurmat-e'tibor, qadrlanish va boshqalar har bir inson ruhiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Reproduktiv kayfiyat shaxs hayotida bir necha bosqichlarda amalga oshadi: bolali bo'lish istagi, bolali bo'lishga qiziqish, bolali bo'lishdan maqsad, bolali bo'lish rejasi, uni amalga oshirish, natija. Reproduktiv kayfiyatning natijasi, albatta, farzand ko'rish bilan emas, balki farzand ko'rishning oldini olish bilan ham yakunlanishi mumkin. Reproduktiv kayfiyatni to'la belgilovchi ma'lumot aholini umumiyligi ruyxatga olishda aniqdanadi. Aksarniyat hollarda ma'lum hududlarda tanlov asosida sotsiologik tadqikot o'tkazish orqali aniqlanadi.<sup>14</sup>

<sup>14</sup> Исокова Т., Хўжақулов Х. Демография статистикаси. Т.: «ЎАЖБНТ» Маркази, 2004, 144 б.

## **Tug'ilish va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar.**

Aholining takror barpo bo'lishi jamiyat davomiyligini ta'minlovchi asosiy jarayon bo'lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir. Inson dunyoga kelib yashaydi, balog'at yoshiga yetib, farzand ko'radi, nasl qoldiradi. Bu uzviy jarayon tufayli jamiyatda avlodlar almashadi, aholi takror va takror barpo bo'laveradi. Aholining takror barpo bo'lishi jamiyatning mayjudligini, aholi sonini o'sib borishini ta'minlovchi asosiy biologik jarayondir. Lekin, u bevosita ijtimoiy-iqtisodiy muqit bilan bog'liq holda sodir bo'ladi. Ba'zan muttaxassislar aholi takror barpo bo'lismi Aholining uch asosiy: tabiiy, xududiy (migratsiya) va sotsial qarakatlari yig'indisi sifatida tahlil etadilarlo

Aholining takror barpo bo'lishida uning tabiiy qarakati, ya'ni tug'ilish va o'lim asosiy omil hisoblanadi. Tug'ilishning yuqori bo'lishi aholi takror barpo bo'lishi jarayonini kuchaytiradi va aholi sonini o'sib borishiga olib keladi. Avlodlarning almashuvi, ularning uzoq yashashi esa o'lim jarayoniga bog'liqdir. O'z navbatida inson xayotida o'limning sodir bo'lishi yuqorida qayd etilganidek, qator endogen va ekzogen omillar, aksariyat qollarda jamiyatdagi sotsial muqit ta'sirida sodir bo'ladi. Inson hamisha uzoq umr ko'rishga intiladi. Qar bir jamiyatda insonning uzoq umr ko'rishi, avlodlar salomatligi uchun ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar yaratiladi. Natijada insonlarning uzoq umr ko'rishiga, o'lim qollarini esa sotsial chora-tadbirldar bilan boshqarishga erishiladi.

Avlodlarni uzoq umr ko'rishi, tashqi muqit bilan uzoq muloqatda bo'lishi uning DEMOGRAFIYA mayliga ham ta'sir ko'rsatadi. Aholi tez sur'at bilan kamayib borishiga ham omil bo'ladi. Natijada avlodlar o'rtasida tug'ilishni, ya'ni nasl qoldirishni boshqarish qollari keng tarqala boshlaydi. Demak, Aholining takror barpo bo'lishi uning tabiiy qarakatiga bog'liq. Aholi tabiiy qarakati esa o'z vaqtida sotsial muqit ta'sirida o'zgarib borardi.

Insoniyatning paydo bo'lishi, jamiyatning rivojlanishi davomida aholi takror barpo bo'lismi boshqarish tizimida katta o'zgarishlar kuzatilgan. Aholining takror barpo bo'lishi, tug'ilish va o'lim jarayonlarini boshqarish orqali ma'lum maqsadga yo'naltiriladi.

Aholining takror barpo bo'lishi, ya'ni avlodlar almashinish jarayoni jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida, davlatlarda, millatlarda o'ziga xos xususiyatga egadir. Ana shu xususiyatlarni aniq bilish uchun aholi takror barpo bo'lismi ifodalovchi maxsus ko'rsatkichlar, ya'ni koeffitsientlardan foydalaniлади.

### **Aholi o'limi, uning turlari va yuzaga kelish sabablari.**

O'lim avlodlar almashinuvidagi asosiy jarayon hisoblanildi. Aholi o'limi turli sabablar ntijasid ro'y beradi. Aholining tabiiy o'sishi hamda kamayishida muhim DEMOGRAFIYA jarayon bo'lib ishtirot etadi. O'limning ro'y berishida asosan endogen va ekzogen omillarni sabab qilib ko'satildi.

Endogen omillar- organizning ichki rivojlanishi, uning shakllanishi va qarishi, insonning yashash faoliyati qobiliyatining pasayishiga sabab bo'ladigan omillardir. Odatda endogen omillar tufayli keksa yoshdagagi aholi ko'proq o'lim topadi. Buni odatt me'yoriy hodisa deb baholashadi. Biroq aholining yosh qatlamid ham endogen sabblar tufayli o'lim hodisasi ro'y beradi. Bularga davosi yo'q irlsiy kasalliklar, nojo'ya voqeа-hodisalar kiradi.

Ekzogen omillar- odamlarda tashqi ta'sir bilan bog'liq paydo bo'ladigan o'limlar bo'lib bu omillar oqibatid aholining turli yoshdagagi kishilari turli vaqtida turli joyda vafot etadilar. Ushbu omillarga ichki yuqumli kasalliklar, kasb kasalliklari, og'ir mehnat va mehnat sharoitlari oqibatida yuzaga kelgan kasalliklar, baxtsiz hodisalar, zahrlanish, narkomaniya, alkogolizm va hokazolar kiradi. Hozirgi zamon sanoati, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, avtomatlashtirish, xalq xo'jaligini ximiyalashtirish natijasida atrof-muhitning, atmosfera havosining buzilishi, oqar suvlarning ifloslanishi, o'lim hodisasining yanada ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

O'lim ko'rsatkicha o'rganilayotgan huddagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasiga, aholining yashash sharoiti va sog'liqni-saqlash tizimining ahvoliga chambarchas bog'liq. Ushbu sohalarning rivojlanganlik darjasini qanchlik baland bo'lsa, o'lim ko'rsatkichi shunchalik past bo'ladi va aksincha. Aksariyat o'lim darjasini yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlarda bularning darjasini past bo'lganligi kuztiladi. Masalan, Afrika davlatlarida dunyo bo'yicha umumiyo o'lim ko'rsatkichi o'ta baland. Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan aholi o'limi 15-20 %, ba'zi joylarda 25 % ga ham yetadi (Nigerda- 24 %). O'lim darjasini baland bo'lgan ikkinchi mintaqqa Yevropa hisoblandi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, taraqqiyotiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiluvchi bu ikkala geografik hudud o'lim hodisasi ko'pligi bilan bir-biriga o'xshaydi. Yevropaning deyarli barcha qismlarida o'lim tug'ilishga nisbatan yuqori. O'limning umumiyo ko'rsatkichi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishi

o'rtasidagi bog'liqlik har doim ham o'zini oqlmaydi. Jumladan, Yevropa iqtisodiy baquvvat bo'lishiga qaramasdan aholi o'rtasida o'lim ko'pligi bilan ajralib turadi. Buni ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit bilan emas, balki aholi yosh tarkibidagi vaziyat bilan baholash maqsadga muvofiq. SHu boisdan fanda aholi o'limining yosh bo'yicha taxlili alohida o'rganildi.

Evropa aholisining umumiyligi o'lim ko'rsatkichi yosh bo'yicha qaralganda bolalar va o'rta yoshdagilar o'rtasida o'lim kam uchraydi, keksa yoshdagilarda aksincha juda baland. Aholi yosh tarkibida keksalar ko'pligini inobatga olsak tabiiy ravishda bu umumiyligi o'lim ko'rsatkichiga ta'sir etishini aniqlaymiz. Bundan tashqari Yevropa aholisi tarkibida ekzogen omillar tufayli sodir bo'ladijan o'lim hodisasi ko'p uchraydi.

Tug'ilish darjasining pastligi, o'limning tug'ilishdn ko'pligi aholining tabiiy kamayishini keltirib chiqardi. Bugungi Yevropa DEMOGRAFIYA vaziyatida aynan shu holat oddiy aholi tkror barpo bo'lishi sodir bo'lmoqda ya'ni aholi tabiiy ravishda kamaymoqda.

Aholi o'limi aholini takror barpo bo'lishining asosiy omillaridan hisoblanadi. Chunki har bir davlat aholisining tabiiy ko'payishi, ijtimoiy DEMOGRAFIYA guruhlarning shakllanishi aholining o'limi bilan uzviy bog'liqdir. O'lim avlodlar almashinuvudagi asosiy jarayon hisoblanildi. Aholi o'limi turli sabablar ntijasid ro'y beradi. Aholining tabiiy o'sishi hamda kamayishida muhim DEMOGRAFIYA jarayon bo'lib ishtirok etadi. O'limning ro'y berishida asosan endogen va ekzogen omillarni sabab qilib ko'satildi.

Endogen omillar- organizning ichki rivojlanishi, uning shakllanishi va qarishi, insonning yashash faoliyatini qobiliyatining pasayishiga sabab bo'ladijan omillardir. Odatda endogen omillar tufayli keksa yoshdagisi aholi ko'proq o'lim topadi. Buni odatt me'yoriy hodisa deb baholashadi. Biroq aholining yosh qatlamiy ham endogen sabblar tufayli o'lim hodisasi ro'y beradi. Bularga davosi yo'q irsiy kasalliklar, nojo'ya voqealardan kiradi.

Ekzogen omillar- odamlarda tashqi ta'sir bilan bog'liq paydo bo'ladijan o'limlar bo'lib bu omillar oqibatid aholining turli yoshdagisi kishilari turli vaqtida turli joyda vafot etadilar. Ushbu omillarga ichki yuqumli kasalliklar, kasb kasalliklari, og'ir mehnat va mehnat sharoitlari oqibatida yuzaga kelgan kasalliklar, baxtsiz hodisalar, zahrlanish, narkomaniya, alkogolizm va hokazolar kiradi. Hozirgi zamon sanoati, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, avtomatlashtirish, xalq xo'jaligini ximiyalashtirish natijasida atrof-muhitning, atmosfera havosining buzilishi, oqar suvlarning ifloslanishi, o'lim hodisasining yanada ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

O'lim ko'rsatkicha o'rganilayotgan huddagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasiga, aholining yashash sharoiti va sog'liqni-saqlash tizimining ahvoliga chambarchas bog'liq. Ushbu sohalarning rivojlanganlik darjasini qanchlik baland bo'lsa, o'lim ko'rsatkichi shunchalik past bo'ladi va aksincha. Aksariyat o'lim darajasi yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlarda bularning darjasini past bo'lganligi kuztiladi. Masalan, Afrika davlatlarida dunyo bo'yicha umumiyligi o'lim ko'rsatkichi o'ta baland. Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan aholi o'limi 15-20 %, ba'zi joylarda 25 % ga ham yetadi (Nigerda- 24 %). O'lim darajasi baland bo'lgan ikkinchi mintaqasi Yevropa hisoblandi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, taraqqiyotiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiluvchi bu ikkala geografik hudud o'lim hodisasi ko'pligi bilan bir-biriga o'xshaydi. Yevropaning deyarli barcha qismlarida o'lim tug'ilishga nisbatan yuqori. O'limning umumiyligi ko'rsatkichi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik har doim ham o'zini oqlmaydi.

Tug'ilish darjasining pastligi, o'limning tug'ilishdn ko'pligi aholining tabiiy kamayishini keltirib chiqardi. Bugungi Yevropa DEMOGRAFIYA vaziyatida aynan shu holat oddiy aholi tkror barpo bo'lishi sodir bo'lmoqda ya'ni aholi tabiiy ravishda kamaymoqda.

Taqqoslash uchun tanlab olgan qit'amiz Afrikada esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi qoloqlik, sog'liqni saqlash sohasining yetarli rivojlnmaganligi, tug'ilayotgan farzandlar sonining haddan tashqari ko'pligi va ular o'rtasidagi o'limning yuqoriligi, umumiyligi o'lim ko'rsatkichining balandligiga olib kelmoqda.

O'lim hodisasining katta yoki kichik ko'rsatkichni tashkil etishi bir yoshgacha bo'lgan bollar o'lii bilan bevosita bog'liq. Har 1000 ta tug'ilgan chaqaloqqa to'g'ri keladigan go'daklar o'limi dunyo bo'yicha 56 tani tashkil etadi. Shundan Afrikada bu raqam 89 ta, Yevropada 9 ta, Okeaniyada 26 ta, Osiyoda 53 ta va Amerikada eng kam 7 taga teng (2004 yil).

Ma'lumki, bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi bu birinchi yil bolalr hayotida ro'y beradigan o'lim hodisasidir. Go'daklar o'limini qiyoslash borasida maxsus shkaladan foydalaniddi.

## Go'daklar o'limi koeffitsentining shkalasi

Go'daklar o'limi koeffitsenti, % da	Go'daklar o'limi darajasi
20 gacha	juda past
20-34	past
35-49	o'rta
50-64	baland
65 va undan yuqori	o'ta baland

Go'daklar o'limi koeffitsentining pasayishi aholi umumiy o'lim darajasining qisqarishida muhim ro o'yaydi.

BMT ma'lumotlarining taxliliga ko'ra go'daklar o'limi ba'zi Osiyo davlatlarida 1-1.5 hatto 2 martaga oshganligi kuzatiladi. Bularga misol tariqasida quyidagi jadvalni keltirish o'rnlidir.

**go'daklar o'limi** – hayotining birinchi yilda sodir bo'lgan bolalar o'limi hodisasi;

**neonatal o'lim** – tug'ilishdan so'ng 0-27 kun oralig'ida sodir bo'lgan o'lim hodisasi;

**bolalar o'limi** – 0-4 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi hodisasi;

**onalar o'limi** – homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davrdagi asoratlар va abortlar oqibatida sodir bo'lgan ayollar o'limi hodisasi. Onalar o'limiga, o'lim sodir bo'lgan joyidan (tug'ruqxonada, ichki kasalliklar, jarrohlik, onkologiya, yuqumli kasalliklar shifoxonasi yoki bo'limlarida va boshqa joylarda), o'limning homiladorlik va tug'ish bilan bog'liqligidan (baxtsiz hodisalardan tashqari) hamda homiladorlik davridan qat'iy nazar, tuqqandan so'ng 42 kun davomida yoki homiladorlik davrida vafot etgan barcha tuqqanlar, homilador ayollar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi;

**o'lim sababları** – o'limga yoki uning sodir bo'lismiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari;

### **Aholi takror barpo bo'lishi xaqida tushuncha va unga ta'sir etuvchi omillar.**

Avlodlar almashinishi davomida (aholining takror barpo bo'lishi) uning soni, yosh va jinsiy tarkibi o'zgaradi. Avlodlar almashinuvi, aholi tabiiy o'sishi hajmini aniqlash, har bir avlod o'rtacha umr ko'rishi, tug'ilish va o'lim jarayonlari yig'indisi aholining tabiiy harakati yoki takror barpo bo'lishi deyiladi.

Aholining takror barpo bo'lishi, jamiyat davomiyligini ta'minlovchi asosiy jarayon bo'lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir. Aholining takror barpo bo'lismida uning tabiiy harakati tug'ilish va o'lim asosiy omil hisoblanadi. Aholining takror barpo bo'lism ko'rsatkichlari tug'ilish va o'lim darajasiga bog'liq bo'lib, u har bir hudud aholisi dinamikasining taxlili uchun muhim tarkibiy qismidir.

Jamiyatda avlodlar almashinadi, aholi takror barpo bo'ladi. Natijada aholi soni o'sadi. Aholining takror barpo bo'lishi har bir hudud tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy muhiti ta'sirida ro'y beradi va traqqiy etadi. Shu boisdan aholi takror barpo bo'lism ko'rsatkichlari turli mamlakatlarda turli vaqlarda bir-biridan farqlandi. Bu farqlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda aholi takror barpo bo'lismini ifodalovchi maxsus ko'rsatkichlardan foydalanildi. Biologik hodisa hisoblanmish tug'ilish va o'lim asosiy aholi takror barpo bo'lismidagi ko'rsatkich ekanligini aytib o'tgandik. Bu ko'rsatkich miqdoriy jihatdan 1000 kishiga hisoblanadi va promilleda ifodalananadi.

Aholi takror barpo bo'lismiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular quyidagilar:

Tabiiy-biologik; Ijtimoiy-iqtisodiy; Ijtimoiy-madaniy; Psixologik; DEMOGRAFIYA.

Tabiiy-biologik omil aholi takror barpo bo'lismida muhim omillardan biri. Yer yuzi aholisi turli tabiiy sharoitda yashaydi, tug'iladi va o'ldi. Insonning tug'ilishi va o'lismi kabi bilogik hodisa ekan u tabiiy sharoit bilan uzviy bog'liqlikdadir.

Jamiyat davomiyligini ta'minlovchi inson ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va psixologik omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Aholi tabiiy o'sishi uning jinsiy, yosh tarkibi, nikoh va ajralish jararlari ham muhim hisoblanadi. Bularning barchasi DEMOGRAFIYA omillar sirasiga kiradi. Ma'lumki, tug'ilish qanchalik ko'p bo'lsa, aholi soni o'sib boradi, aholi tarkibida bolalar va yoshlardan oshadi yoki aksincha tug'ilish kamaysa, jinsiy tarkibdagi buzulishlar ro'y bersa aholi yosh tarkibidagi qariyalar idori oshadi va hokazo. Yuqoridagi omillar aholi takror barpo bo'lishiga bir xil ta'sir etmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omil aholi tabiiy harakatida muhim rol o'ynaydi. Aholining yashash sharoiti, sog'liqni saqlashning ahvoli, ayollarning jamiyatdagi o'rni, aholining madaniy va ma'lumotlilik darjasini va boshqalar aholi tabiiy harakati darajasini belgilab beradi. Ushbu omillarning tug'ilish va o'limga ta'siri qarama-qarshi ham bo'lishi mumkin. Aholining yashash sharoiti, moddiy ahvoli yaxshilanishi, tibbiy xizmat kabi sohalarning rivojlanishi, o'lim ko'rsatkichini pasaytiradi, aholi o'rtacha umr ko'rish darajsini uzaytiradi. Natijada aholi tarkibida qariyalar salmog'i ko'payadi va o'z-o'zidan o'lim ko'rsatkicha osha boshlaydi.

Aholi takror barpo bo'lishida muhim xisoblangan omillarni o'rganar ekanmiz mintaqalar doirasida aholi takror barpo bo'lishining bir-biridan farq qiluvchi tiplarini kuzatamiz.

Birinchi tip- bu guruhga kiruvchi davlatlarda yashovchi aholi o'z-o'zini qayta tiklamaydi. O'lib ketayotganlar mutloq miqdori hayotga yangi kelayotganlar miqdoridan ortiq. Mazkur guruh davlatlarini "depopulyatsiya" davlatlari deb ham atash mumkin. Bularga Yevropa, Boltiqbo'y davlatlari, SHimoliy Amerikadagi ma'lum bir davlatlarni, Yaponiya, Gruziya, Armaniston, Rossiyani kiritish mumkin.

Ikkinchi tip- aholining umumiy soni oshmaydi, bu tipdagagi davlatlar aholisida tug'ilish bilan o'lim ko'rsatkichi deyarli teng. Aholi soni haddan tashqari ko'payib yoki kamayib ketmaydi. Aholining ma'lum bir miqdori ushlanib turadi. Ushbu tipdagagi davlatlar aholi takror barpo bo'lishining oddiy tipiga kiruvchi davlatlar deb ham ataladi.

Uchinchi tip- davlatlariga tug'ilish miqdori, hayotdan o'tib ketayotganlar miqdoridan ancha katta ko'rsatkichga ega. Aholi tarkibida progressiv yosh tarkibidagilar soni o'sib boradi. Keksa va qariyalar salmog'i kam sonli, bolalar, yoshlardan ko'pchilikni tashkil etgan holda aholi takror barpo bo'lishi ijobjiy baholanadi.

Aholi takror barpo bo'lishining kengaygan deb ataluvchi tipiga Afrikaning barcha davlatlari, Xorijiy Osiyo, Janubiy Amerikaning qator davlatlari, Avstraliya va Okeaniya, O'rta Osiyo davlatlarini kiritish mumkin. Mazkur davlatlarga tug'ilish miqdorining ko'pligiga qator omillar sabab bo'lib u o'z navbatida bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari orasidagi katta farqlar aholi takror barpo bo'lishi ko'rsatkichlarining bir-biridan keskin ajralishlariga sabab bo'ladi. Aholi takror barpo bo'lishining asosiy jrayonlari bo'lgan tug'ilish va o'lim darajasidagi o'zgarishlar aholi takror barpo bo'lishida ham sezilmasdn qolmaydi. Natijada aholi takror barpo bo'lishida bir turdan, ikkinchi o'tish boshlnadi. Buni fanda "DEMOGRAFIYA o'tish" deb nomlanadi.

XIX asrning oxirida aholi tug'ilishi va o'lim xollari biologik qonuniyatlargagina emas, balki sotsial shart-sharoitlar bilan bog'liq holda sodir etilishi qayd etilgan. Jamiyat tarixiy rivojlanishi jarayonida aholi takror barpo bo'lishida chuqur o'zgarishlar yuz berdi. 1950 yillarga kelib, jamiyatda DEMOGRAFIYA jarayonlar (nikoq, tug'ilish va o'limni) boshqarish jarayoni keng tarqaldi. Jamiyat taraqqiyotida ro'y bergen yirik ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar, Aholining DEMOGRAFIYA mayliga bevosita ta'sir etdi. Ayniqsa, qator davlatlarda Aholining farzandlar soniga bo'lgan munosabati o'zgardi. Ko'pbolalik o'rnini o'rtacha bolalik, kam bolalik egallay boshladi. Oilani ko'p farzandga bo'lgan talabi asta-sekin urbanizatsiya jarayoni, sanoatni rivojlanishi, ayollar bilim darajasini oshib borishi, ijtimoiy hayotdagi o'rnini o'zgarib borishi bilan bog'liq holda kamaya bordi.

Aholi takror barpo bo'lishi bir turdan ikkinchi turga o'ta boshladi. Ushbu holni yuqorida qayd etilganidek - «DEMOGRAFIYA o'tish», deb belgilandi. DEMOGRAFIYA o'tish jarayoni bosqichma-bosqich sodir bo'ldi. Muttaxassislar tomonidan DEMOGRAFIYA o'tish to'rt bosqichga ajratildi.

Birinchi bosqich. Bu bosqich rivojlangan mamlakatlarda XX asr o'rtalarida kuzatildi. Unda aholi o'rtasida tug'ilish va o'lim qollari kamaya boshladi. Lekin o'lim tug'ilishga qaraganda juda tez sur'at bilan kamayadi. Ba'zi davlatlarda esa tug'ilish deyarli kamaymaydi. Natijada Aholining tabiiy o'sishi juda yuqori darajada bo'ladi.

Ikkinchi bosqich. O'limning kamayishi jarayoni davom etadi va kamayishi eng kulminatsion nuqtaga yetadi. Tug'ilishning kamayish sur'ati esa jadallahshadi. Natijada, aholi tabiiy o'sishi

sekinlasha boradi.

Uchinchi bosqich. Ushbu bosqichda yuqori bosqichlarda ro'y bergan tug'ilishni va o'limni kamayishi, aholi o'rtacha umr ko'rshti muddatini uzayishi natijasida aholi tarkibida qariyalar salmog'i ko'payib boradi. Bu hol o'lim holatini ko'payib borishiga olib keladi. Tug'ilish yana ham kamayib boradi va oddiy aholi takror barpo bo'lisi sodir bo'ladi. Ya'ni netto koeffitsient 1 ga tenglashadi. Boshqacha qilib aytganda. Har bir ona o'z o'rniga faqat bittadan qizni-bo'lajak onani qoldiradi holos. Bu bosqichda aholi yosh tarkibida stabillashuv to'liq kuzatilmaydi. Aholi tarkibida o'lim hollari kam bo'lgan guruh-yoshlar salmog'i nisbatan baland bo'ladi.

To'rtinchi bosqichda o'lim qollari yuqori darajada bo'ladi. O'lim va tug'ilish koeffitsientlari tenglashadi. Demografik stabillashuv jarayoni tugallanadi.

Dunyodagi qator rivojlangan davlatlar XX asrning 80 yillarda uchinchi bosqichning tugallanish davriga o'tganligi kuzatiladi. SHu davrda, ko'pgina rivojlangan davlatlar esa DEMOGRAFIYA o'tish birinchi bosqichning oxirigi va ikkinchi bosqichning boshlanish davridadir.

**Aholi takror barpo bo'lislining zamonaviy tiplari: kengayan, oddiy va qisqargan aholi takror barpo bo'lisi.**

Aholi takror barpo bo'lislida muhim xisoblangan omillarni o'rganar ekanmiz mintaqalar doirasida aholi takror barpo bo'lislining bir-biridan farq qiluvchi tiplarini kuzatamiz.

Birinchi tip- bu guruhga kiruvchi davlatlarda yashovchi aholi o'z-o'zini qayta tiklamaydi. O'lib ketayotganlar mutloq miqdori hayotga yangi kelayotganlar miqdoridan ortiq. Mazkur guruh davlatlarini "depopulyatsiya" davlatlari deb ham atash mumkin. Bularga Yevropa, Boltiqbo'yи davlatlari, SHimoliy Amerikadagi ma'lum bir davlatlarni, Yaponiya, Gruziya, Armaniston, Rossiyani kiritish mumkin.

Ikkinchi tip- aholining umumiyligi soni oshmaydi, bu tipdagi davlatlar aholisida tug'ilish bilan o'lim ko'rsatkichi deyarli teng. Aholi soni haddan tashqari ko'payib yoki kamayib ketmaydi. Aholining ma'lum bir miqdori ushlanib turadi. Ushbu tipdagi davlatlar aholi takror barpo bo'lislining oddiy tipiga kiruvchi davlatlar deb ham ataladi.

Uchinchi tip- davlatlariga tug'ilish miqdori, hayotdan o'tib ketayotganlar miqdoridan ancha katta ko'rsatkichga ega. Aholi tarkibida progressiv yosh tarkibidagilar soni o'sib boradi. Keksa va qariyalar salmog'i kam sonli, bolalar, yoshlar ko'pchilikni tashkil etgan holda aholi takror barpo bo'lisi ijobjiy baholanadi.

**DEMOGRAFIYA portlash va DEMOGRAFIYA inqiroz.** "DEMOGRAFIYA portlash" - aholining haddan tashqari o'sishi. DEMOGRAFIYA portlash XX asrning 60 yillari paydo bo'lgan. DEMOGRAFIYA portlash asosan Horijiy Osiyo mamlakatlarida kuzatilinmoqda. Ma'lumki, aholisi soni 100 mln dan ortiq bo'lgan mamlakatlarning 7 tasi Osiyoda joylashgan. Bu mamlakatlarda DEMOGRAFIYA siyosat aholi tabiiy ko'payishini kamaytirishga qaratilgan (hatto konstitusiyaga kiritilgan).

. Aholi takror barpo bo'lisi bir turdan ikkinchi turga o'ta boshladi. Ushbu qolni yuqorida qayd etilganidek-«DEMOGRAFIYA o'tish», deb belgilandi. DEMOGRAFIYA o'tish jarayoni bosqichma-bosqich sodir bo'ldi. Muttaxassislar tomonidan DEMOGRAFIYA o'tish to'rt bosqichga ajratildi.

Evropadagi rivojlangan davlatlarda tug'ilish darajasini ko'tarib, optimal, normal holga keltirish juda mushkul bo'lmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda esa, aksincha 1960-1990-yillarda tug'ilishning yuqori darajada turganligini va o'lim hollarining keskin kamayganligi natijasida aholining tabiiy o'sishi juda yuqori darajada bo'ldi. Natijada Osiyo, Afrika va janubiy Amerikada joylashgan qator rivojlanayotgan davlatlarda aholi soni birdan ko'payib ketdi. Bu holni demograf muttaxassislar "DEMOGRAFIYA portlash" deb atadilar.

**Foydalanimadigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati:**

**Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar**

- 1.Анохин А.А., Житин Д.В., География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013 – 307 с.
- 2.Абдурахмонов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик– Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
- 3.Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С., Ахоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўйланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
- 4.Копылов В.А. география населения. Учебное пособие.- М.: 1999. – 124 с.

**Qo'shimcha darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

- 5.Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Т.: O’zbekiston 2017.
- 6.Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. Т., 2002.
- 7.Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана:.-Т., 2009.
- 8.Axmedov E. O’zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. Т., 2002.
- 9.Bo’rieva M.R., Tojieva Z.N. Aholi geografiyasi.- Т., 2000.
- 10.Bo’rieva M.R., Eganova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari.-Т.: 2008.
- 11.Максакова Л.П. Миграция населения: проблемы регулирования. Т., 2001.
- 12.Ubaydullaeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Umarova N.O. O’zbekiston DEMOGRAFIYA jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o’quv qo’llanma). Т., 2006.
- 13.Soliev A., Nazarov M. O’zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi).-Т.: 2009.
- 14.2011 World population Data Sheet of the population Reference Bureau.
- 15.Human geography: Landscapes of human activities. Sixth edition. Boston, 1999.

#### **Elktron manbalar:**

<http://www.undp.org/popin/popin.html>  
<http://www.demography.narod.ru>  
<http://stat.uz>  
<http://ziyo.net>

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Aholi tabiiy xarakati qanday amalga oshadi?
2. Tug’ilish va o’lim axoli tabiiy ko’payishiga qanday ta’sir ko’rsatadi?
3. Axolining reproduktiv yoshi deganda nimani tushunasiz?
4. Axolining reproduktiv mayli deganda nimani tushunasiz?
5. Tug’ilishni ifodalovchi qanday ko’rsatkichlar mavjud?
6. Aholi o’limi nima uning qanday turlari mavjud?
7. Aholi o’limi qanday sabablar natijasida yuzaga keladi?
8. Aholi takror barpo bo’lishi qanday jarayon?
9. Aholi takror bo’lishiga qanday omillar ta’sir etadi?
10. DEMOGRAFIYA o’tish qanday jarayon va uning necha bosqichi mavjud?
11. Aholi takror barpo bo’lishining qanday zamonaviy tiplari mavjud?
12. Depopulyatsiya qanday jarayon?
13. DEMOGRAFIYA portlash va DEMOGRAFIYA inqirozni tushuntiring?

#### **Mavzu bo’yicha test**

##### **1. Eng ko’p tarqalgan dinlar qaysilar?**

- A) islom dini
- V) buddizm dini
- \*S) xristian dini
- D) provoslav dini
- E) katolik dini

##### **2. Axolining tabiiy kupayishini netto koeffitsienti izoxi qaysi katorda tugri berilgan?**

- A) ugil va kiz bolalarni tenglikdorda tugilishi
- V) kizlarning kup tugilishi
- \*S) tugilgan kiz bolalarning salomat (ulmay) kolgan sogini barcha ayollar soniga nisbati
- D) tugilgan bolalarni xomilador ayollarga nisbati
- E) ugil bolalarni kup tugilishi

##### **3. Kishloklarni iktisodiy jixatidan kanday toifalarga ajratiladi?**

- \*A) kishlok xujaligiga ixtisoslashgan kishlok xujaligiga ixtisoslashmagan va aralash kishloklar
- V) sanoati rivojlangan kishloklar
- S) Chorvador kishloklar
- D) Agrar kishloklar
- E) Bogdorchilik kishloklar

##### **4. Dunyo mamlakatlarining nechtasida urbanizatsiya darajasi o’rtacha?**

- A) 40 tasida

V) 200 tasida

\*S) 120 tasida

D) 80 tasida

E) 191 tasida

**5. Kushimcha mexnat resurslariga necha yoshdagilar kiradi?**

\*A) 14-16

V) 15-17

S) 16-18

D) 20 yoshdagilar

E) 17-18

**2-Mavzu. Aholining tarkiblari: aholining yosh, jinsiy, oilaviy, irqiy, etnik, ijtimoiy tarkibi. Dinlar geografiyası.**

**REJA:**

1. Aholining yosh va jinsiy tarkiblari xususiyatlari.

2. Aholi jins tarkibi shakllanishidagi omillar. Aholi o'limidagi jinslar nisbati. Dunyo mamlakatlari aholisi jins tarkibidagi geografik farqlar.

3. Aholining yosh tarkibi, uning shakllanish omillari va yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi. Aholining yosh-jinsiy tarkibining DEMOGRAFIYA va hududiy xususiyatlari.

4. Aholining yosh-jinsiy tarkibi modelining DEMOGRAFIYA piramidada aks etishi. Yosh klassifikatsiyasi.

5. Dinlar geografiyası

*Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar): Aholining Yoshi, jinsiy tarkiblari, tarkibi shakllanishi omillar, Aholi o'limi, jins tarkibidagi geografik farqlar, aholining yosh tarkibi, shakllanish omillari, yosh guruhlari, DEMOGRAFIYA, Aholi yosh tarkibi, Yangi tug'ilganlar, O'limdagi jinsiy farq, Aholi migratsiyasi. Aholi yosh guruhlari, yoshlar salmog'i, tug'ilish darajasi aholi takror barpo bo'lishi, aholi umumiy tarkibida, tug'ilish, tarixiy davrlar, diniy va etnik birliklar.*

Aholining yosh tarkibi aholining yosh tarkibi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlab aholining yosh tarkibini o'rganishdan oldin «yosh» tushunchasining mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiq. Yosh — bu insonning tug'ilishidan to uning hayotidagi u yoki bu daqiqasigacha oqib o'tgan vaqtdir. Yosh ikkinchi eng muhim DEMOGRAFIYA tavsiflardan biri bo'lib, u yillarda, oyлarda (hayotning birinchi yillarida), haftalarda (hayotning birinchi oyлarda), kunlarda va soatlarda hisoblanadi. Yosh obyektiv tavsif bo'lishiga qaramasdan inson hayotining yosh davri konventionaldir va umrni (hayotni) uzunligi (davomiyhg) evolyutsiyasi mobaynida o'zgarib kelgan. Bir asr muqaddam «keksalik» deb yuritilgan yosh hozirda «keksalikka kirish» yoki «o'rta yosh» deb hisoblanmoqda.

DEMOGRAFIYA hodisalar doimo u yoki bu yoshda amalga oshadi. Bunda ularning amalga oshishidagi tebranish yosh o'tishi bilan o'zgaradi yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, uning vazifasi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun demografiyada yosh har qanday DEMOGRAFIYA hodisaning eng muhim tavsifi sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan o'lgandagi yosh (o'lim yoshi), nikohga kirish yoshi va bola tug'ish yoshi, deb nomlanuvchi yoshlar va hokazolar haqida gapiriladi. Kuzatish vaqtidagi muayyan bir guruh kishilaming yoshi haqidagi ma'lumot aholining yosh tarkibini shakllantirish imkonini beradi. Yosh barcha DEMOGRAFIYA jarayonlarning umumiy koordinatasи hisoblanadi, ularning universal, mustaqil o'zgaruvchisi boiib hisobga olinadi va inson hayotidagi istalgan hodisalarni ro'yxatga (hisobga) olishda e'tiborga ohnadi. Yuqorida aytiganidek, yosh tugilgan vaqtidan so'ng oqib o'tgan vaqt bilan o'lchanadi. Biroq, demografiyada yoshning uchta ta'rifidan foydalilanadi; aniq yosh, yillar toigandagi yosh va kalendar yillarning farqi sifatida hisoblangan yosh. U yoki bu ta'rif mavjud ma'lumotlar va maqsadlarni hisobga olinishi bilan tanlanib, ular uchun yosh hisoblab chiqiladi. Aniq yosh — imkonli boricha maksimal aniqlik bilan o'lchanagan, tug'ilgan vaqtidan joriy daqiqagacha bo'lgan davr oralig'iga tengdir. Masalan, insonni tug'ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqtida uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 minut 28 sekundga teng. Yillar to'lgandagi yosh — bu aniq yoshning to'liq sonlarga ega bo'lмаган qismidir, u oxirgi tug'ilgan

kundagi aniq yoshiga tengdir. Aynan shu yosh bo'yicha odatda «Yoshingiz nechada?» degan savolga javob beriladi. Matematik jihatdan bu pastga qarab to'liq songacha qoldiq qismlar kattaligini hisobga olmasdan yaxlitlab yuborilishini anglatadi.

Kalendar yillarning farqi sifatida hisoblangan yosh o'z ta'rifidan ham nimani anglatishini bildirib turibdi. Agar kishining tug'ilgan yili ma'lum bo'lsa (masalan, 1979 yil), bunda uning kalendar yillar farqi bo'yicha yoshi joriy tug'ilgan yilning farqiga tengdir (masalan, 2010-1979=31). Ta'kidlash joizki, kalendar yillar farqi sifatida hisoblangan yosh, agar tug'ilgan kunigacha hisoblab chiqilmasa yillar to'lgandagi yoshga teng bo'lmasligi mumkin. Haqiqatda «kalendor yillar farqi sifatidagi 31 yosh» jumlesi inson 30 yoki 31 yil to'lgandagi yoshga tengligini anglatadi yoki o'z ichiga 30 dan 32 yoshgacha bo'lgan yillarni oladi. Yosh haqidagi m a'lum otlar aholini ro'yxatdan o'tkazish, maxsus tekshiruvlar, jumladan tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishlarni qayd qilish jarayonida ohnadi. Bu masala nafaqat demograf uchun, balki boshqa ijtimoiy soha mutaxassislari uchun ham juda muhim, chunki yosh nafaqat demografiyada, balki deyarli barcha ijtimoiy jarayonlarda mustaqil o'zgaruvchi sifatida yuzaga chiqadi.

*Aholining yosh tarkibi* — bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo'yicha taqsimotidir. Aliolining yosh tarkibi haqidagi ma'lumotlar ijtimoiy-iqtisodiy va DEMOGRAFIYA jarayonlarni tadqiq qilish uchun kerak bo'ladi. Aholi yosh tarkibining xususiyatlarini anglash orqah istiqboldagi tug'ilish va o'lim tendentsiyalari, shuningdek, aholining takror barpo bo'lishi haqida ilmiy asoslangan mulohazalar chiqarish mumkin. Ushbu xususiyatlarni bila turib, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda u yoki bu muammolaming vujudga kelish ehtimolini baholash, mehnatga layoqatli aholi va ishchi kuchining dinamikasini prognozlashtirish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, ularga bo'lajak talab, mintaqalarda saylovlarining natijalarini va shunga o'xshash masalalarni bilish imkonini beradi.

*Bir yillik yosh tarkibi* — bu aholining quyidagi yillar to'lgandagi yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishidir: 0 yosh, 1, 2, ..., 34, 35, ..., 89,... φ yosh va undan kattalar. φ — bu qandaydir eng yuqori yosh bo'lib, uning asosida aholining bir yillik yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi yakunlanadi. Oxirgi yosh guruhi (so yosh va undan kattalar) ochiq yosh oralig'ini tarkib toptiradi, bunda coning aniq kattaligi yangi tug'ilgan bolaning kutilayotgan umr davomiyligining o'rtachasiga va katta yoshlardagi aholining soniga bog'hq bo'ladi. Besh yillik yosh tarkibi quyidagi yosh guruhlari bo'yicha tuziladi: 0 yosh, 1-4 yosh, 5-9 yosh, 10-14 yosh, ..., 35-39 yosh, ..., 80-84 yosh, ..., 100 yosh va undan kattalar. Bu **standart yosh guruhanishi** deb nomlanadi va xalqaro demostatistika amaliyotida qo'llaniladi. O'n yillik yosh tarkibi quyidagi yosh guruhlari bo'yicha tuziladi: 0 yosh, 1-9 yosh, 10-19 yosh, 20-29 yosh, ..., 60-69 yosh, 100 yosh va undan kattalar. Yosh tarkibidagi umumiy tuzilmaviy o'zgarishlarni baholash uchun bundan yanada kattaroq yosh guruhanishlari qo'llaniladi. *Xalqaro amaliyot va statistikada aholining yosh tarkibi iqtisodiy nuqtai nazardan uch guruhga ajratiladi:*

- bolalar (0-14 yosh);
- mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (15-64 yosh);
- mehnatga layoqatli yoshdan katta boigan aholi (65 va undan yuqori yoshdagilar).

*O'zbekiston milliy statistikasida aholi mehnatga layoqatliligi bo'yicha uch guruhga bo'linadi:*

1. Mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi (0-15 yosh);
2. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (16-54 yoshdagi ayollar, 16-59 yoshdagi erkaklar);
3. Mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi (55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklar).

*Aholi ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan yoshiga ko'ra 6 guruhga ajratiladi:*

*1. Bolalar (0-15 yosh)* — mamlakat jami aholisining eng katta qismini tashkil etib, ularning aksariyati mehnat jarayonida ishtiroy etmaydi. Ammo, ushbu aholi guruhining salm og'i m ehnat salohiyatining kelgusi va istiqbol ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Chunki, ushbu qatlamning yuqori chegarasidagi o'smirlar tez orada mehnat resursiari safiga qo'shiladi.

*2. O'smir yoshlar (16-24 yosh)* — mazkur guruhning katta qismi iqtisodiy nofaol aholi tarkibiga kirib, ular maktab, akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlar, tug'ruq ta'tilidagi ayollar hisoblanadi. Shuningdek, mazkur guruh tarkibida iqtisodiyotning qator soha va tarmoqlarida band bo'lganlari ham mayjud bo'hb, ularning mehnat faoliyatlari aksariyat hollarda boshlang'ich ko'rinishga ega bo'ladi.

3. *O'rta yoshlilar* (25-30 yosh) — ular o'zining jismoniy holati va imkoniyatlari jihatdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, mehnatga layoqatli jami aholining asosiy qismini qamrab oladi. Bu guruh vakillari asosan o'zlarining aniq hayot yo'llarini tanlab olgan, o'z oilasiga ega bo'igan va hayotda m aium bir yutuqqa erishgan hisoblanadi. Lekin, ularning barchasi ham iqtisodiyotda band bo'lmaydi, chunki ularning orasida yosh bolali onalar va ayollar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

4. *31-59 yoshdagi aholi* — ushbu guruhdagi aholi o'zining yuksak mehnat shakliga ega bo'lib, hayotiy va mehnat tajribasining yuqori ko'rsatkichiga erishadi. Shu vaqtgacha olgan amahy ko'nikma va tajribalarini ishlab chiqarish jarayonlariga safarbar clishadi va mehnat jamoasida alohida o'rin egallashadi. Bu toifa insonlar yoshlarga o'rnak va maslakdosh bo'ladi. Ushbu yosh chegaralari aholisining iqtisodiy faoliyot darajasi boshqa qatlamlarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Shuningdek, mazkur qatlamlarning yuqori chegarasida pensiya yoshiga yetgan ayollar ham boiib, ular o'zlarining mehnat faoliyatlarini yakunlash taraddudida bo'lishadi.

5. *Qariyalar* (60-70 yosh) — mazkur qatlamlar vakillari pensiya yoshiga yetgan aholi hisoblanib, ularning aksariyati pensiyada bo'ladi. Lekin, ularning orasida o'z mehnat faoliyatlarini davom ettirayotganlari ham bo'lib (ayniqsa, erkaklar), ular ham butunlay pensiyaga chiqish va m ehnat faoliyatini yakunlash arafasida bo'lishadi.

6. *Keksalar* (70 va undan katta yosh) — ularning deyarli hammasi mehnat faoliyatidan chetlashgan bo'ladi'. Aholining yosh tarkibini o'rganishda yosh akkumulyatsiyasiga alohida e'tibor qaratish kerak. Chunki, aholini ro'yxatdan o'tkazishda va sotsiologik so'rovlardan yosh to'g'risidagi ma'lumotlarda xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.

**Yosh akkumulyatsiyasi** — bu aholining ma'lum bir yoshlaridagi sonining qo'shnilariga nisbatan ko'proq yig'ilib qolishidir. Yosh akkumulyatsiyasi odamiarning psixologik ta'sir ostida sonli o'zgaruvchilarni yaxlitlab yuborishga moyilligi ostida vujudga kelib, ular aniq sonlar o'rniga yaxlitlangan, yaqin bo'lgan kattaliklarni aytishadi. Ko'pincha yosh akkumulyatsiyasi «0» yoki «5» bilan tugaydigan yoshlarda ko'proq kuzatiladi, biroq bu holat «2» yoki «8» bilan tugaydigan yoshlarda ham uchrab turadi. Yosh akkumulyatsiyasining mavjudligi, tabiiyki, faqatgina bir yillik yosh guruhlari bo'yicha tuzilgan yosh tarkibidagina uchraydi. Besh va o'n yillik guruhlarida yosh akkumulyatsiyasi o'z-o'zidan soqit bo'ladi.

Aholini ro'yxatdan o'tkazish va so'rovlardan yosh to'g'risidagi ma'lumotlarning tizimh tarzda xato bo'lishi yosh akkumulyatsiyasiga olib keladi. Bu, ayniqsa, aholining madaniy darajasi (ayrim odamlar nafaqat o'z yoshini, balki o'zining tug'ilgan kunining aniq sanasini ham bilmasliklari mumkin) va yosh haqidagi savolga aniq javob berish xohishi bilan bog'liq (qariyalar va ayollarning tannozligi va h.k. vaziyatlar). Aholini madaniy darajasining o'sishi va uslubiy qoidalarga amal qihsh yosh borasidagi xatoliklarning, natijada yosh akkumulyatsiyasining kamayishiga olib keladi.


### **Aholining yosh-jins piramidasи va takror barpo bo'lishi**

Aholining yosh va jinsiga ko'ra tarkibini bирgalikda va yaqqol namoyon etish uchun yosh-jins piramidasи tuziladi. Yosh-jins piramidasи ikki tomonlama chiziqli diagrammani o'zida aks ettirib, undagi aholi yosh va jins bo'yicha bирgalikda taqsimlangan, bunda grafikning bir tomonida (o'ngdan) ayol jinsli aholi, ikkinchi tomonda esa (chap tomonda) erkak jinsli aholi aks ettiriladi. Diagrammaning vertikal o'qi yosh shkalasini o'zida namoyon etib, u bir yoki besh yillik intervallarga bo'linib, 0 yildan boshlanadi va yuqori yosh yoki ochiq yosh intervali bilan tugallanadi. Gorizontal chiziqlar o'zida berilgan yosh va jinsdagi aholining umumiy sonini; aholining umumiy sonidagi berilgan yosh va jinsdagi aholining ulushini; berilgan yosh va jinsdagi aholi sonidagi faqat ushbu jinsning ulushini aks ettiradi. Bunda gorizontal chiziqlar maydoni (yoki teng miqdorda taqsimlangan yosh intervallarining uzunligini) aytib o'tilgan ko'rsatkichlarga teng bo'ladi. Piramidalar aholining turli qismlarini qiyoslash va uning yoshjins tarkibi xususidagi qiyosiy m aium otlarni olish maqsadida guruhlarning yosh-jins miqdori yoki ushbu sonlarning jami aholidagi ulushidan foydalilanigan holda tuziladi. Yosh-jins piramidasи aholining muayyan vaqtdagi holatini aks ettiradi. Shuning uchun piramidadagi chiziqlarning nisbiy uzunligi bo'yicha tug'ilish va o'lim jarayonlarining aholining yosh tarkibiga ta'siri, aholi takror barpo bo'lishining istiqboldagi tendentsiyalari haqida tasawurga ega bo'lish mumkin. Masalan, muayyan bir yilda tug'ilganlar soni qo'shni yillarnikidan ko'p bo'lsa pirami. ia bo'rtiq, agar tug'ilganlar soni qo'shni yillarnikidan kam bo'lsa botiq shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu deformatsiya

yetuk va keksa yoshdagilar orasidan o'tayotib, deyarli butun yuz yillik davr davomida, toki ushbu tugilganlar jamlanmasining o'iib yo'q boimaguniga qadar saqlanib qoladi.

O'zbekiston aholisining hozirgi yosh tarkibi 90-yillarda boshlangan tug'ilish darajasining qisqarishiga qaramay yosh hisoblanadi. Ya'ni, aholi tarkibida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ulushi 62,1 % ni, 16 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi 33,3 %ni, 16-29 yoshdagilar ulushi 28,8 %ni tashkil etadi. Aholining yosh tarkibini tuzish uchun odatda bir, besh, ba'zi hollarda o'n yillik oraliqlardan foydalaniladi.

**Aholi soni** - ma'lum hudud yoki aholi guruhidagi kishilarning miqdoriy ifodasıdir. *Demografiyada aholi soni, eng umumiy va asosiy ko'rsatkich bo'lib*, aniq bir davrdagi aholi miqdorini anglatadi. Statistik manbalarda aholi soni ma'lum bir chisloga (1-yanvar-1 iyul yoki 31 dekabr) keltiriladi. Masalan, O'zbekiston aholisi 1991-yil 1-yanvarda 20708,2 mingni, 2000-yil 1-yanvarda esa 24487,7 mingni tashkil yetdi. Bu ko'rsatkichlarni butun yil uchun qabul qilib bo'lmaydi, chunki yil davomida, ya'ni 1-yanvardan 31-dekabrga qadar aholi soni tug'ilish va o'lim hisobiga muntazam o'zgarib turadi.



#### 1-rasm. Samarqand viloyat aholisining yosh-jins tarkibi piramidasi.

Har bir hudud aholi sonini o'rganganda, uni doimiy (shu hududda doimiy ro'yxatga olingan) va mavjud real (tekshirilayotgan davrda shu hududda ma'lum muddat yashayotgan) aholiga ajratiladi.

DEMOGRAFIYA gadqiqotlar olib borishda nazariy aholi soni, hamda mavjud, real aholi sonidan foydalaniladi. Nazariy aholi soni o'zgarmas - *stabil aholi sonidir*. Stabil aholi soni lotincha stabilos so'zidan olingan bo'lib, doimiy, o'zgarmas degan ma'noni bildiradi. Aholi takror barpo bo'lشining maxsus koiffitsiyentlarini hisoblaganda stabil aholi sonidan foydalaniladi, turli DEMOGRAFIYA modellarni tuzganda nazariy aholidan foydalaniladi, ya'ni, o'rganilayotgan davr aholi soni o'zgarmas deb qabul qilinadi.

Real, mavjud aholi soni ma'lum bir ma'muriy hududning, davlatning o'rganilayotgan davrdagi mavjud aholi sonidir. Masalan, O'zbekiston davlatining aholi soni, Farg'ona vodiysining aholi soni va h.k.

Aholi soni xaqidagi aniq ma'lumotlar aholi ro'yhati o'tkazish yo'li bilan to'planadi. Aholi ro'yxatlari orasidagi davr uchun, esa har yilgi tug'ilish, o'lim va migratsiya jarayonlarini e'tiborga olgan xolda aholi soni maxsus uslublar yordamida hisoblanadi.

II. Aholi jinsiy tarkibini o'rganishda aniq ko'rsatkich **har 1000 ta erkaklarga nisbatan ayollar soni**, yoki har 1000 ta ayollarga nisbatan erkaklar soni ifodasıdir. Ushbu ko'rsatkich orqali ma'lum hudud jami aholisining va aholi yosh guruhlari (0-9, 10-19, 20-29...) jinsiy tarkibi o'rganiladi. Misol tariqasida, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, ayollar sonini erkaklar soniga bo'lamic va natijani 1000 ga ko'paytiriladi. 2000-yilda O'zbekistonda har 1000 ta ayolga 991 erkak to'g'ri kelar ekan, yoki erkaklar ayollardan kamroq ekan. Ana shunday uslub bilan aloxida yosh guruhlari uchun ham ayollar va erkaklar nisbati aniqlanadi

Aholi yosh tarkibi uch asosiy omil ta'sirida shakllanadi:

1) Yangi tug'ilganlardagi jinsiy nisbat:

2) O'limdagi jinsiy farq.

3) Aholi migratsiyasidagi jinsiy farq.

Aholining yosh tarkibi-ijtimoiy-iktisodiy va DEMOGRAFIYA jarayonlarni o'rganish maqsadida aholining yosh guruhlarga bo'tshnishidir. Aholi yosh guruhlari va DEMOGRAFIYA jarayonlar o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanadi. Aholi tarkibida yoshlar (0-9, 101-19,20 - 29 yoshida) salmog'ining yuqoriligi nikoh va tug'ilish kabi DEMOGRAFIYA jarayonlarga ijobiy ta'sir etadi. Ayni paytda tug'ilish yuqori bo'lgan hududlarda bolalar, yoshlar salmog'i yuqori bo'ladi. Tug'ilish darajasi past bo'lgan hollarda esa aholi tarkibida qariyalar (60 yosh va undan yuqori) salmog'i yuqori va o'lim hollari ko'proq sodir bo'ladi. DEMOGRAFIYA nuqtai nazardan yondashganda aholining bugungi yosh tarkibi kechagi aholi takror barpo bo'lischening natijasi va kelajakdagi DEMOGRAFIYA rivojlanishning assosi bo'lib xizmat qiladi.

Aholi sonining o'sib borishida uning yosh tarkibi asosiy omil hisoblanadi. XX asrning o'rtalarida iqtisodiy rivojlangan davlatlarda aholi takror barpo bo'lishi tug'ilish darajasiniig nisbatan pastligi va aholi umumiy tarkibida bolalar salmog'ining kamligi bilan harakterlanadi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa ana shu davrda nisbatan yuqori tug'ilish va aholi tarkibida bolalar salmog'ining yuqoriligi harakterli yedi. Tug'ilish yuqori va uni nazorat yetish darajasi past bo'lgan sharoitda aholining yosh tarkibi, aholi soni o'sib borishiga bevosita ta'sir etadi.

Etnoslarga tavsif berishda ko'pincha mutaxassislar ularning diniy mansubligiga e'tibor qaratadilar. Turli tarixiy davrlarda diniy va etnik birliklar nisbati turlicha bo'lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida diniy va etnik chegaralar o'zaro mos kelgan.

Har bir xalq tomonidan yaratilgan xudolar milliy xudolar bo'lib, ularning ta'sir doirasi muayyan qabila chegarasidan tashqariga o'tmagan. Bu davrda har bir davlat va unga tegishli etnos o'z xudolariga, o'ziga xosdiniy tasavvurlariga ega bo'lgan. Jamiyat taraqqiyoti, etnik aloqalarni kuchayishi bilan ancha katta diniy birliklar vujudga keldi, bir dinga bir necha xalqlar e'tiqod qila boshlaydilar. Keyinchalik bir etnosning ma'lum qismi eski xudolariga sig'inishda davom etsalar, boshqalari yangi dinni qabul qilish hollari tez-tez ro'y berib turdi. Shunday qilib, xalqlar asta-sekin ko'pxudolikni qabul qila boshladilar. Jahon dinlarining vujudga kelishi bilan etnik va diniy chegaralar muvofiqligi barham topadi. Ba'zi holatlarda diniy tafovutlar til jihatdan o'zaro yaqin (gollandlar va flamandlar; serblar va xorvatlar va h.k.) aholi guruhlarining milliy chegaralanishida muhim rol o'ynaydi.

Keyingi davrlarda diniy mansublik va etnik mansublik o'rtasidagialoqalar susaya bordi. Ko'pgina yirik zamonaviy xalqlar turli dinlargasig'inuvchi kishilar guruhlarini o'zida birlashtiradi, ayni paytda bitta dinga ko'plab etnoslar e'tiqod qilishlari ham mumkin. Hozir faqat ba'zan, unda ham shartli ravishda milliy dinlar haqida gapirish mumkin (armangrigorian cherkovi - ko'pchilik armanlar, sintoizm - yaponlarning asosiy qismi, sikxizm - panjobliklarning ma'lum qismi va h.k.). Ba'zi mamlakatlarda hukmron mavqega ega dinga e'tiqod qilmaydigan deyarli barcha aholi milliy kamsonli guruhlar tarkibiga kiritiladi. Jumladan, Eronda nafaqat armanlar, assiriyaliklar, yahudiylar, shu bilan birga fors xalqining bir qismi bo'lgan gebrilar (zoroastriylar) ham milliy kamsonli guruh sifatida e'tirof etiladi. Ayrim arab davlatlarida etnik kamsonli guruhlarga nafaqat musulmon bo'limgan aholi, hatto islomning mazkur mamlakatda hukmron mavqega ega bo'limgan mazhabiga mansub guruhlar ham kiritiladi. Etnik birliklarda bo'lgani kabi, diniy birliklar uchun ham tabaqalashuv xosdir. Har bir din turli yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar va sektalarga bo'linadi. Odadta mamlakatlar yoki xalqlar shartli ravishda musulmon, nasroniy, budda dinlariga ajratiladi, biroq quyi taksonomik darajalarga tushgan sari bunday bir xillik yo'qola boradi. Ayrim nasroniy mamlakatlar diniy jihatdan bir necha qismlarga bo'lingan. Masalan, nemislar protestant (uning ikki oqimiga – lyuteranlik va reformatlik) va katolik dinlariga e'tiqod qiladilar; shveysarlarning turli guruhlari orasida protestantlar (reformatlik) va katoliklar tarqalgan; shotlandlar orasida protestant-presbyterianlar ustunlik qiladi. Bitta xalq turli qismlarining har xil diniy oqimlarga mansubligi tufayli uning ichida madaniy-maishiy tafovutlar kelib chiqadi va bu narsa o'z navbatida etnodiniy guruhlar shakllanishiga olib keladi. Bunday guruhlar jumlasiga kurdlar orasidagi yazidlar diniy guruhini, Suriya va Livan arablari orasida - druzlarni, misrliklar orasida - kopitlarni misol qilib keltirish mumkin.

Eramizning I mingyilligi boshlarida Old Osiyoda monoteistik din - nasroniylik yuzaga keldi. 1054 yilda u ikki: pravoslav va katolik yo'nalishlariga ajraldi.

XVI asrda katolik dinidagi islohotlar natijasida undan (Rim papasi hokimiyatini inkor qiluvchi va ilk nasroniylikka qaytishni yoqlovchi) protestantizm ajralib chiqdi. Protestantizm bir qancha mustaqil oqimlar (eng yiriklari: anglikanlar, lyuteranlik, kalvinizm, reformatlar va h.k.) ko'rinishida shakllandi va o'z navbatida ular ham mayda bo'lakchalarga bo'linib ketdi. Nasroniylik tarkibida yuqorida qayd etilgan uchta (pravoslav, katolik va protestant) asosiy tarmoqdan tashqari, yana ikkita nisbatan kam tarqalgan, V asrda shakllanib, diniy marosimlari pravoslavlarga yaqin bo'lgan monofisit va nestorian yo'naliishlari mavjud. Boshqa monoteistik din - islom - VII asrda arablar orasida shakllandi.

Yangi din oradan ko'p o'tmay uchta: sunniy, shia va xorijiy yo'naliishlariga ajralib ketdi. Sunniylik va shialik o'rtasida siyosiy masalalarda, ayrim diniy marosimlar va an'analar bo'yicha tafovutlar mavjud.

Siyosiy tafovut shundaki, agar sunniylar xalifalik hokimiyatini yoqlasalar, shialar esa imomat tarafidordiirlar. Diniy marosimlar va an'analardagi farqlar ham anchagina. Sunniylikda shialikda mavjud bo'lgan "Muta", "ShaxseyVaxsey" va boshqa marosimlar yo'q. Sunniylar Makka va Madinashaharlarini muqaddas hisoblasalar, shialar Iroqdagi Karbalo va Najaf shaharlarini muqaddas deb biladilar. Sunniylar Sunnani butunligicha etirof etadilar, shialar esa uning ba'zi qismlarinigina tan olishadi. Bu oqimlar orasida bunday tafovutlar juda ko'p, shu bilan birga, malum o'xshashliklar ham bor.

Katoliklarning asosiy qismi Amerikada (ularumumiylar sonining yarmidan ko'prog'i) to'plangan; Yevropada taxminan 200 mln. kishi, Osiyo va Afrikada - 100 mln. kishidan. Protestantlarning 40%i Amerikada, 1/3 qismi Yevropada (asosan qit'aning shimoliy qismida), Afrika va Osiyoda mos ravishda 40 va 70 mln., Avstraliya va Okeaniyada - taxminan 20 mln. kishi. Pravoslavlар va boshqa sharqiy cherkovlar izdoshlari Janubi-Sharqiy Yevropa, Rossiya va Shimoliy Sharqiy Afrika aholisi orasida keng tarqalgan. Musulmonlar orasida tug'ilishning yuqoriligi tufayli keyingi yillarda ularning soni nasroniylardan oshib ketdi (1,5 mlrd. kishi atrofida). Ularning taxminan 90 foizi sunniylar, 9,5 foiziga yaqini shialar va 0,5 foizi xorijiylardan iborat. Islomga e'tiqod qiluvchilar asosan Shimoliy Afrika va Osiyoda (uning sharqiy qismi bundan mustasno) jamlangan. Boshqa barcha dinlarning izdoshlari - asosan Osiyo aholisi. Induiistlar taxminan 550 mln., buddistlar - 300 mln. (ular orasida maxayanistlar - 60% atrofida), konfusiylar - 200 mln., sintoistlar - 100 mln., daosistlar - 30mln., sikxlar - 15 mln., aynlar - 4 mln., zoroastrizm tarafdarlari - 300 ming, yazidlar - 100 ming kishiga teng. Iudaistlar 15 mln. kishi atrofida bo'lib, ularning yarmidan ko'prog'i Amerika xalqlari hissasiga to'g'ri keladi.

Afrika, Osiyo va Okeaniyada saqlanib qolgan mahalliy dinlarga sig'inuvchilar sonini aniqlash ancha murakkab. Ularni hisoblashda muayyan dinga mansublik haqidagi ma'lumot doim ham xaqiqatga to'g'ri kelmaydi. Bundan tashqari, mazkur mintaqalar aholisi statistik jihatdan ham yaxshi o'rganilmagan. Nihoyatda taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, mahalliy dinlarga sig'inuvchilar soni dunyo bo'yicha 100 mln. kishi atrofida.

Aholi diniy tarkibi haqidagi ma'lumotlarning noaniqligi tufayli, turli dinlarga sig'inuvchilar soni bo'yicha o'sish dinamikasini belgilash ancha murakkab. Shunga qaramasdan, musulmonlar va induistlar sonining jadal o'sishi, boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar o'sish sur'atining esa pastligi yoki hatto kamayishi kuzatilmoqda. Buning sababi, induizm va islom hukmron bo'lgan davlatlarda aholi orasida tug'ilish sur'atlarining yuqoriligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, islom Afrikada janubga, uning tropik qismiga tomon jadalsiljimoqda, induizm esa Hindiston qabilalari orasida keng tarqalmoqda.

Yer sharining yirik mintaqalari bo'yicha diniy guruuhlar tarqalishi quyidagi ko'rinishga ega: MDHning katta qismini pravoslav diniga mansub kishilar guruuhlari (Rossiyaning katta hududlari, Ukraina, Belorus, Moldova va Gruziya) tashkil etadi. Armanistonning xudojo'ylar monofisit arman-grigoriancherkoviga mansub, Litvada katolik dini, boshqa Boltiqbo'yи davlatlarida yuteranlik keng tarqalgan. Islom diniga Markaziy Osiyo va Qozog'iston, Kavkazning katta qismi, Tatariston va Boshqirdiston aholisi e'tiqod qiladi. Ozarbayjonda asosan shia oqimiga mansub musulmonlar, boshqa hududlarda - sunniylarko'pchilikni tashkil etadi. Buddizm-lamaizmga Buryatiya, Tuva va Qalmig'iston tubjoy aholisi e'tiqod qiladilar. Xudojo'y yahudiylar - iudaistlardir.

Yevropa shimolida protestantlik, Skandinaviya davlatlari, Finlyandiyava Islandiyada - lyuteranlik, Angliyada - anglikanlik, Shotlandiyada-presviterianlik ustunlik qiladi. Belgiya, Lyuksemburg, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Avstriya va Maltada katolik dini tarqalgan.

Markaziy Yevropada katoliklar va protestantlar soni deyarli teng, biroq Germaniyada protestantlar orasida lyuteranlar, Shveysariya va Niderlandiyada esa - reformatlar ustunlik qiladi. Gresiyada ko'pchilik xudojo'ylar pravoslavlardan, Turkiya Yevropa qismida esa -musulmonlardan iborat. Polsha, Chexiya, Slovakiya va Vengriya aholisi orasida katoliklar, Bolgariya va Ruminiyada - pravoslavlavlari, Germaniyada- protestantlar (asosan lyuteranlar), Albaniyada – muslimonlar (sunniyalar) ko'pchilikni tashkil etadi. Sobiq Yugoslaviya respublikalaridako'proq pravoslavlavlari, qisman katoliklar va muslimonlar mavjud.Osiyo aholisi diniy jihatdan nihoyatda xilma-xil. Islom barcha Old Osiyo mamlakatlarda(Isroiil,Kipr va Livandan tashqari),Pokiston, Bangladesh, Maldiv orollari, Indoneziya va Malayziyada yetakchilik qiladi. Kipr, Sharqiy Timor, Hindiston, Shri-Lanka, Filippin aholisining muayyan qismi muslimonlardan iborat. Ko'pchilik mamlakatlarda islomning sunniy mazhabi hukmronlik qilsa, Eronda shialikning mavqeい yuqori. Iroq, Yaman Arab Respublikasi va Baxraynda sunniylar va shialar soni deyarli teng. Eron, Hindiston, Pokistonda zoroastriylarning, Eron, Iroq va Turkiyada - yazidlarning kamsonli guruhlari mavjud.Hindiston va Nepal induizm tarqalgan asosiy hududlardir. Induistlar Shri-Lanka va Bangladesh hamda Indoneziyaning Bali oroli aholisi orasida ham uchraydi.Hindixitoy mamlakatlari va Shri-Lankada aholining ko'pchiligi buddistlardan iborat (Vietnamda - maxayana mazhabi, boshqalarda -txeravada). Shu bilan birga, ayrim Sharqiy Osiyo mamlakatlari aholis maxayana buddizmidan tashqari, bir vaqtning o'zida boshqa dinlarga: jumladan, Xitoyda - konfusiylik va daosizmga, Koreyada - konfusiylikka,Yaponiyada - sintoizmga ham e'tiqod qiladilar. Mug'ulistonning xudoyjo'y aholisi - lamaist buddistlardir. Osioning faqat ikki mamlakati,ya'ni,Filippin (asosan katoliklar) va Kiprda(pravoslavlavlari) nasroniylar yetakchilik qiladi.Mazkur denga sig'inuvchilar Livan aholisi yarmidan ozrog'ini tashkil etadi (maronitlar).

Osiyoda qabilaviy ibodat izdoshlari soni izchil kamayib bormoqda.

Hozirgi paytda ular faqat Janubiy va Janubi-Sharqiy Osioning boorish qiyin bo'lgan tog'li o'lkalaridagina saqlanib qolgan. Afrikaning barcha arab davlatlarda, Somali va Jibutida islomning sunniy mazhabi hukmronlik qiladi. Sahroi Kabirdan janubda joylashgan bir qator mamlakatlarda (Sudan, Chad, Niger, Yuqori Volta, Mali, Senegal, Gambiya, Gvineya, Gvineya-Bisau, Serra-Leone, Liberiya) muslimonlardan tashqari, mahalliy dinlarga sig'inuvchi muayyan guruhlar saqlanib qolgan. Efiopiya aholisining 2/3 qismi nasroniylikning monofit mazhabiga mansub. Nigeriyada muslimonlar asosan mamlakat shimolida joylashgan bo'lib, aholining yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi. Shu bilan birga, bu yerda nasroniylar va mahalliy dinlarga sig'inuvchi guruhlar hammavjud. Qit'aning boshqa mamlakatlarda nasroniylar (protestantlar va katoliklar) hamda mahalliy dinlarga sig'inuvchi guruhlar turlicha nisbatda taqsimlangan. Umuman yer sharida saqlanib qolning mahalliy dinlarga sig'inuvchilarning deyarli 80 foizi Afrikada jamlangan. Deyarli barcha Amerika mamlakatlarida nasroniylik boshqa dinlardan ustunlik qiladi.

AQSh va Kanadada protestantlar ko'p bo'lib, ular o'z navbatida xilma-xil diniy oqim va sektalarga bo'linib ketganlar. Janubiy va Markaziy Amerika aholisining ko'pchiligi - katoliklar. Vest-Indiyaning bir orolida son jihatdan katoliklar ustun bo'lsalar, boshqasida - protestantlar. Kuba, Gayana, Surinam hamda Trinidad va Tobagoda katolik va protestantlardan tashqari, induistlar va muslimonlarning ma'lum guruhlari joylashgan. Janubiy Amerikaning ichki hududlaridagi hindu qabilalari mahalliy dinlarga sig'inadilar.Avstraliya va Okeaniyada xudojo'ylarning katta qismini turli oqim va sektalarga bo'lingan protestantlar, ozroq qismini esa katoliklar tashkil etadi.

Yangi Kaledoniya, Guame hamda Uollis va Futun orollarida katoliklar protestantlarga nisbatan ko'proq. Fidjida nasroniylar bilan bir qatorda induistlar va muslimonlar mavjud. Mahalliy dinlarning tarafдорлари asosan Vanuatu, Papua-Yangi Gvineya va Avstraliya tubjoy aholisi orasida saqlanib qo

### **Foydalilaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati:**

#### **Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar**

- 1.Анохин А.А., Житин Д.В., География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013 – 307 с.
- 2.Абдурахмонов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик– Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
- 3.Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С., Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўйлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.

4.Копылов В.А. география населения. Учебное пособие.- М.: 1999. – 124 с.

**Qo'shimcha darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

- 5.Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va ololyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Т.: O'zbekiston 2017.
- 6.Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке Б., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. Т., 2002.
- 7.Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана:-Т., 2009.
- 8.Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. Т., 2002.
- 9.Bo'rieva M.R., Tojieva Z.N. Aholi geografiyasi.- Т., 2000.
- 10.Bo'rieva M.R., Eganova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari.-T.: 2008.
- 11.Максакова Л.П. Миграция населения: проблемы регулирования. Т., 2001.
- 12.Ubaydullaeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Umarova N.O. O'zbekiston DEMOGRAFIYA jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o'quv qo'llanma). Т., 2006.
- 13.Soliev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi).-T.: 2009.
- 14.2011 World population Data Sheet of the population Reference Bureau.
- 15.Human geography: Landscapes of human activities. Sixth edition. Boston, 1999.

**Elktron manbalar:**

- <http://www.demoscope.ru>  
<http://www.dmo.econ.msu.ru>  
<http://www.undp.org/popin/popin.html>  
<http://www.demography.narod.ru>  
<http://stat.uz>  
<http://ziyo.net>  
<http://www.geografiya.uz>  
<http://www.geograf.uz>

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

- 1.Aholi soni nima?
- 2.Aholi sonini o'rghanishda uni qanday turlarga ajratiladi?
- 3.Doimiy aholi soni nima?
- 4.Real, mavjud aholi soni deganda nimani tushunasiz?
- 5.Aholining DEMOGRAFIYA tarkibiy qismlari qaysilar?
- 6.Aholining jinsiy tarkibi nima?
- 7.Aholining yosh tarkibi nima?
- 8.Aholini qanday yosh guruhlariga ajratish mumkin?

**Mavzu bo'yicha trst**

**1. Axoli migratsiyasi kanday jarayon?**

- A) axolining bir joydan ikkinchi joyga kuchishi  
B) axolining kuchishi  
\*C) axolining yashash joyini uzgartirish maksadida bir joydan ikkinchi joyga kuchishi  
D) axolining mexaniq xarakati  
E) axolining tabiiy xarakati

**2. Yosh akkumulyatsiyasi qanday ma'noni anglatadi?**

- A) keksa yoshdagilar  
\*V) aholi yoshining yaxlitlangan (0-4, 5-9, 10-14 va h.k) to'planmasi  
S) homilador ayollar yoshi  
D) ko'p farzandli oilalar  
E) aholining ijtimoiy guruhlari

**3. Dislokal tushunchasining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?**

- A) murakkab oila  
V) patriarchal oila  
S) ko'p nikohli oila  
\*D) nikohning bir turi bo'lib er va xotin birga yashamaydi va bitta maishiy jamoaga mansub bo'lmaydigan oila

E) doimiy yashaydigan oila

#### **4. Qaysi katorda oilaning ijtimoiy vazifasi tugri berilgan?**

\*A) Oilada farzandlarni kamoli inson kilib tarbiyalash

V) Oilada farzand kurish.

S) Oila a'zolarini ish bilan ta'minlash.

D) Oila a'zolariga ta'lim- tarbiya berish.

E) Oila a'zolarini ijtimoiy ximoyalash.

#### **5. Urbanizatsiya - bu ....**

A) axoli sonining usishi

\*V) mamlakat yoki rayon axolisi sonida shaxarliklar salmogining usishi

S) shaxar axolisi sonining kamayishi

D) axoli sonining kamayishi

E) axolining kuchishi

### **3-Mavzu: Aholi va aholi manzilgohlari joylanishi. SHahar aholisi geografiyasi va urbanizatsiya jarayoni Reja**

1.Aholi va aholi manzilgohlari joylanishi

2. Aholini hududiy tashkil etish

3. Aholi punktlapi tuzilishi, funksional turlari va shakllari.

4.Qishloq va shahar aholisi

5. Urbanizatsiya jarayoni

**Tayanch tushunchalar (kalit so'zlar):** Aholi manzilgohlari, demografik yo'nalish, alohida hudud, aholi punktlapi, tarixiy,tabiiy, shart-sharoit, etnografik, bevosita, bilvosita ta'sir, rel'ef, suv bo'yli, shamol yo'li, seysmik, eroziya, ishlab chiqarish faoliyati, nuqtai-nazardan, majmuali tadqiq, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, kichik-kichik qishloqlar, ikkita tipga ajratish, tarqoq joylashgan, yakka holda ,guruhashgan holda, turli xil kattalikdagi shahar , qishloq aholisi, passiv, zaifroq aholi punktlari.

Aholi va aholi manzilgohlari joylanishi, funksional turlari va shakllari. Yer shari bo'ylab aholining joylanishi ma'lum bir o'lcham va tipdagixilma-xil shakllarga ega aholi punktlapi tizimi hamda to'rini vujudga keltiradi. Demak, odamlarning doimiy yoki vaqtincha to'planadigan, mujassamlashadigan (konsentrasiya) joyi - aholi punktlapi, debnomlanadi. Bu aholi punktlapi odamlarning yashash joyi, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqaradigan va iste'mol qiladigan markazlari, avlodlarning takror barpo bo'ladijan ijtimoiy hayot o'chog'i hisoblanadi.

Aholi joylashishining hududiy ko'rinishi, ya'ni shakli-aholi punktlapidir. S.A. Kovalyov aholi va aholi punktlapini - inson tomonidan yaratilgan odamlar hayoti uchun zarur bo'lgan moddiy shart - sharoitga ega ma'lum bir hududda yashovchi aholining joylanishi, deb ta'riflaydi (1963. 6-bet). Aholi va aholi punktlapining joylanishida aniqlangan hududdagi aholi punktlari yig'indisi ularning bir - biri bilan aloqasi orqali to'rini tashkil etishini ham anglatadi.

Mamlakat xo'jaligi va xalqlarning yashash sharoiti uchun aholi punktlapi to'rining kengayisni, rivojlanishi va joylanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholi va xo'jalikni geografik nuqtai-nazardan baholashda barcha aholi yashash punktlapi tiplari va turlarini o'rganish zarurdir.

Aholini geografik o'rganishda ikki yo'nalish mavjud. Birinchidan, demografik yo'nalish ya'ni aholining o'sishi, yoshi va jinsi, milliy tarkibi, takror barpo bo'lishiga ko'proq e'tibor berilsa, ikkinchisida yuqoridaagi geografik jarayonlarning natijasi bo'lmish aholi punktlapi, ularning to'ri alohida tadqiq etiladi (Soliev, Qarshiboeva, 1999). Jamiyat hayotining asosini moddiy boyliklar ishlab chiqarish tashkil etadi. Yer sharidagi har bir alohida hudud aholi va aholi punktlapi tarixiy, tabiiy shart-sharoit va etnografik jihatlaridan kelib chiqib xilma-xil o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Jumladan, tabiiy shart-sharoit aholi punktlapi joylashuviga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir etadi. Qachonki, aholi punktlapi uchun joy tanlanayotganda bevosita tabiiy sharoit bilan (rel'ef, suv bo'yli, shamol yo'li, seysmik, eroziya va boshqalar) hisoblashmaslikning iloji yo'q. Agarda aholi

unktlapi ishlab chiqarish faoliyati nuqtai-nazardan vujudga kelsa, tabiiy sharoit bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Har qanday aholi punktlapini geografik jihatdan majmuali tadqiq etishda avvalo unda yashovchilarning soni va tarkibi, bandligi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tutgan mavqeyi, (madaniy, iqtisodiy va siyosiy) boshqa aholi punktlapi bilan aloqasini mukammal bilish talab etiladi va o'z navbatida yuqorida keltirilgan tarixiy, tabiiy va etnografik tomonlarini ham hisobga olish muhim ahamiyatga kasb etadi.

Aholi punktlapi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri bu ijtimoiy-iqtisodiy omillardir. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar tufayli vujudga kelgan aholi punktlapi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yuksalgan sayin rivojlanib boraveradi. Masalan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi undagi mayjud turli xil aholi punklapining ham eniga, ham bo'yigao'sishiga olib keladi. Bir vaqtlar Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlari respublika viloyatlari tarkibida umuman bo'limgan bo'lsa, keyinchalik, yuqoridagi sanab o'tilayotgan omillar tufayli kichik-kichik qishloqlar o'rnda yoki umuman aholi yashamaydigan joylarda yangidan yangi aholi punktlapi barpo qilindi va ular bugungi kunda bir necha o'nlab aholi punktlapini o'zida mujassamlashtirgan yirik viloyatlarga aylandi. Aholi va aholi punklapining joylanishi shakllari xilma-xil bo'lganligi bois ularni yirik ikkita tipga ajratishadi, tarqoq (dispers) va guruhlangan shakllari.

Tarqoq joylashgan aholi punktlapi - yakka holda qurilgan yashash joyi bo'lib, ular ko'proq xizmat yuzasidan (fermerlar) tashkil qilinib, bir-biridan ma'lum bir masofadagi uzoqlikda joylashadi. Guruhlashgan holda joylashgan aholi punktlapi - turli xil kattalikdagi shahar va qishloq aholi punktlapi ko'rinishda bo'ladi. Shu boisdan ham bunday guruh ko'rinishidagi aholi punktlapi ikkita - shahar va qishloq aholi punklapiga bo'linadi. "Qishloq, odatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatan passiv, zaifroq aholi punkti hisoblanadi.

Shaharlarning ko'p funksiyaligi, kattaligi, innovasiya, investisiya va infratuzilma salohiyatining kuchliligi, iqtisodiyotning ko'p tarmoqliligiga yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o'qishi, davolanishi, ishlashi uchun imkoniyatlarning keng ekanligi, ularning ta'sirchanligi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmualarda yetakchi rol o'ynashini ta'minlab beradi.

Qishloq shaharga ma'lum darajada bo'yinadi, uni qishloq xo'jaligi xom ashyosi bilan, aholisini toza havo, suv, iqtisodiyotini ishchi kuchi bilan ta'minlab turadi. Shahar esa qishloqqa malakali kadrlar, qishloq xo'jaligiga mashina, asbob-uskunalar, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari, zamonaviy servis xizmatini yetkazib beradi "Shahar va qishloq aholi punktlapi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'rtasida aniq chegara o'tkazib bo'lmaydi. Sababi, shahar qishloq oralig'ida ham qator aholi punktlapi mavjudki, ular biri ikkinchisi bilan tutashib ketgan. Ammo, shunga qaramasdan, shahar va qishloqni bir-biridan ajratuvchi maxsus mezonlar ham borki, bumezonlar turli davlatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

### **Qishloq aholisi va aholi punktlapi geografiyası**

Qishloq aholi punklapining aniq bir ta'rifi yo'q, ammo aytish mumkin-ki, shahar aholi punktlapi talablariga javob bermaydigan barcha aholi punktlapi qishloqlar hisoblanadi. Shuningdek, uncha katta bo'limgan, sanoat, transport o'rmon xo'jaligi, dam olish uylari, sanatoriylar qoshida paydo bo'lgan kichik posyolkalar qishloq aholi punklapiga tegishli bo'ladi.

Dunyo bo'yicha qishloq aholi punklapining umumiyligi soni mayjud emas. Har bir davlat o'zining ma'muriy-hududiy tuzilishidan kelib chiqib qishloqlarni ajratishadi. Masalan, O'zbekistonda rasmiy shahar yoki shaharcha maqomini olmagan, aholisi 2000 kishigacha bo'lgan, aholisining deyarli barchasi qishloq xo'jaligida va u bilan bog'liq tarmoqlarda band bo'lgan aholi punktlapini qishloq aholipunklapiga kiritish mumkin.

Shaharlar qaysi funksiyani bajarmasin, qaysi kattalik va salohiyatga ega bo'lmasin qishloq aholi punktlapisiz, ya'ni qishloqlarsiz shaharga aylanmaydi. Bu o'rinda aholi punklapining ikkinchi yirik tarmog'i qishloqlarni, qishloq aholi punktlapini geografik o'rganish muhimahamiyat kasb etadi.

A.S. Soliev ta'biricha, qishloq aholi geografiyası shaharlar geografiyasiga (geourbanistikaga) qaraganda uncha "omadi kelmagan" ilmiy yo'naliш hisoblanadi. Qishloq aholi punklapining rivojlanishi qishloq xo'jaligi tarmog'i bilan chambarchas bog'liq. Biroq, aholisi qishloq xo'jaligida band bo'lmasdan sanoatda, transportda va boshqa tarmoqlarda ishlaydigan aralash funksiyali qishloq aholi punktlapi ham mayjud. Shu boisdan dunyodagi davlatlar aholisini hududiy bo'yicha qaralganda qishloq aholisi alohida statistik ko'rsatkichni qishloq xo'jaligida band bo'lganlar

boshqa ko'rsatkichni tashkil etadi. Masalan, O'zbekiston aholisining 48 foizi qishloqlarda yashaydi, 28 foizi qishloq va o'rmon xo'jaligida band.

Aksariyat qishloq aholi punktlapi bevosita yer bilan chambarchas bog'langan. Yer qishloq ahlining asosiy ishlab chiqarish vositasi, ularni boqadigan zamini hisoblanadi. Biroq yerdan foydalanishdagi va qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvidanagi tafovutlar iqlim, rel'ef hamda tabiiy sharoit bilan uzviy bog'langanligi tufayli bir-biridan keskin farq qiladi. Bu esa qishloqlardagi ishlab chiqarish tiplarining ham xilma-xilligiga olib keladi.

Qishloq joylarda qishloq xo'jaligida bevosita band va ma'lum bir qismi esa qishloq xo'jaligida band bo'limgan aholi ham yashaydi. Shu boisdan, qishloq xo'jaligida band bo'limgan qishloq aholisini uchta guruhga ajratish mumkin:

- 1) qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi tarmoqlarda (savdo, xizmat ko'rsatish, maorif, sog'liqni saqlash va boshq.) band bo'lganlar;
- 2) shaharga yaqin bo'lgan korxona va muassasalarda ishlovchilar;
- 3) qishloq joylarda joylashgan sanoat va boshqa korxonalarda bandlar.

Qishloq aholisining bunday o'ziga xos xususiyati turli davlatlarda bir-biridan tubdan farq qiladi. Jumladan, iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadigan mamlakatlarda aholining katta qismi qishloq xo'jaligi bilan bog'langan bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa, aksincha, qishloq joylardagi aholi qishloq xo'jaligi bilan juda kam shug'ullanishadi.

Tabiiy sharoit qishloq aholisi punktlapidagi xo'jalik tarmoqlarining ixisoslashuviga hamda shu asosda kichik-kichik ixtisoslashgan qishloqlarning paydo bo'lishida muhim rol o'yaydi.

Qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan, aholisi qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirish va uni qayta ishlash bilan band bo'lgan aholi punktlapi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan aholi punktlapi, deb yuritiladi.

Bunday qishloqlar aholisi odatda dehqonchilik, bog'dorchilik, uzumchilikhamda chorvachilik bilan shug'ullanadi.

Qishloq aholi punktlapining ikkinchi guruhiga bir qismi aholi qishloq xo'jaligida, qolgani sanoat, transport, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan qishloq xo'jaligi bilan bog'lanmagan aholi punktlapi kiradi. Bunday aholi punktlapi odatda, "temir yo'l bekatlari, meterologik stansiya, rekratsiya va turistik sohalar, qazilma boyliklar, suv omborlari va kanallar asosida shakllangan. Bu qishloqlarning aholis ham uncha ko'p bo'lmaydi". Ko'pgina tuman ma'muriy markazlari ushb guruhga kiradi. Aynan, mana shunday ma'muriy markaz funktsiyasini bajaruvchi punktlap qishloq aholi punktlapi orasida o'zining yirikligi, agrar-industrial xususiyati bilan asosiy o'rinni egallaydi. Shuningdek, ushbu aholi punktlapi nafaqat ma'muriy - tashkiliy markaz, balki, madaniy, savdo-sotiq markazlari hamdir. Qolaversa, bunday qishloqaholi punktlapida xom ashyo va mehnat omiliga tayanilgan iqtisodiyottarmoqlarining kichik korxonalari joylashadi, ya'ni o'rmon, yog'och tayyorlash, ovchilik, transport xizmati (temir yo'l, quvur o'tkazish va.hak.). Qishloq xo'jaligi bilan bog'lanmagan qishloq aholi punktlapida yashovchilar aholiga rekrasision xizmat ko'rsatishni, tabiatni asrash, qo'riqxonalarni qo'riqlash kabi vazifalarni ham bajaradi.

Qishloq xo'jaligi bilan bog'lanmagan aholi punktlapi eniga va bo'yiga qarab o'sib bormoqda. Chunki, aksariyat mamlakatlarda qishloq aholisi salmog'ining kamayishi, suburbanizasiya masshtabi kengayishi, transport va xizmat ko'rsatish sohalarining ko'payishi ushbu turdag'i aholi punktlapi nisbiy va mutloq miqdori ortishiga olib kelmoqda. Ammo, bunday aholi punktlapi kichik, mayda qishloqlardan iborat bo'ladi. Sababi, uncha katta bo'limgan temir yo'l stansiyasi, foydali qazilma koni, kichik davolanish, dam olish maskanlaridan boshqa qishloqning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan omillar yetarli bo'limgan holda aholi manzilgohi kichikligicha qoladi. Hatto, foydali qazilma konlari ba'zasida tashkil topgan kichik qishloqlar vaqtinchalik xususiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2008 yilda 11831 ta qishloq aholi punktlapi bo'lgan, ulardagi aholi soni 17374,0 ming kishini tashkil etgan. Mazkur qishloq aholi punktlapining 54 foizi kichik, o'rta va katta qishloqlardan iborat, qolgani yirik qishloqlardir. Mamlakat qishloq aholisi demografik salohiyatining yildan-yilga ortib borishi qishloqlarning tobora yiriklashuviga, ular orasidagi masofalarining yaqinlashishiga, kichik va mayda qishloqlarning qo'shilib ketishiga olib kelmoqda. Bu esa katta va yirik qishloqlar miqdori ortishiga sabab bo'ladi.

Kelajakda qishloq aholi punktlapini shahar aholi punktlapiga nisbatan alohida olib tadqiq qilish dolzarb masaladir. Chunki, qishloq aholi punktlapini aholi geografiyasi fani doirasida o'rganib, shahar aholi punktlapiga nisbatan ba'zi tomonlari alohida tadqiqot talab qilishini guvohi bo'lamic. Kelajakda, aksariyat qishloqlar nafaqatmahsulot yetkazib beruvchi, balki uni qayta ishlovchi, xizma tko'rsatuvchi vazifalarni ham bajarilishini unutmaslik lozim.

### **Urbanizasiya jarayoni va shaharlar geografiyasi.**

Shaharlar yirik aholi punktlapi bo'lib, unda yashaydigan kishilarqishloq xo'jaligi bilan band bo'lmasdan, boshqa ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy sohalarda shug'ullanishadi.

Shaharlar turli makon va zamonlarda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqaruv markazi rolini o'ynagan. Shahar aholi punktlapi o'lchami jihatidan yirik va unda yashovchi aholi, qishloq aholi punktlapidagiga nisbatan ko'p sonliligi hamda zichligi bilan tavsiflidir. Shaharlarning qudrati ularda mujassamlangan iqtisodiy, intellektual va demografik salohiyat bilan belgilanadi.

Dunyo miqyosidagi shaharlarni aholiyligiga ko'ra maqom berishda aniq chegaralangan bir xil miqdordagi senz mavjud emas. Har bir davlatdagi shaharlar bajaradigan funktsiyasi va aholi punktlapining roli va aholi soniga qarab ajratiladi. Masalan, Daniya va Islandiyada aholisi 200 kishi va undan ko'p bo'lgan aholi punktlapi shahar, deb ataladi. Bundan tashqari Yaponiyada-30 mingdan oshiq, Niderlandiyada 20 ming, Turkiyada - 10 ming, Hindiston va Pokistonda - 5 ming, Meksikada - 2,5 ming, Fransiyada 2 ming, AQShda 2,5 ming, Xitoyda 3 ming, Germaniyada 5 ming kishi va undan ko'p aholi yashaydigan aholi punktlari shahar qatoriga kiritiladi. O'zbekistonda ishchi, xizmatchi va ularning oila 'zolari shahar aholisining 2/3 qismidan ko'prog'ini tashkil etishi hamda bunday aholi punktlarida sanoat korxonalari (og'ir industrial), kommunal xo'jalik tashkilotlari, davlat uy-joy fondi, o'quv yurtlari, madaniy-ma'rifiy, tibbiy, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari mavjud bo'lishi lozim. Bu mezon ham barcha davlatlarda bir xil emas. Sobiq SSSR davrida aholi punktlariga shahar maqomini berish bo'yicha bir qator qonun-qoidalar qabul qilingan. Bunday qonunqoidalar ayrim respublikalarda o'zaro farq qilar edi. Masalan, Ukrainada aholi soni shaharlar uchun 10000, shahar tipidagi posyolkalar (ShTP) uchun 3000 kishi qilib belgilangan.

O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich tegishlicha 7000 va 2000 kishini tashkil etadi. Aholi punktida istiqomat qiluvchilarining ko'pchilik qismi mehnatning qanday turi bilan bandligi darajasi ham shaharcha maqomini berishda muhim belgilaridan hisoblanadi. Chunonchi, Gruziyada ham, Turkmanistonda ham aholi punkti shahar maqomini olishi uchun, u yerda 5000 kishidan kam bo'lмаган aholi istiqomat qilishi kerak. Lekin, Gruziyada aholining 75% dan ortig'i ishchi, xizmatchi va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi talab etilsa, Turkmanistonda buning uchun 66 % aholi kifoya.

Shahar aholi punktlapining shahar, deb nomlanishida unda yashovchilar miqdori ham muhim ko'rsatkichlardan biridir. Mamlakatlar, mintaqalar aholisining hududiy tarkibida shahar aholisining va shaharlarning o'sib borishi - urbanizasiya jarayonining rivojlanishiga olib keladi. Urbanizasiya - (lotincha urbanus - shahar) - shaharlashish, ya'ni shaharlarning o'sishi va ko'payishi. Bu jarayon fan-texnika inqilobi davrida keskin kuchayib, shahar aholisining ko'payishiga, shahar turmush tarzining keng tarqalishiga sabab bo'ladi.

Dunyodagi shahar aholisining soni to'xtovsiz o'sishida davom etmoqda. Jumladan, 1900 yilda shahar aholisi jami aholining 3 foizini, 1860 yilda - 6,4 foizni, 1990 yilda - 19,6 foiz, 1990 yilda 43 foiz, 2005yilda esa 48 foiz, 2009 yilda 50 foizni tashkil qilgan. Bundan aholining shaharlarda konsentrasiyalashuvi ya'ni, mujassamlashuvi tezlashganini kuzatamiz. Urbanizasiyaning umumiyoq ko'rsatkichi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasini belgilaydi va o'z navbatida ular orasidagi aloqadorlik mohiyatini ifodalaydi. Chunonchi, agar urbanizasiya darajasi taxminan 70-75 va undan ortiq bo'lsa, u holda mamlakat sanoat jihatidan yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakat; 50-70 % industrial-agrar; 30-50 %- rivojlanayotgan agrarindustrial va 30 foizdan past, sust rivojlangan agrar mamlakat hisoblanadi.

Bulardan shahar aholi salmog'i urbanizasiya darajasini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, u yer sharining barcha hududlarida urbanizasiya jarayonining borishini ko'rsatadi. Jumladan, urbanizasiya darajasining ahamiyatlari tomonlarini quyidagi larda yaqqol ko'rish mumkin:  
1.Urbanizasiya darajasi 10% bo'lsa, bunday hududurbanizasiyalashmagan bo'ladi. Qishloq aholi punktlari bilan shahar aholipunktlari orasidagi farq deyarli bo'lmaydi. Qishloq turmush tarzi aks etadi

va shahar aholi soni yoki shaharliklar hissasi juda sekinlik bilan ko'payadi; 2. Agarda urbanizasiya darajasi 25 % dan past bo'lsa, qishloq aholipunktapi ustunligi seziladi, hudud kuchsiz urbanizasiyalashgan hisoblanadi. Ammo shahar turmush tarzi aks eta boshlaydi, oqibatda shahar aholisitezlik bilan ko'payadi, ommaviy shahar aholi punktlari paydo bo'la boshlaydi. Shahar va qishloq aholi punktlapi o'rtasidagi farq kattalasha boradi; 3. Urbanizasiya darajasi 50 % ga yetsa, shahar aholisining qishloqaholisidan ustunligi seziladi, hudud o'rta urbanizasiyalashgan hisoblanadi. Shahar aholi soni va o'sish sur'ati katta bo'ladi, shahar aholi punktlapi qishloqlardan yaqqol ajralib turadi; 4. Urbanizasiya darajasi 75 % ni tashkil etganda shaharlar qishloqlardan aniq farq qiladi, shahar turmush tarzi qishloq joylarga ham tarqala boshlaydi. Shahar aholisining hissasi va aholi o'sish sur'ati birdan sekinlashadi; 5. Mintaqa, mamlakat, hudud aholisida shahar aholisi hissasi 90 % bo'lsa, to'liq urbanizasiyalashgan hisoblanadi. Shahar turmush tarsi barcha qishloq aholi punktlapiga tarqaladi, qishloq bilan shahar orasidagi farq yana butunlay yo'qoladi. Aholi soni va salmog'i juda sekinlik bilan o'sadi, hatto ba'zi hollarda kamaya boradi

Yevropa mamlakatlarida bugungi kunda aynan shahar aholisi salmog'ida kamayish hodisasi ro'y bermoqda. Yevropa davlatlari deyarli hammasida shahar aholisi jami aholining 50 foizdan ko'pini tashkil qiladi (2009 y.). Faqatgina, Albaniya, Bosniya va Gersegovina aholisining 46 foizi shahar aholisi hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan Yevropa davlatlaridan Daniya (72 foiz), Shvesiya (84 foiz), Angliya (80 foiz), Germaniyani (73foiz) to'laligicha urbanistik tavsifga ega deyish mumkin.

Urbanizasiya darajasining keskin farq qilishida ijtimoiy-iqtisodiyomillar muhim o'rin tutadi. Biron-bir mamlakat, mintaqalarning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishi qanchalik yuqori bo'lsa, o'sha joyda urbanizasiya darajasi, shahar aholisi salmog'i katta bo'ladi. Ayrim hollarda tabiiy omillar tufayli ham urbanizasiya darajasi ko'tarilishi mumkin. Masalan, istiqbolli foydali qazilma konlari, kulay iqtisodiy geografik o'rinni va x.k.

### **Yer shari mintaqalarida urbanizasiya darajasi .**

Makrodarajadagi o'rin shaharlar rivojlanishida, yuqori bosqichlarga chiqishida alohida ahamiyatga ega. Biroq, bu o'rin shaharlar taraqqiyotida ijobiy xususiyat kasb etmasa, ular hayot faoliyati o'zgarishsiz qolaveradi.

Shahar funksional tiplari	Funksional tipning turlari	shaharlar
Ma'muriy-markazlar	Poytaxt	Toshkent O'zbekiston poytaxti
Viloyat markazi	Termiz Surxondaryo markazi	
Tuman markazi	Usmat shaharchasi Baxmal tumani markazi	
Sanoat markazlari	Qazib olish sanoati markazi	Rossiyada Surgut
Mashinasozlik markazi	Italiyada Turin	
Metallurgiya markazi	Polshada Katovise	
Transport markazlari	Dengiz portlari	Niderlandiyada Rotterdam
Temir yo'1 uzellari	Ukrainada Jmerinka	
Noishlab chiqarish	Kurort markazlari	Turkiyada Antaliya

markazlari		
Ilm va fan markazlari	Buyuk Birtaniyada Kembrij	
Moliyaviy markazlar	Shveysariyada Syurix	

o'rnii ular uchun muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Uni tabiiy geografik o'rindan, ya'ni tabiiy ob'ektlarga nisbatan tutgan o'rnidan farqlay bilish kerak. Chunki, dengiz qirg'og'i, tog' tizmalari shahar iqtisodiyotiga ta'sir etishi yoki etmasligi mumkin, deydi. Shaharlarning iqtisodiy geografik o'rnii (IGO') birqancha komponentlardan tashkil topadi.

Shuningdek, ba'zi olimlar shaharlarni quyidagi funksional tiplarga ajratishni ma'qul ko'radi. Siyosiy-ma'muriy markazlar, poytaxt shaharlar. Ko'p funksiyali shaharlar-viloyat markazlari. Ko'p tarmoqli yirik sanoat markazlari. Asosan bir yoki ikki sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan shaharlar Transport markazlari. Agroindustrial shaharlar. Tuman markazlari. Rekreatsiya shaharlar. Ilmu-fan markazlari, universitet shaharlari va x.k. Shaharlar mazkur yuqorida keltirilgan funksiyalari bo'yicha birbiridan ma'lum darajada farq qilishadi. Masalan, dunyoda AQShdagi Dstroyt, Rossiyadagi Tolyatti shaharlari avtomobilsozlik, Fransiyadagi Dyunkerk, Ukrainadagi Odessa, Rossiyaning Vladivostok, Murmansk transport, ya'ni port shaharlar; Angliyadagi Kembrij, Germanianing Xaydelburg, Dubna o'quv, ilmiy markazlar; Hindistonning Varanasi, Saudiya Arabistonining Makkasi diniy markazlar vazifasini bajarishibilan ajralib turadi. Ko'pgina shaharlar bitta emas, birqancha funksiyani bajaradi, bunday shaharlar "polifunksional" shaharlar hisoblanadi. 1-jadval.

**Shaharlarning funksional tipologiyasi.** Shuningdek, ayrim shaharlar ma'muriy markaz vazifasini bajarishadixonos, ya'ni Kanberra, Toshkent mamlakat ma'muriy markazlari bo'lsa, Jizzax, Termiz shaharlari viloyat markazlari, Shaxrisabz, Usmat uman markazlari vazifasini bajaruvchi shahar va shaharchalardir.

1. Shaharlarning tabiiy geografik o'rnii: Tabiat zonalariga nisbatan o'rnii; Tabiiy resurslarga nisbatan;

2. sanoat -geografik o'rnii: xom ashyo manbalariga nisbatan, ya'ni elektro energiya, yoqilg'I va hakozo; ayta ishslash sanoti markazlariga nisbatan;

3. shaharlarning agro-geografik o'rnii: qishloq xo'jaligi xom ashyosi ishlab chiqaradigan rayonlarga nisbatan; oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi rayonlarga nisbatan;

4. transport-geografik o'rnii: ichki muhim transport magistrallariga nisbatan; xalqaro ahamiyatga ega transport tizimiga nisbatan

5. bozor-geografik o'rnii: maxsulot tayyorlashga ixtisoslashgan tarmoq rayonlariga nisbatan; ist'emol mollari bilan ta'minlaydigan rayonlarga nisbatan

6. geodemografik o'rnii: aholi o'sishi bilan bog'liq rayonlarga nisbatan o'rnii; fan, ta'lim va madaniyat markazlariga nisbatan

7. siyosiy-geografik o'rnii mamlakat poytaxtiga nisbatan; davlat chegaralariga nisbatan;

8. harbiy-geografik o'rnii: mudofaa ahamiyatiga ega ob'ektlarga nisbatan; siyosiy (harbiy) konfilikt o'choqlariga nisbatan.

Shaharlarning mazkur geografik o'rnlari qulayligi ularning turli soha va tarmoqlar bo'yicha rivojlanishiga imkon beradi. Har bir shahar uchun eng muhim geografik o'rnii bu transport tarmoqlariga nisbatan joylanishi bo'lsa ham turli hududlarda IGO' ahamiyati bir-biridan ma'lum darajada farq qiladi. Shaharlar hoh u yirik, hoh mayda bo'lishidan qat'iy nazar har birining bajaradigan o'z funksiyasi bor. Shaharlarning funksiyasiyaholining shahar hosil qiluvchi tarmoq va sohalardagi ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi. Shaharlarni shahar hosil qiluvchi funksiyasigako'ra ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin:

## II. Ishlab chiqarish (industrial)

1) sanoat

2) transport

3) savdo-sotiq

## III. Noishlab chiqarish

Ko'plab kadimiy shaharlarning geografik o'rnii ular umrini belgilashga xizmat qilgan, desak xato bo'lmaydi. Chunki, aynan shu geografik o'rindagi noqulayliklar yer yuzidan ko'plab shahar va shaharchalarning yo'qolib ketishiga sabab bo'lgan. N.N. Baranskiy shaharlarning iqtisodiy geografik

o'rnii ular uchun muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Uni tabiiy geografik o'rindan, ya'ni tabiiy ob'ektlarga nisbatan tutgan o'rnidan farqlay bilish kerak. Chunki, dengiz qirg'og'i, tog' tizmalari shahar iqtisodiyotiga ta'sir etishi yoki etmasligi mumkin, deydi. Shaharlarning iqtisodiy geografik o'rnii (IGO') birqancha komponentlardan tashkil topadi.

Shuningdek, ba'zi olimlar shaharlarni quyidagi funksional tiplarga ajratishni ma'qul ko'radi. Siyosiy-ma'muriy markazlar, poytaxt shaharlar. Ko'p funksiyali shaharlar-viloyat markazlari. Ko'p tarmoqli yirik sanoat markazlari. Asosan bir yoki ikki sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan shaharlar Transport markazlari. Agroindustrial shaharlar. Tuman markazlari. Rekreatsiya shaharlar. Ilmu-fan markazlari, universitet shaharlari va x.k. Shaharlar mazkur yuqorida keltirilgan funksiyalari bo'yicha birbiridan ma'lum darajada farq qilishadi. Masalan, dunyoda AQShdagi Dstroyt, Rossiyadagi Tolyatti shaharlari avtomobilsozlik, Fransiyadagi Dyunkerk, Ukrainadagi Odessa, Rossiyaning Vladivostok, Murmansk transport, ya'ni port shaharlar; Angliyadagi Kembrij, Germanianing Xaydelburg, Dubna o'quv, ilmiy markazlar; Hindistonning Varanasi, Saudiya Arabistonining Makkasi diniy markazlar vazifasini bajarishibilan ajralib turadi. Ko'pgina shaharlar bitta emas, birqancha funksiyani bajaradi, bunday shaharlar "polifunksional" shaharlar hisoblanadi. 1-jadval.

**Shaharlarning funksional tipologiyasi.** Shuningdek, ayrim shaharlar ma'muriy markaz vazifasini bajarishadixonos, ya'ni Kanberra, Toshkent mamlakat ma'muriy markazlari bo'lsa, Jizzax, Termiz shaharlari viloyat markazlari, Shaxrisabz, Usmat uman markazlari vazifasini bajaruvchi shahar va shaharchalardir.

1. Shaharlarning tabiiy geografik o'rnii: Tabiat zonalariga nisbatan o'rnii; Tabiiy resurslarga nisbatan;

2. sanoat -geografik o'rnii: xom ashyo manbalariga nisbatan, ya'ni elektro energiya, yoqilg'I va hakozo; ayta ishslash sanoti markazlariga nisbatan;

3. shaharlarning agro-geografik o'rnii: qishloq xo'jaligi xom ashyosi ishlab chiqaradigan rayonlarga nisbatan; oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi rayonlarga nisbatan;

4. transport-geografik o'rnii: ichki muhim transport magistrallariga nisbatan; xalqaro ahamiyatga ega transport tizimiga nisbatan

5. bozor-geografik o'rnii: maxsulot tayyorlashga ixtisoslashgan tarmoq rayonlariga nisbatan; ist'emol mollari bilan ta'minlaydigan rayonlarga nisbatan

6. geodemografik o'rnii: aholi o'sishi bilan bog'liq rayonlarga nisbatan o'rnii; fan, ta'lim va madaniyat markazlariga nisbatan

7. siyosiy-geografik o'rnii mamlakat poytaxtiga nisbatan; davlat chegaralariga nisbatan;

8. harbiy-geografik o'rnii: mudofaa ahamiyatiga ega ob'ektlarga nisbatan; siyosiy (harbiy) konfilikt o'choqlariga nisbatan.

Shaharlarning mazkur geografik o'rnlari qulayligi ularning turli soha va tarmoqlar bo'yicha rivojlanishiga imkon beradi. Har bir shahar uchun eng muhim geografik o'rnii bu transport tarmoqlariga nisbatan joylanishi bo'lsa ham turli hududlarda IGO' ahamiyati bir-biridan ma'lum darajada farq qiladi. Shaharlar hoh u yirik, hoh mayda bo'lishidan qat'iy nazar har birining bajaradigan o'z funksiyasi bor. Shaharlarning funksiyasiyaholining shahar hosil qiluvchi tarmoq va sohalardagi ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi. Shaharlarni shahar hosil qiluvchi funksiyasigako'ra ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin:

## II. Ishlab chiqarish (industrial)

1) sanoat

2) transport

3) savdo-sotiq

## III. Noishlab chiqarish

1)harbiy

2)madaniy fan markazlari hisoblanadi. Shaharlarni vazifasiga ko'ra bunday ajratish odatda ular aholisi bandligi xususiyatidan kelib chiqadi.

Shaharlar katta-kichikligiga qarab ham funksional tiplarga ajratiladi. Shaharlarning katta-kichikligi ular aholisi soniga qarab belgilanadi.Odatda, shaharlar aholisi soniga ko'ra quyidagicha klassifikasiyalanadi:

I. kichik shahar: 20 ming kishi

II. o'rta shahar: 20 mingdan 100 ming kishigacha

III. katta shahar: 100 mingdan 500 ming kishigacha

IV. yirik shahar: 500mingdan 1000 ming kishigacha

V. millioner shahar: 1000 ming va undan ortiqVI. o'ta millioner shahar: 10 mln va undan ko'p kishi.

Shaharlarning funksional tuzilishi shahar hayotining barcha jabhasida yaqqol seziladi, shu boisdan shaharlarni turli yo'nalishda tadqiq etishda buni albatta hisobga olish lozim. Shaharlarning funksional tuzilishi aholi takror barpo bo'lishi sur'atiga, aholi demografik tarkibiga, aholi bandligi, aholi migratsiyasi xarakteriga, aholi ijtimoiy tarkibiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Aholining yirik shaharlarda to'planishi yirik-katta shaharlarning vujudga kelishiga ham sabab bo'lmoqda. Yirik shaharlar mayda va o'rta shaharlar hisobiga tobora gigant shaharlarga aylanmoqda.

Ishlab chiqarish, madaniy-maishiy, kommunal-xo'jalik aloqlarini o'zaro tutashgan holda vujudga kelayotgan shahar aholi punktlapining yangi turi fanda aglomeratsiya, deb nomlanadi.

Aglomeratsiya-aholi punktlarning bir-birlariga qo'shilib ketib, ulkan shahar, yagona iqtisodiy hudud hosil qilishi. Aglomeratsiyalarda aholi zinch o'rnashgan, xilma-xil ishlab chiqarish tarmoqlari, xususan sanoatkxonalarini, ilmiy va o'quv muassasalarini to'plangan bo'ladi.

Aglomeratsiya so'zi fransuz adabiyotlarida uchraydi, inglizlar buni konurbasiya, amerikaliklar metropolislar, deb atashadi.

Shahar aglomeratsiyasi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishi tufayli turli funksional tip va yiriklikdagi shaharlarning vujudga kelishi va ularning bir joyda to'planishidan, xususan shaharlarning qulay iqtisodiy geografik o'rin tufayli eniga va bo'yiga kengayib borishidan hamda yirik shahar atrofida va unga yaqin joyda shahar va shaharchalarning tarkib topib qo'shilib ketishidan paydo bo'ladi.

Shahar aglomeratsiyasi quyidagi shart va sharoitlarga tayangan holda shakllanadi:

- shahar atrofida bitta yoki ikkita yirik shahar bo'lishi lozim; - uning atrofida kamida ikkita shahar va shaharchalar bo'lishi shart;
- markaziy shahar (aglomeratsiya yadrosi) va yo'ldosh shaharchalar orasidagi masofa eng ko'pi ikki soatlik vaqt doirasida bo'lishi zarur;
- aglomeratsiya shahar va shaharchalari o'rtasida mayatniksimon (tebranma) migratsiya aloqasi rivojlangan bo'lishi shart;
- atrofidagi shaharlar aholisi eng kami aglomeratsiya aholisining 10 foizini tashkil etishi zarur va x.k.

Dunyoda birinchi shahar aglomeratsiyasi XIX asrning ikkinchi yarmida yirik shaharlar (London, Parij, Nyu-York va boshqa.) yoki unga yaqin joylashgan alohida uncha katta bo'lmanan shaharlar atrofida shakllangan. Aglomeratsiyaning birinchi tipi yagona markazga asoslangan monosentrik xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tipi polisentrik,ya'ni mavqeい jihatdan teng bo'lgan ko'p markazlardan iborat bo'lgan. Bulardan monosentrik aglomeratsiyalar tipi keng tarqaldi. Holbuki, hozirdapolisentrik tipi ham ko'p sonlidir.Shu o'rindakeltirish joizki,aglomeratsiyalar bir markazli (monosentrik) va ko'p markazli (polisentrik) xususiyatga ega bo'ladi Farg'on-a-Marg'ilon, Angren-Olmaliq aglomeratsiyalari polisentrik, Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan, Qarshi, Nukus, Urganch va boshqa aglomeratsiyalar monosentrik hisoblanadi.

Shahar aglomeratsiyasi - mehnat, madaniy-maishiy, rekrasion, infratuzilma, ishlab chiqarish va boshqa aloqlarini bilan o'zaro birlashgan shahar aholi punktlari guruhiga aytildi. Dunyoda eng yirik aglomeratsiyalar 20 dan ortiq bo'lib, ularning ko'pi AQShda ( Chikago, Nyu-York, LosAnjeles), Hindistonda (Dehli, Bombey, Kalkutta), Yaponiyada (Tokio, OsakoKioto-Kobe) va Braziliyada (San-Paulu, Rio-de-Janeyro) joylashgan.

Pokiston (Karachi), Buyuk Britaniya (London), Eron (Tehron), Argentina (Buenos-Ayres), Fillipin (Manila), Xitoy (Shanxay), Fransiya (Parij), Bangladesh (Dakka), Rossiya (Moskva) kabi mamlakatlarda aglomeratsiyalar soni atiga bittadan, xolos. Shahar aglomeratsiyalari vaqt o'tishi bilan rivojlangan davlatlarga nisbatan rivojlanayotgan davlatlarda tobora o'smoqda.

Aglomeratsiya chegaralari odatda, markaz shahar bilan uning atrofidagi shaharlar o'rtasidagi mehnat, madaniy-maishiy aloqalar samaradorligi bilan belgilanadi. Bu aloqalar chegarasi hozirgi zamonaviy transport rivojlangan bir vaqtda 50-60 km oraliqdagi radiusni tashkil etadi. Ko'pgina hollarda bu shahar aglomeratsiya chegarasi ma'muriy chegaralar bilan mos kelmaydi.

Shahar atrofidagi aholi punktlapining shahar markazidan va uning atrofidan kelayotgan aholi hisobiga tezroq rivojlanishi shahar aglomeratsiyasining o'z chegarasidan tashqariga chiqishiga olib kelmoqda. Bu jarayon fanda suburbanizasiya-deb ataladi (suburbanizasiya lotinchadan subur-shahar atrofi). Shahar markazidagi ekologik vaziyat, o'ziga xos murakkab turmush tarzi, narx-navoning balandligi, jinoyatchilikning o'sishi, soliqning yuqoriligi kabi noxush holatlardan charchagan, zerikkan odamlarning shahardan tashqariga ko'chib o'tishi va shahar markaziga ishga kelib-ketishi suburbanizasiya jarayoning rivojlanishida yetakchi omillar hisoblanadi. Eng avvalo bunda aholining moddiy jihatdan o'ziga to'q qatlami shahar atrofiga kelib joylasha boshlaydi. Keyinchalik o'rta qatlam va o'z navbatida aholi bilan baravariga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari ham kelib o'mashadi, rivojlanadi.

Vaqt o'tishi bilan shahar va shaharchalar, o'zaro hududiy tutashib, qo'shilib ketadi va uni ayrim joylarda urbanizasiyalashgan hududlar deyishadi (London, Rur havzasi konurbasiyasi va x.k.). Urbanizasiyalashgan hududlar 3-5 ta aglomeratsiyaning birlashishidan tarkib topadi.

### **Dunyoning yirik megalopolislari.**

Shahar aglomeratsiyalarining o'zaro qo'shilib ketishidan hosil bo'lgansahar aholi punktlapi urbanizasiyalashgan zonalar yoki megalopolislar (ushbu tushunchani ilk bora frantsuz urbanisti Jan Gotman 1950-yillarda AQShning shimoli-sharqiga nisbatan ishlatgan), deb yuritiladi. Hozirda dunyo bo'yicha, Shimoli-sharqi Atlantika (AQSh) 40 ta aglomeratsiyani, Ichki, Ko'l atrofi (AQSh, Kanada) 35 ta, Janubiy-G'arbiy, Tinchokean (AQSh, Meksika) 15 ta, Tokaydo (Yaponiya) 20 ta, Angliya (Buyuk-Britaniya) 30 ta, Reyn (Germaniya, Niderlandiya, Belgiya, Fransiya) 30 ta aglomeratsiyalarni o'ziga qamrab olgan yirik megalopolislardir. Kuchsiz urbanizasiyalashgan hududlarda ham megalopolislar tashkil topmoqda. Masalan, Braziliyada SanPaulu-Rio-de-Janeyro-Belu-Orizonti megalopoli. Rossiyada Moskva va Nijniy Novgorod o'rtasidagi megalopolislar shular jumlasidandir. G'arbiy Yevropadagi megalopolislar o'lchamiga ko'ra kichik bo'lib, bulardan London, Birmingem, Liverpul va Manchester aglomeratsiyalaridan hosil bo'lgan Angliya megalopolisida 35 mln kishi joylashgan.

Dunyo olimlarining prognoziga ko'ra alohida megalopolislar o'zaro birlashib yagona Oykumenopolislarni tashkil etadi. Oykumenopolis nazariyasini grek urbanisti K.Doksiadis tomonidan ilgari surilgan. Oykumenopolislarda yer sharining eng ko'p aholisi yashaydi.

### **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati:**

#### **Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar**

- 1.Анохин А.А., Житин Д.В., География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013 – 307 с.
- 2.Абдурахмонов К.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик– Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.
- 3.Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С., Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
- 4.Копылов В.А. география населения. Учебное пособие.- М.: 1999. – 124 с.

#### **Qo'shimcha darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

- 5.Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Т.: O'zbekiston 2017.
- 6.Ата-Мирзаев О.Б, Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. Т., 2002.
- 7.Ата-Мирзаев О.Б.Народонаселение Узбекистана:-Т., 2009.
- 8.Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. Т., 2002.
- 9.Bo'rieva M.R., Tojieva Z.N. Aholi geografiyasi.- Т., 2000.

- 10.Bo'rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari.-T.: 2008.
- 11.Максакова Л.П. Миграция населения: проблемы регулирования. Т., 2001.
- 12.Ubaydullaeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Umarova N.O. O'zbekiston DEMOGRAFIYA jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o'quv qo'llanma). Т., 2006.
- 13.Soliev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi).-T.: 2009.
- 14.2011 World population Data Sheet of the population Reference Bureau.
- 15.Human geography: Landscapes of human activities. Sixth edition. Boston, 1999.

**Elktron manbalar:**

- <http://www.demoscope.ru>.
- <http://www.dmo.econ.msu.ru>.
- <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
- <http://www.demography.narod.ru>
- <http://stat.uz>.
- <http://ziyo.net>
- <http://www.geografiya.uz>
- <http://www.geograf.uz>

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Aholi va aholi manzilgohlari joylanishi?
2. Aholini hududiy tashkil etish xususiyatlari?
3. Aholi punktlapi tuzilishi, funktsional turlari va shakllari.?
4. Qishloq va shahar aholisi tarkibi?
5. Shahar aholisi geografiyasi?
6. Urbanizatsiya jarayoni?

**Mavzu bo'yicha trst**

**1. Axoli punktlari deb nimaga aytildi?**

- \*A) ma'lum bir shaklga ega bulgan axolining xududiy joylashishi
- B) axolining ijtimoiy-iktisodiy xususiyatlariga kura joylashishi
- C) axolining etnik va tabiiy birliklariga kura joylashishi
- D) shaxar va kishlok axolisining joylashishi
- E) axolining ma'muriy-xududiy birliklarda joylashishi

**2. SHaxar aglomeratsiyalari, bu ...**

- A) shaxarlarning aloxida rivojlanishi
- B) yirik shaxarlarning yuzaga kelishi
- \*C) shaxarlarning gurux bulib rivojlanishi, shaxar axoli punktlarining xududiy jixatdan bir-biri bilan kushilib ketishi yoki bir-biriga juda yakin joylashishidir
- D) yirik shaxarlarning uz atrofidagi shaxarlar bilan xamkorlikdagi rivojlanishi
- E) shaxar markazining atrofidagi yuldush axoli kurgonlari bilan xamkorlikdagi rivojlanishi

**3. SHaxarlarni makrogeografik urni deganda nimani tushunasiz?**

- A) SHaxarlarning kushni viloyat yoki shaxarlarga nisbatan joylashishi
- B) SHaxarlarning respublika va mamlakatlar xududiga nisbatan joylashishi
- C) SHaxarlarning tabiiyo yoki iktisodiy omillarga nisbatan joylashishi
- D) SHaxarlarning uzini yakin atrofiga nisbatan joylashishi
- \*E) SHaxarlarning geosiyosiy urniga nisbatan joylashishi

**4. Rondshtat-Xolland aglomeratsiyasi qaysi mamlakatda joylashgan?**

- A) AKSH
- B) Germaniya
- C) Buyuk Britaniya
- \*D) Gollandiya
- E) Yaponiya

**5. Kuchib yuruvchi axoli punktlari kanday shakllda buladi?**

- \*A) ovul, yurta
- B) mavsumiy dam olish maskanlari shaklida
- C) yulduzsimon shaklda
- D) aylana shaklida
- E) lenta shaklida

**“A X O L I   G E O G R A F I Y A S I V A  
DEMOGRAFIYA ASOSLARI”**

fanidan

**A M A L I Y   M A S H G' U L O T L A R  
I S H L A N M A S I**



Namangan-2022

## **II. AMALIY MASHG'ULOTLAR**

### **Amaliy mashg'ulotlarning tavsiya etilgan mavzulari**

Har bir amaliy mashg'ulot, dastlab ishning maqsadini va mavzuga oid nazariy bilimlarni qisqacha yoritishdan boshlanadi. So'ng ishni bajarish uchun zarur bo'lган ma'lumotlar va qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun talab qilingan vazifalar aniq belgilanib, ishni bajarish tartibi esa qo'yilgan vazifalar ketma-ketligiga asoslanadi. Barcha ishlar olingan natijalarning tahlili bilan yakunlanadi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar turli statistik ma'lumotlar, manbalarga tayangan holda DEMOGRAFIYA jarayonlarni, aholi takror barpo bo'lish qonuniyatlarini tahlil qilishni o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlar multimedya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**2022-2023 o'quv yili uchun Aholi geografiyasи va demografiya asoslари fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun quydagicha mavzular va ularning soatlardagi taqsimlanishi berilgan.**

<b>№</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Soati</b>
<b>4-semestr</b>		
<b>1.</b>	Aholi soni va dinamikasining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash	<b>2</b>
<b>2.</b>	Dunyo aholisi va uning joylanishini kartada tuzish; Juhon malakatlarida aholi migratsiyasining statistic tahlili	<b>2</b>
<b>3.</b>	Shimoliy yarim shardagi mamlakatlar aholisi milliy, irqiy va diniy tarkibining geografik va DEMOGRAFIYA jihatlarini baholash	<b>2</b>
<b>6s</b>		
<b>5-semestr</b>		
<b>1</b>	Dnyo mintaqalari aholisi tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish jadvalini nuzish	<b>2</b>
<b>2</b>	Yirik aglomeratsiyalar megopolislар oykumenopolislар geografiyasini tahlil qilish.	<b>2</b>
<b>3</b>	Urbanizatsiya, shaharlar aholi soni, zichligi kartasini ishlash va tavsiflash.	<b>2</b>
<b>4</b>	O'zbekiston respublikasi shahar aholi manzilgohlari geografiyasи	<b>2</b>
<b>8s</b>		
<b>Ja'mi</b>		<b>14</b>

# **IV-semestr**

## **1-mavzu. Aholi soni va dinamikasining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash**

**Amaliy mashg'ulot maqsadi:** Aholi soni va dinamikasining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

### **Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:**

1. Dunyo aholisi dinamikasi, moxiyati va tuchuncha
2. Aholi soni dinamikasi bo'yicha davlatlarni ajratish, guruxlash
3. Aholi soni dinamikasini ifodalovchi asosiy, mutlaq va nisbiy ko'rsatgichlar
4. Asosiy tushunchalar (demografiya, aholi, aholishunoslik, aholi takror barpo bo'lishi, DEMOGRAFIYA jarayonlar, DEMOGRAFIYA xulq, DEMOGRAFIYA vaziyat, DEMOGRAFIYA tarkib, DEMOGRAFIYA hodisa)ga ta'rif bering.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *diologik yondashuv, muammoli ta'lim, klaster, pibord, keys-stadi, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

**Adabiyotlar:** A1, A2, A3, A4, Q5, Q6, Q7, Q8, Q9, Q10, Q11, Q12, Q13.

## **2-mavzu. Dunyo aholisi va uning joylanishini kartada tushirish.Jahon mamlakatlarida aholi migratsiyasining statistic tahlili**

**Amaliy mashg'ulot maqsadi:** Dunyo aholisi va uning joylanishini kartada tuzish; Jahon mamlakatlarida aholi migratsiyasining statistic tahlili, xilma-xilligi haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. Talabalarda aholi migratsiyasi, uning turlari va omillari, migratsiya oqibatlari, dunyoda aholi migratsiyasi jarayonini holati, uning salbiy va ijobjiy oqibatlari, migratsiyaning davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga tasiri, uning mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari, migratsiya samaradorligi, migratsiya aylanmasi, migratsiya saldosi, aholi migratsiyasining O'zbekistondagi holati haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

### **Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:**

1. Dunyo aholisi va uning joylanishini kartada belgilang
2. Aholi migratsiyasi, uning turlari va omillariga yozma tavsif bering.
3. Dunyo mamlakatlarida aholi migratsiya jarayonlarini hududiy tafovutlarini tahlil qiling.
4. Aholi migratsiyasining ijobjiy va salbiy tomonlarini tushuntiring.
5. Aholi migratsiyasining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari haqida yozma tavsif bering.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *diologik yondashuv, muammoli ta'lim, klaster, pibord, keys-stadi, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

**Adabiyotlar:** A1, A2, A4, Q1, Q2, Q3, Q5, Q6, Q12, Q19, Q22, Q21, Q23.

## **3-mavzu. Shimoliy yarim shardagi mamlakatlar aholisi milliy, irqiy va diniy tarkibining geografik va DEMOGRAFIYA jihatlarini baholash**

**Amaliy mashg'ulot maqsadi:** Shimoliy yarim shardagi mamlakatlar aholisi milliy, irqiy va diniy tarkibining geografik va DEMOGRAFIYA jihatlarini baholash Talabalarda aholi o'limi, uning kelib chiqish sababari, aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi, aholining o'limini hududiy tafovutlari, aholi salomatligi va uni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

### **Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:**

1. Shimoliy yarimshardagi mamlakatlar aholisining milliy tarkibini geografik jihatlarini o'rganing.
2. Shimoliy yarimshardagi mamlakatlar aholisining milliy tarkibini aks ettirgan jadval va diagramma tuzing.
3. Shimoliy yarimshardagi mamlakatlar aholisining irqiy tarkibini geografik jihatlarini o'rganing.

4. Shimoliy yarimshardagi mamlakatlar aholisining irqiy tarkibini aks etgan jadval va diagramma tuzing.
5. Shimoliy yarimshardagi mamlakatlar aholisining diniy tarkibini geografik jihatlarini o'rganing.
6. Shimoliy yarimshardagi mamlakatlar aholisining diniy tarkibini aks ettirgan jadval va diagramma tuzing.

**Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari:** *diologik yondashuv, muammoli ta'lism, klaster, pibord, keys-stadi, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

**Adabiyotlar:** A1, A2, A3, A4, Q1, Q2, Q3, Q5, Q8, Q9, Q10, Q11, Q12, Q13, Q17.

## **V-semestr**

### **1-mavzu. Dnyo mintaqalari aholisi tug'ilish,o'lim va tabiiy ko'payish jadvalini tuzish.**

**Amaliy mashg'ulot maqsadi:** Dnyo mintaqalari aholisi tug'ilish,o'lim va tabiiy ko'payish jadvalini tuzishni. Talabalarda aholi tug'ilish,o'lim va tabiiy ko'payish sonining nisbiy va mutloq ko'rsatkichlari, ko'payishi va ko'payish sur'atlari ko'rsatkichlarini tahlil qilish va shakllantirishni.

#### **Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:**

1. Doimiy aholi sonini baholash va hisoblash va tahlil qilish.
2. Tug'ilish va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblash va tahlil qilish.
3. Aholi o'limi, uning turlari va yuzaga kelishi sabablarini. ta'riflash.
4. Aholining tabiiy ko'payish koeffitsientini hisoblash va tahlil qilish.
5. Aholi takror barpo bo'lishining zamonaviy tiplarini ta'riflang (kengaygan, oddiy va qisqagan aholi takror barpo bo'lishi).

**Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari:** *diologik yondashuv, muammoli ta'lism, klaster, pibord, keys-stadi, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

**Adabiyotlar:** A1, A2, A4, Q1, Q2, Q3, Q5, Q6, Q7, Q9, Q10, Q11, Q13, Q17, Q20, Q22.

### **2-Mavzu:Yirik aglomeratsiyalar megopolislard oykumenopolislard geografiyasini tahlil qilish.**

**Amaliy mashg'ulot maqsadi:** Yirik aglomeratsiyalar megopolislard oykumenopolislard geografiyasini tahlil qilish, aglomeratsiyalar, megopolislard jadvallarini tahlillab o'rganish

#### **Amaliy mashg'ulot topshiriqlari:**

